



# № 6

## «INSON KAPITALI VA IJTIMOIY RIVOJLANISH»

«HUMAN CAPITAL AND SOCIAL DEVELOPMENT»  
«ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ И СОЦИАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ»

**ISSN: 3030-3672**



**Volume 6, Issue 6, 2023**



**Samarqand\_2023**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND  
DAVLAT UNIVERSITETI**



**VI SON**

**Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish jurnali**

**Journal Human capital and social development**

**Журнал Человеческий капитал и социальнообразование**

**Samarqand\_2023**

**«INSON KAPITALI VA IJTIMOIIY RIVOJLANISH»**  
**«HUMAN CAPITAL AND SOCIAL DEVELOPMENT»**  
**«ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ И СОЦИАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ»**  
**JURNALI**

Bosh muharrir: t.f.d., prof. Xalmuradov Rustam Ibragimovich

Bosh muharrir o‘rinbosari: f-m.f.n., dots. Xushvaqtoy Hakim Abdilhakovich

Kotib: PhD., dots., Korjavova Xurshida Abdulmalikovna

Texnik muharrir: assistent., Rabbimov Muxriddin Musoqul o‘g‘li

**TAHRIRIYAT KENGASHI**

O‘zFA akademigi, i.f.d., prof. Abdurahmonov Qalandar Xodjayivech

O‘zFA akademigi, i.f.d., prof. G‘ulomov Saidaxror Saidaxmedovich

i.f.d., prof. Нехода Евгения Владимировна (Россия)

i.f.d., prof. Xolmo‘minov Shayzoq Rahmatovich (TDIU)

i.f.d., prof. Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich (SamISI)

i.f.d., prof. Muxammedov Murod Muxammedovich (SamISI)

i.f.d., prof. Arabov Nurali Uralovich (SamDU)

i.f.d., prof. Safarov Baxodirxon Shaxriyovich (SamDU)

i.f.d., prof. Nasimov Dilmurod Abdulloyevich (SamDU)

i.f.n., prof. Aslanova Dilbar Xasanovna (SamISI)

PhD, dots. Djurakulov Shoxrux Davronovich (SamDU)

i.f.n., dots. Yuldashev Shamsiddin Qiyomiddinovich (SamDU)

i.f.n., dots. Nizamov Axtam Numonovich (SamDU)

i.f.n., dots. Bozorov Berdimurod Ulug‘murodovich (SamDU)

i.f.n., dots. Boboqulov Bahromqul Mamatkulovich (SamDU)

i.f.n., dots. Usmanova Dilafruz Karshiyevna (SamDU)

i.f.n., dots. Alibekova Saodat Lapasovna (SamDU)

PhD, dots. Nasimov Ikrom Xusanovich (SamDU)

PhD, dots. Ernazarov Ortiq Eshnazarovich (SamDU)

PhD, dots. Ulug‘murodova Nodira Berdimuradovna (SamDU)

PhD, dots. Sharifov Shuhrat Saidahmadovich (SamDU)

PhD, dots. Maxmudova Mohinur Ravshanbekovna (SamDU)

PhD, dots. Bakayev Ziyovuddin Toshbolta o‘g‘li (SamDU)

<https://doi.org/10.59251/2181-3973.2023.v3.138.3.2539>

## ҚИШЛОҚ АҲОЛИСИ БАНДЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

**Хомитов Комилжон Зоитович,**

Тошкент молия институти профессори,  
и.ф.д., профессор,

Mobil: [90-187-49-55](tel:90-187-49-55), E-mail: [metro8368@mail.ru](mailto:metro8368@mail.ru)

**Аннотация:** Қишлоқ меҳнат бозорида аҳоли иш билан бандлигини ошириш ва ишсизликни камайтириш мураккаб ижтимоий-иқтисодий ҳодиса сифатида кўп томонлама тадқиқотни талаб қиладиган жараён ҳисобланади. Шунга кўра, ушбу мақолада қишлоқ аҳолиси иш билан бандлигини таъминлашнинг самарали ижтимоий-иқтисодий механизми элементлари ва воситалари тадқиқ этилган. Уларни такомиллаштириш бўйича илмий асосланган таклиф ва тавсиялар таклиф этилган.

**Калит сўзлар:** қишлоқ меҳнат бозори, иқтисодий фаол аҳоли, ижтимоий, иқтисодий, механизм, ишсизлик, иш билан бандлик, ишчи кучига талаб, ишчи кучи таклифи, иш ўринлари.

**Аннотация:** Увеличение занятости и снижение безработицы на сельском рынке труда представляет собой сложное социально-экономическое явление, требующее многопланового исследования. Соответственно, в данной статье исследуются элементы и инструменты эффективного социально-экономического механизма обеспечения занятости сельского населения. Предложены научно обоснованные предложения и рекомендации по их совершенствованию.

**Ключевые слова:** сельский рынок труда, экономически активное население, социальный, экономический, механизм, безработица, занятость, спрос на рабочую силу, предложение рабочей силы, рабочие места.

**Abstract:** Increasing employment and reducing unemployment in the rural labor market is a complex socio-economic phenomenon that requires multifaceted research. Accordingly, in this article, the elements and tools of the effective socio-economic mechanism of ensuring the employment of the rural population are researched. Scientifically based proposals and recommendations for their improvement are offered.

**Key words:** rural labor market, economically active population, social, economic, mechanism, unemployment, employment, labor demand, labor supply, jobs.

### КИРИШ

Қишлоқ аҳолисини иш билан бандлигини ошириш ва ишсизликни камайтириш мураккаб ижтимоий-иқтисодий ҳодиса сифатида кўп томонлама тадқиқотни талаб қиладиган жараён ҳисобланади. Уни

тадқиқ этишда иш билан таъминлашнинг умумий қонуниятлари, тамойиллари ва концепцияларини ҳисобга олиш, уларга таяниш мақсадга мувофиқдир. Ҳозир мамлакатда иш билан банд бўлмаган меҳнатга лаёқатли



асосий қисми қишлоқ жойларида яшайди ва бу кўрсаткич муттасил ўсиб бориш тенденциясига эга. Бундай ҳолат қишлоқдаги ноқишлоқ меҳнатнинг тор доирада қўлланиши, янги иш жойларини яратишга йўналтирилган инвестициялар ҳажмини етарли эмаслиги, қишлоқ хўжалиги корхоналаридаги таркибий ўзгаришлар, меҳнат ресурслари сонининг яратилаётган иш жойлари миқдорига нисбатан тезроқ ўсиши, қишлоқда ишчи кучига талаб ва таклиф ўртасидаги номутаносиблик, маҳаллий кадрлар малакаси ва рақобатбардошлигининг пастлиги, бўш иш жойлари ҳақида маълумотга эга эмаслиги билан асосланади.

Шунга кўра, 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегиясида «Худудларда тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш, ишсизлик ва камбағалликни қисқартириш бўйича мавжуд тузилмалар фаолиятини такомиллаштириш»[1] вазифаларини самарали ҳал этиш долзарб масала ҳисобланади.

#### **Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили**

Таҳлил қилинаётган мавзу қишлоқ аҳолиси бандлигини оширишнинг ижтимоий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш масалалари билан боғлиқ экан, дастлаб меҳнат бозори, бандлик ва ишсизлик бўйича турли иқтисодчи олимлар томонидан берилган таърифлар ва назарий қарашларни қиёсий таҳлил қиламиз.

Қ.Х. Абдурахмоновнинг “Меҳнат иқтисодиёти” дарслигида иш билан бандликнинг ижтимоий-

иқтисодий моҳияти, турлари, тамойиллари, унинг самарадорлиги каби жиҳатлари тадқиқ этилган. Шунингдек, меҳнат бозори муносабатлари тизимига махсус органларининг қўшилиши улар ўртасида зиддиятлар бўлмаслигини таъминлаш, турли-туман иқтисодий воситалар ва усуллар, ҳуқуқий нормалар ёрдамида иш билан бандлик жараёнлари ва сиёсатини ташкил этиш ҳамда тартибга солишни таъминлаш зарурати асослаб берилган [2].

Шунингдек, профессорлар Ю.Г.Одегова ва К.Х.Абдурахмановлар меҳнат бозори шаклланиши ва ривожланиши, унинг турлари ва шакллари, ишлаш механизми, меҳнат бозори моделлари ҳамда ишсизликни камайтириш йўллари ва иш билан бандликни тартибга солиш механизмлари тадқиқ этилган. Шунингдек, мавзуга доир жиҳати бўйича аҳолини иш билан таъминлаш дастури ва иш билан бандлик хизмати фаолияти самарадорлигини баҳолаш кўрсаткичлари таснифининг илмий асосларини тадқиқ этишган [3].

Иш билан бандлик давлат сиёсатининг асосий йўналишлари, мақсад ва вазифалари, давлат иш билан бандлик сиёсатини баҳолаш усуллари ва кўрсаткичлари, иш билан бандликни таъминлаш ва иш жойларини рағбатлантириш механизми, аҳолини самарали иш билан бандлигига кўмаклашиш бўйича давлат томонидан амалга ошириладиган чора-тадбирлар С.Смирнов томонидан тадқиқ этилган [4].

Қишлоқ меҳнат бозорининг

шаклланиши ва ривожланишини моделлаштириш борасидаги тадқиқот ишида Холмўминов Ш.Р. қишлоқ меҳнат бозорининг ижтимоий-иқтисодий моҳияти ва мазмуни, унинг ривожланиш тамойиллари, мезонлари ва кўрсаткичлари илмий-назарий жиҳатдан ўрганилиб, меҳнат бозорида ишчи кучига талаб ва таклифни тартибга солишнинг эконометрик моделлари, меҳнат бозорида социологик тадқиқотлар ўтказиш ва уларни ахборотлар билан таъминлаш услубияти тадқиқ этилган ҳамда амалий хулоса ва тавсиялар ишлаб чиқилган [5].

#### **Тадқиқот методологияси**

Тадқиқот жараёнида қишлоқ аҳолиси иш билан бандлиги даражасини ошириш бўйича иқтисодий тизимлар ва нисбатларни ўрганишга диалектик ва тизимли ёндашув, комплекс баҳолаш, қиёсий ва солиштирма таҳлил, статистик ва динамик ёндашув ҳамда гуруҳлаш усулларидадан фойдаланилди.

Қишлоқ жойларда аҳолининг ижтимоий зарур иш билан бандликка бўлган эҳтиёжи ва уни амалга ошириш имкониятини режали тартибга солиб бориш лозим. Бундан мақсад инсоннинг фаолият кўрсатиш, шарт-шароитларни яхшилаш ва иқтисодиётнинг самарали ишлашини таъминлашдир. Қишлоқ жойларда иш билан бандликнинг самарадорлиги хусусияти ишловчиларнинг мамлакат иқтисодиётининг тармоқлари бўйича тақсимлаш тузилмасидан иборатдир. Ҳозирги вақтда аҳолининг иш билан бандлиги бўйича иқтисодиётдаги тармоқ тузилиши мавжуд жамият меҳнат потенциалидан фойдаланиш самарадорлиги даражаси пастлигини

акс эттиради ва у тубдан ўзгартирилишга муҳтождир [4].

#### **Таҳлил ва натижалар**

Фан-техника тараққиётининг жадал ривожланиб бориши қишлоқ жойларида иш билан бандликнинг янги турлари ва технологиялари пайдо бўлишига, бу эса қишлоқ меҳнат бозорида ишчи кучига талаб ва таклифни худуд ва тармоқ даражасида тартибга солишнинг ижтимоий-иқтисодий механизмини такомиллаштиришни ҳамда пировардида эса оқилона иш билан бандликни таъминлашни мақсад қилиб қўяди.

Ҳозирги вақтда қишлоқ аҳолисининг иш билан бандлигини таъминлаш концепцияси Янги Ўзбекистон иқтисодий тараққиёти стратегияси талабларига мос мақсад ва вазифаларни белигилаб олишдан иборатдир. Бундай ёндашувнинг марказига уни ривожлантиришнинг ижтимоий бозор типигаги давлат учун хос бўлган объектив жараёнларни ҳисобга олувчи иш билан таъминлашнинг шаклланиши қўйилади. Бу ўз навбатида муайян давр мобайнидаги қўйилган мақсадларга эришишнинг реал имкониятлари билан чекланмайди. Иш билан бандлик ижтимоий ривожланишнинг ҳар бир босқичига хос турли кўриниш ва шаклларда намоён бўладиган ўзига хос ҳодисадир.

Иқтисодий ислохотлар жараёнида меҳнат самарадорлигининг ортишига қараб, аҳолининг меҳнат билан бандлик даражаси умуман мамлакат бўйича пасайиш тенденциясига эга. Яқин келгусида республикамизда иш билан

бандликнинг ривожланиш хусусиятлари ана шундай кечади. Бу ерда юқори самарали иқтисодиёт нисбатан камроқ микдордаги ходимларга эҳтиёж сезади, шу билан бирга аҳолининг ишчи ўринларига бўлган эҳтиёжи ҳам бир оз камаяди, чунки меҳнат билан ижтимоий фойдали бандликнинг бошқа соҳаларига қизиқиш ортади. Бу ҳолат қишлоқ жойларда ҳам ўз аксини топмоқда.

Қишлоқ жойларда аҳолининг ижтимоий зарур иш билан бандликка бўлган эҳтиёжи ва уни амалга ошириш имкониятини режали тартибга солиб бориш лозим. Бундан мақсад инсоннинг фаолият кўрсатиш, шарт-шароитларини яхшилаш ва иқтисодиётнинг самарали ишлашини таъминлашдир [6].

Қишлоқ жойларда иш билан бандликнинг самарадорлиги хусусияти ишловчиларнинг мамлакат иқтисодиётининг тармоқлари бўйича тақсимлаш тузилмасидан иборатдир. Ҳозирги вақтда аҳолининг иш билан бандлиги бўйича иқтисодиётдаги тармоқ тузилиши мавжуд жамият меҳнат потенциалидан фойдаланиш самарадорлиги даражаси пастлигини акс этиради ва тубдан ўзгартиришга мухтождир.

Қишлоқ жойларда ишчи кучига талаб ва таклифни мувофиқлаштиришнинг **ижтимоий ва иқтисодий механизмлари қуйидаги вазифаларни** ўз ичига олади:

– иш ҳақининг давлат сиёсатини шакллантириш, талаб, таклиф ва ишчи кучининг такрор ишлаб чиқариш баҳосини ҳисобга

олган ҳолда, унинг тузатиш механизмларини ишлаб чиқиш;

– иқтисодий фаол аҳолини, асосан қишлоқ ёшларини касбга тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини оширишни самарали тизимини ташкил қилиш;

– уй-жой бозорини шакллантириш ва иқтисодиётнинг бошқа тармоқларини ривожлантириш чоралари ҳисобидан ишчи кучи ҳаракатчанлигини ошириш учун шароитларни яратиш;

– ишчи кучига талабни (иш ўринлари таклифини) рағбатлантириш, қишлоқ ҳудудларининг хусусиятларига хос инвестициялар жозибадорлигини ошириш, янги иш ўринларини яратишда тижорат банкларининг имтиёзли кредитларини жорий қилиш ва унинг асосланганлигини таъминлаш;

– қишлоқ жойларида ноқишлоқ хўжалиги иш ўринларини яратиш билан бирга қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш ва қайта ишлашнинг интенсив омилларидан кенг фойдаланиш;

– энг мақбул демографик сиёсатни, миграцион сиёсатни рағбатлантириш, меҳнат муҳофазаси чораларини шакллантириш орқали ишчи кучи таклифини энг мақбул даражага етказиш.

Юқорида келтирилган иш билан бандликка, ишсизликка таъсир қилувчи мавжуд воситалар, қишлоқ меҳнат бозорини давлат томонидан тартибга солишнинг ижтимоий-иқтисодий механизмининг кенг даражада акс эттиради. Шаҳар ва қишлоқ меҳнат бозорларини тартибга

солиш усуллари ва шаклларида муайян ўхшашликлар борлигига қарамасдан қишлоқ меҳнат бозори ўзига хос жиҳатларга эга.

Худудий сиёсат ҳозирги вақтда ривожланган мамлакатлар қишлоқ жойларида аҳоли иш билан бандлигини таъминлашнинг муҳим воситаси ҳисобланади, шунга биноан қишлоқда саноат тармоқларини, хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризм, халқ ҳунармандчилигини ривожлантириш йўли орқали қишлоқ хўжалигидан бўшаб кетаётган ишчиларга янги иш ўринлари яратилмоқда. Бу билан икки масала ечилиши кўзатиш мумкин: **биринчидан**, оқилона иш билан бандликни қўллаб-қувватлаш ва ишсизлик билан курашиш; **иккинчидан**, қишлоқда демографик босимга ва халқ хўжалиги тизимида унинг функцияларини кенгайтиришга йўл қўймаслик. Ундан ташқари, илмий-техник тараққиёт ва меҳнат унумдорлигини ошириш таъсирида қишлоқ хўжалигидан сиқиб чиқарилаётган аграр ишчиларни қайта касбга ўқитиш учун миллий ва ҳудудий дастурларда маблағ ажратиш назарда тутилади.

Иш билан бандликнинг мослашувчанлиги муаммосида асосий жиҳат – меҳнат турининг танлаш ихтиёрийлиги ва меҳнатни камроқ вақт ичида ишлаб, дурустгина иш ҳақи олиш имконини берадиган қилиб ташкил этишдир. Ҳозирча бозор воситалари тўлиқ ишлашига эришилмаган экан, давлатнинг муқобил тартибларини ривожлантиришга кўмак беришини кучайтириш зарур.

Ҳозирги кунда иш билан бандликнинг **ноъанавий шакллари** – оилавий тадбиркорлик, яқка тартибдаги тадбиркорлик, касаначилик, иш билан бандликнинг замонавий шакллари, хизмат кўрсатиш ва қорамолчилик каби фаолият турлари билан шуғулланиш аҳолини иш билан таъминлашнинг асосий йўллариандир.

Қишлоқ жойларида аҳолининг иш билан бандлик муаммоларини ечишда ижтимоий-иқтисодий сиёсатнинг ҳамма **худудий устуворликларини** жиддий қайта кўриб чиқиш зарур.

**Биринчи навбатда** ер муносабатлари истиқболлари, мулкчилик ва хўжалик юритиш шакллари, иқтисодий муносабатлар, бошқариш тизими ва бошқа элементлар билан бир қаторда тўлақонли буғин сифатида ушбу муаммони қишлоқларни ҳудудий ривожланиш концепциясига ва истиқболлаштириш тизимига киритишни талаб қилади.

**Иккинчидан**, қишлоқ хўжалиги, саноат ва бошқа тармоқларни ишлаб чиқариш ҳажми, даромадалар бошқа кўрсаткичлар билан боғлиқ ҳудудий-мақсадли ва тармоқ дастурларига ҳамда мамлакат ҳукумати томонидан тайёрланаётган бюджет режаси ва истиқболдаги стратегик дастурларга иш билан бандликнинг ҳудудий мақсадли кўрсаткичларини киритишни ҳисобга олиш зарур. Бунда қишлоқ аҳолисини иш билан таъминлашнинг ижтимоий ва иқтисодий механизмларини усуллари ва воситалари ўзгаради.

Қишлоқ аҳолисининг иш билан бандлигини таъминлашда ишчи



кучига бўлган эҳтиёжни кучайтириш ва ишчи кучи самарали таклифини қўллаб-қувватлашга кўмаклашишда **ижтимоий ва иқтисодий механизмлар** асосий восита ҳисобланади (1-жадвал).

Қишлоқ жойларида аҳолини иш билан таъминлашнинг самарали ижтимоий-иқтисодий механизмлари элементларининг ўзаро муносабатларини ўрганиш нафақат мантикий-функционал, балки, энг муҳими мазкур механизмнинг асосий хусусиятларини тўлиқ очишни таъминлайди [7].

Худудий даражада уни ривожлантиришнинг асосий

ижтимоий-иқтисодий параметрларининг мувофиқлиги, хусусан, иш билан бандлик сиёсати ва қишлоқ меҳнат бозорининг мақсадлари ҳамда устувор йўналишлари узвий боғлиқ ҳолда мувофиқлиги амалга оширилиши керак. Қишлоқда аҳолини иш билан таъминлаш сиёсатининг устувор йўналишлари, мақсадлари билан қишлоқ хўжалиги, саноат ва бошқа тармоқларда молия-кредит, таркибий, инвестицион ва ташқи иқтисодий сиёсатнинг мувофиқлиги назарда тутилади.

1-жадвал

**Қишлоқ жойларда аҳолини иш билан таъминлашнинг самарали ижтимоий-иқтисодий механизмлари**

<b>Ижтимоий механизмлар</b>	<b>Иқтисодий механизмлар</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>– қишлоқ меҳнат бозорида паст рақобатбардошликка эга аҳоли гуруҳларини касбга тайёрлаш ва қайта тайёрлаш тизимини шакллантириш;</li> <li>– ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳолини иш билан бандлигига кўмаклашиш;</li> <li>– ишсизларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш;</li> <li>– ижтимоий ҳимояга муҳтож фуқароларни ишга жойлаштириш бўйича квотали иш ўринларини шакллантириш;</li> <li>– ижтимоий инфратузилмани ривожлантириш;</li> <li>– қишлоқ жойларида иш ўринлари тузилиши ва сифати ўзгариши мослашувига кўмаклашиш;</li> <li>– ёллашда бажариладиган ишларга қўйиладиган талабга ишчи кучи сифат таркиби мувофиқлигини таъминлаш;</li> <li>– меҳнат бозорида турғун талаб мавжуд бўлган касбларга ўқитиш ва қайта ўқитиш.</li> <li>– ташқи ва ички меҳнат миграциясини ижтимоий рағбатлантириш.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– қайта ишлаш саноати ва ижтимоий инфратузилма корхоналарида янги иш ўринлари яратган корхоналарга солиқ ва кредитлар бўйича имтиёзлар бериш;</li> <li>– кичик бизнес субъектлари, айниқса оилавий тадбиркорлик фаолиятини давлат томонидан иқтисодий қўллаб-қувватлаш;</li> <li>– кичик бизнес субъектларини имтиёзли кредитлаш бўйича шарт-шароитларни яратиш;</li> <li>– қишлоқ жойларда иш билан бандликни замонавий турларидан унумли фойдаланиш;</li> <li>– қишлоқ хўжалигида интенсив ривожланишни таъминлашга йўналтирилган янги иш ўринларини шакллантириш;</li> <li>– қишлоқ жойларда якка тартибдаги меҳнат фаолиятини рағбатлантириш;</li> <li>– қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши ва қайта ишлаш саноатининг асосий маҳсулотларини экспорт қилишни қўллаб-қувватлаш;</li> <li>– туман бандликка кўмаклашиш марказлари фаолиятини такомиллаштириш.</li> </ul>

Ишчи кучига талаб ва таклифни тартибга солиш иқтисодий механизми бу вазифаларини қисқа муддатли ёки ўрта муддатли режалаштиришнинг элементиға мос равишда тактик маъноға эға. Тактик вазифалар стратегик мақсадлар доирасида амалға оширилади.

Кўп ҳолларда бир вазифа бошқаларига боғлиқ бўлмаган ҳолда амалға ошмайди. Шунингдек, меҳнат бозорини тартибга солиш механизми ўзгариб борётган ижтимоий-иқтисодий шароитларға мослашиши, тартибга солишни аниқ усларини танлаш, меҳнат бозори конъюнктурасидан келиб чиққан ҳолда олдиндан мўлжалланган масалаларни ечилишида устуворликни таъминлашдан иборат.

Аҳолини иш билан таъминлашнинг самарали ижтимоий-иқтисодий механизми ўзининг хусусиятларига кўра ишчи кучига талаб ва таклифни шакллантирувчи элементлар мажмуасидан иборат бўлади. Аҳолини иш билан бандлигини оширишнинг самарали ижтимоий-иқтисодий механизми – бу ишчи кучига талаб ва таклиф нисбатларига муайян таъсир кўрсатувчи, уни мазмунан тўлдирувчи ижтимоий-иқтисодий шакллар ва омилларни ўз ичига олувчи элементлар мужмуасидир.

Қишлоқ жойларида ишчи кучига талабни оширишнинг, яъни янги иш жойларини яратишнинг иқтисодий механизмини тартибга солиш қуйидаги чора-тадбирларни амалға ошириш орқали амалға оширилади:

– **инвестицион фаолликни рағбатлантириш.** Имтиёзли

кредитлаш тизимидан фойдаланган ҳолда ишлаб чиқаришни ривожлантириш бўйича рағбатлантиришни амалға ошириш; иқтисодиётнинг реал секторини ривожлантиришға йўналтирилган кредитлар фоиз ставкасини оптимал ўрнатиш ва кредитлаш бўйича маъмурий тўсиқларни бартараф этиш; капитал қуйилмалар манбаси сифатида амортизация сиёсатни ўтказиш ролини ошириш; амортизация ажратмалардан инвестицион йўналишда тўлиқ фойдаланишни таъминлаш; хорижий капитал ва аҳоли жамғармаларини инвестицион соҳаға жалб қилиш имкониятларини рағбатлантириш;

– **фаол таркибий сиёсатни ва иқтисодиётни инновацион ривожланишини таъминлаш.** Иш билан бандлик жараёнларини такомиллаштириш талабларини ҳисобға олган ҳолда техник-иқтисодий ривожланишни узок муддатли истиқболларини ишлаб чиқиш; давлат қафолатларидан фойдаланган ҳолда иқтисодиётнинг уствор йўналишлари доирасида лойиҳаларни имтиёзли кредитлаш; иқтисодий жихатдан нуфузли иш ўринларини яратишға кўмаклашувчи инвестицион ва илмий-техникавий давлат дастурларини амалға оширишни фаоллаштириш; рақобатбардошлигини ошириш имкониятиға эға молия-саноат гуруҳларида фан сиғими юқори технологиялар асосида инновацион маҳсулотларни ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш; йирик молия-ишлаб чиқариш тузилмаларида молиявий капитални таъминлаш бўйича интеграцияни яратиш;

– **ялпи талабни рағбатлантириш.** Корхоналар томонидан айланма маблағларнинг йўқотилиши ва ишлаб чиқариш қувватининг паст даражаси шароитида давлат буюртмаларини фаоллаштириш асосида ҳам ишлаб чиқарувчиларни, ҳам истеъмолчиларни ҳимоялаш бўйича миллий маҳсулотларимизга ялпини рағбатлантириш; истеъмолчилар талабини рағбатлантириш учун меҳнат баҳосини, яъни реал иш ҳақи миқдорини ошириш зарур. Бунга ишлаб чиқариш фаолиятини кенгайтириш ҳамда ялпи даромадни тақсимлаш жараёнида меҳнатга ҳақ тўлаш улушини ортиши асосида эришиш мумкин. Моддий ишлаб чиқариш соҳасида ишловчилар меҳнат ҳақи билан бюджет соҳасида ишловчиларнинг тариф сеткалари ўртасида мувофиқликни таъминлаш орқали турли тармоқ ишчилари меҳнатига ҳақ тўлашнинг миқдорий фарқини қисқартириш эвазига меҳнатга ҳақ тўлаш тизимини такомиллаштириш зарур. Шунингдек, даромадларнинг тақсимланиши бўйича аҳоли ўртасида табақаланишни қисқартириш.

– **ҳудудий сиёсатни такомиллаштириш.** Қайта тақсимлаш жараёнларини оптималлаштириш ва ўз-ўзини ривожлантириш учун шарт-шароитларни яратиш йўли билан дотацияга тушган ҳудудларни қисқартириш зарур. Ҳудудлар ижтимоий-иқтисодий ҳолатини тенглаштиришга ва самарадорлигини оширишга йўналтирилган чоратadbирларни ишлаб чиқиш зарур.

Давлат иш билан бандлик сиёсати республикамиз ижтимоий-иқтисодий сиёсатининг таркибий қисми сифатида меҳнат салоҳиятидан самарали фойдаланиш ва унинг ривожланиши бўйича иш билан бандлик муаммоларини ечишга йўналтирилган иқтисодиётнинг ривожланиш даврига мувофиқ, иш кучини иқтисодиёт соҳалари ва тармоқлари ҳамда иш билан бандлик кўринишлари бўйича қайта тақсимлашда ижтимоий жиҳатдан мувофиқ иш билан бандлик даражасини таъминлашга йўналтирилиши зарур.

Қишлоқ аҳолисининг оқилона иш билан бандлигини таъминлашнинг такомиллаштирилган янги механизми қуйидаги асосий шарт-шароитларнинг таъсирини тартибга солиши лозим: ишчи кучига талабнинг ошиши ва унга таклифнинг камайиши; ёлланма иш кучига меҳнат ҳақини (нархини) энг паст миқдорини аҳоли жон бошига тўғри келадиган минимал истеъмол бюджетидан кам бўлмаган ҳолда белгилаш; меҳнатга қобилиятли ўсмирлар, пенсионерлар, кўп болалик аёллар ва ногиронлар иш билан бандлигини оширишни рағбатлантириш; ишсизларнинг малакаси, рақобат қобилияти ва касбий ҳаракатчанлигини ошириш, меҳнат бозори инфратузилмасининг самарали ривожланишини таъминлаш ва бошқалар.

Шу билан бирга, иқтисодиётнинг инновацион ривожланиши шароитида мамлакатимизда барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш ва шу орқали аҳоли даромадлари ҳамда турмуш даражасини юксалтириш, аҳолини

оқилонга иш билан бандлик даражасини ошириш кўп жиҳатдан ишчи кучи рақобатбардошлигини ошириш омилларига боғлиқдир.

Бу ҳолат мамлакатимиз аҳолисининг кўпчилиги истиқомат қиладиган қишлоқ жойларида меҳнат бозорининг таъсирида малакали кадрларга бўлган талабнинг ортиб бориши, иккинчидан, мамлакатнинг барча ҳудудларида иш билан бандликнинг ноанъанавий шакллари – хусусий тадбиркорлик, касаначилик, оилавий бизнес, сервис ва хизмат кўрсатиш соҳаларининг жадал ривожланаётганлиги натижасида ишчи кучи рақобатбардошлигини ошириш янада муҳим аҳамият касб этмоқда.

Республикамызда замонавий иқтисодиёт тармоқларини модернизациялаш шароитида қишлоқ жойларида ишчи кучи рақобатбардошлигини ошириш ижтимоий-меҳнат муносабатларини амалга оширилишида назарий ва амалий жиҳатдан энг муҳим муаммолардан бири ҳисобланади. Ишчи кучи рақобатбардошлигини ошириш қишлоқ меҳнат бозоридан ишчи кучига бўлган талаб ва унинг таклифи сифатини оширишга, миллий даромад ўсишига ва давлатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишига олиб келади.

Ишчи кучининг рақобатбардошлик параметрлари энг аввало иш берувчининг жамият ва минтақа ривожланишининг ижтимоий-иқтисодий таркибининг вужудга келган даражаси билан белгиланади. Рақобатбардошликни баҳолаш учун иш берувчининг талабини аниқлаш лозим. Шунинг

учун қишлоқ жойларида ишчи кучи сифат таркибини такомиллаштириш асосида иш жойларининг самарадорлигини ҳам таъминлаш зарур.

Рақобат ишчи кучи сифат белгиларининг шаклланишида катта аҳамиятга. Шундай келиб чиққан ҳолда, қишлоқ жойларида кадрлар тайёрлаш сифати, рақобатбардошлигини ошириш куйидаги тадбирларни ўз ичига олиши зарур:

– “Аҳолини иш билан таъминлаш таъминлаш ҳудудий Дастури”ни режалаштириш жараёнида келажакдаги потенциал ишчи кучи таклифи асосида аниқ ва тўлиқ маълумотлар асосида янги иш ўринларини яратиш;

– қишлоқ хўжалиги мутахассисларини тайёрлашда замонавий илм-фан, техника ютуқлари, технологиялардан фойдаланиб, халқаро меъёрлар асосида ишлаб чиқилган илгариларчи ва комплекс таълим стандартларидан фойдаланиш;

– барча даражадаги малакали кадрлар тайёрлаш сифатини ўлчаш ва баҳолашнинг илмий асосланган тизимини ишлаб чиқиш ва жорий қилиш;

– қишлоқ туманларида юқори малакали кадрлар тайёрлаш сифатини ошириш, ёшларнинг илмий иқтидорини ҳар томонлама қўллаб-қувватлашнинг ташкилий-иқтисодий механизмининг шакллантириш;

– шахсни касбга йўналтириш ва меҳнат бозори талаблари, имкониятлари ва ундаги ижтимоий-иқтисодий вазиятни ҳисобга олиб, қишлоқ аҳолисини иш билан

таъминлашнинг энг мақбул турини танлашда ёрдам берадиган, шунингдек, иқтидорли ёшларнинг қобилиятларини қўллаб-қувватлайдиган касбга йўналтириш тизимини ривожлантириш;

– тармоқли ва минтақавий иқтисодиёт учун интеграциялашган таълим муассасалари доирасида рақобатбардош кадрлар тайёрлашда таълим, илм-фан ва ишлаб чиқаришнинг салоҳиятидан самарали фойдаланиш;

– қишлоқ жойларда ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатишнинг талаб-эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда кадрлар тайёрлаш тизимининг йўналиши ва даражасини шакллантириш;

– ўрта махсус маълумотга эга кадрлар ичидан олий касбий маълумотга эга бўлган мутахассисларни тайёрлашнинг шакл ва усулларини кенгайтириш;

– турли даражадаги ишлайдиган кадрларни ва ишдан бўшаган мутхассисларни қайта тайёрлаш ҳисобига республиканинг рақобатбардош кадрлар салоҳиятини такрор ишлаб чиқариш;

– қишлоқ ҳудудлари учун барча даражадаги кадрларнинг малака тарифларини меҳнат бозори талаблари шаклланмасдан олдин ишлаб чиқиш.

Юқоридаги кўрсатилган вазифаларни амалга ошириш иқтисодиётдаги таркибий ўзгаришларга мос кадрларни тайёрлаш ва уларнинг рақобатбардошлигини оширишга хизмат қилади.

**Хулоса ва таклифлар (Conclusion/Recommendations)**

Қишлоқ жойларда иш билан бандлик муносабатларини макродаражада ўрганиш меҳнат бозорини тартибга солишнинг асосий воситаси ҳисобланадики, бунда иш кучига бўлган эҳтиёжни кучайтириш ва ишчи кучи самарали таклифини қўллаб-қувватлашга қўмаклашишда ижтимоий ва иқтисодий механизмлар алоҳида ўрин эгаллайди.

Қишлоқ жойларда аҳоли иш билан бандлигини ошириш қўйидаги самарали иқтисодий ва ижтимоий тадбирларни ўз ичига олади:

– **миллий даражада:** иш ҳақининг ошишига йўналтирилган рақобатни кучсизлантириш мақсадида юқори даромадли фирмаларнинг даромадини ушлаб туриш ва нисбатан кам даромадли корхона ва фирмаларни қўллаб-қувватлашга йўналтирилган солиқ солишнинг юқори даражасини ўрнатилиши; кичик тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш; янги иш ўринлари сонини кенгайтириш, яъни меҳнатга бўлган талабни рағбатлантириш мақсадида солиқ имтиёзлари ва кредитлар бериш; турмушни моддий ва ўй-жой шароитларини яхшилаш шартлари билан бўш иш жойлари мавжуд бўлган ҳудудларга ишчи кучи ортиқча бўлган ҳудудлардан оиласи билан кўчиб ўтишга субсидия ва кредитларни бериш йўли орқали ишчи кучи касбий ҳаракатчанлигини ошириш; қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши ва қайта ишлаш саноати секторларининг асосий маҳсулотларига давлат буюртмасини белгилаш; рақобатбардош бўлмаган қишлоқ ишчиларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш;



қишлоқ ишсизларининг касбий таълим даражасини ошириш;

– **худудий даражада:** асосан ёлланган ишчиларнинг ҳимоясиз гуруҳлари учун худудий иш билан бандликни фаоллаштириш йўллари излаш мақсадида жамоат ишларини ташкил этиш; ногиронлар, ёшлар ва бошқалар учун янги иш ўринларини яратаётган корхоналарга имтиёзлар бериш; худуд иқтисодиёти тузилмасини ҳисобга олган ҳолда асосан ишни янгидан бошлаган тадбиркорлар, кичик корхоналар учун солиқ ва кредит имтиёзларини бериш; худуд иқтисодиётининг талабларини ҳисобга олган ҳолда инсон капиталига қўйилмаларни тартибга солиш;

– **ички меҳнат бозорида:** корхоналарнинг молиявий ҳолатидан катъий назар, тенг меҳнат хизмати

тенг иш ҳақи кафолати; иш берувчилар ва ёлланма ишчилар ўртасида иқтисодий рағбатлар бўйича шартномавий муносабатларни тартибга солиш; меҳнатга ҳақ тўлашнинг умумий тарифини яратиш.

Шундай қилиб, қишлоқ меҳнат бозорини тартибга солишнинг такомиллашган ижтимоий-иқтисодий механизми сифатида - янги технологияларни қўлланиши ва ишлаб чиқаришни қайта ташкиллаштириш билан боғлиқ бўлган самарали иш билан бандликка эришиш, қишлоқ аҳолисининг иш билан бандлик дастурларини ишлаб чиқиш асосида иш билан бандлик даражасини ошириш ва ишсизликни йўл қўйиладиган даражасигача қисқартириш имкониятига эришилади.

### ФҲЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РҲЙХАТИ

1. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги 60-сонли Фармонининг 1-иловаси «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси» //Lex.uz*

2. *Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти (дарслик). -Т.: - «Меҳнат» - 2009. -512 б.*

3. *Ринок труда. Учебное пособие. Под обшчей редакцией д.е.н., проф. Абдурахманова К.Х., д.е.н., проф. Одегова Ю.Г. – Т.: ТФ РЕА, 2009. - 384.*

4. *Смирнов С. Методы оценки государственной политики занятости // Вопросы статистики. - 1998. -N2 4. - С. 29-34.*

5. *Холмўминов Ш.Р. Қишлоқ меҳнат бозорининг шаклланиши ва ривожланишини моделлаштириш // Дис. и.ф.д.- Т.: 1998. -60 б.*

6. *Стрельченко Е. А., Овчинников В. Н. Механизм регулирования занятости и его особенности в переходной экономике // Социально-экономические проблемы народонаселения, занятости и перехода к устойчивому развитию России, 1999. Б.123-125.*

7. *Холмўминов Ш.Р., Холитов К.З., Арабов Н.У., Бобаназарова Ж.Х., Абдураманов Х.Х. Қишлоқ аҳолисини иш билан таъминлашнинг самарали ижтимоий-иқтисодий механизмлари (монография). -Тошкент: «Инновацион ривожланиш наириёт-матбаа уйи», 2019, 34-бет.*

<https://doi.org/10.59251/2181-3973.2023.v3.138.3.2540>

## САНОАТ ИНФРАТУЗИЛМАСИНИНГ ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ ВА УНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Шавқиев Эркин

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институтини профессори в.б., иқтисодиёт фанлари номзоди  
*erkinshavqiyev@gmail.com* тел. 90 603 66 40

**Аннотация:** Ушбу мақолада саноат ишлаб чиқариши инфратузилмасининг барқарор ривожланиши учун зарурий шарт-шароитларни яратиши масаласи ёритилган. Шунингдек, саноат ишлаб чиқариши инфратузилмасини ривожлантириши ва қўллаб-қувватлашда давлатнинг роли кўрсатилган.

**Калим сўзлар:** иқтисодиёт, саноат, инфратузилма, ишлаб чиқариши, маҳсулот, инвестиция, сервис, хизмат, тараққиёт.

**Аннотация:** В данной статье освещены вопросы о необходимости создания условий стабильного развития инфраструктуры промышленного производства. Кроме того, показана роль государства в развитии и поддержке этого сектора экономики.

**Ключевые слова:** экономика, промышленность, инфраструктура, производства, продукция, инвестиция, сервис, услуга, развитие.

**Abstract:** This article addresses the need to create conditions for the stable development of industrial production infrastructure. Moreover, it shows the state's role in the development and support of this sector of the economy.

**Keywords:** economy, industry, infrastructure, production, products, investment, service, service, development.

### Кириш

Ўзбекистонда барқарор иқтисодий ўсиш суръатлари ва аҳолининг юқори фаровонлигини таъминлаш, республиканинг халқаро майдондаги ўз ўрни ва мавқеига эга бўлиши учун реал шарт-шароитларни яратувчи замонавий иқтисодиётни барпо этиш борасида кенг миқёсдаги муҳим чора-тадбирларни, етакчи тармоқларни жадал модернизациялаш, мамлакат рақобатдошлигини ошириш, саноат ҳамда бошқа муҳим тармоқлардаги ишлаб чиқаришни диверсификациялаш, миллий иқтисодиётни замон талабларига мослаштириш каби ишларни амалга

ошириш – давлатнинг устувор вазифаларидан бири ҳисобланади.

Саноат ишлаб чиқариши инфратузилмасини ривожлантиришда мамлакатнинг ишлаб чиқариш салоҳияти алоҳида муҳим аҳамиятга эга. Бу жараённи ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш аксарият ҳолларда давлат томонидан амалга оширилади. Иқтисодиёти либераллаштирилган мамлакатларда ҳам ишлаб чиқариш инфратузилмасини тартибга солишда максимал равишда давлат дастакларидан фойдаланилади.

Саноат ишлаб чиқариши инфратузилмасининг элементларини, мамлакат ҳудудлари бўйича уларнинг

салоҳиятини инобатга олган ҳолда тенг тақсимлаш мақсадга мувофиқ.

Инфратузилманинг ривожланиши мамлакат ёки ҳудуднинг турли хусусиятларига боғлиқ бўлиши мумкин. Инфратузилма ишлаб чиқаришнинг бир қисми сифатида ҳудудий тавсифга эгадир. Инфратузилма бўғинларининг ривожланиши мамлакат ва ҳудудий бошқарув органларига ҳам бевосита тегишли жараён ҳисобланади. Инфратузилма ишлаб чиқаришни, мамлакатнинг ижтимоий комплексини, унинг социал-иқтисодий даражасини таъминлайдиган ташқи омилларга кўпроқ боғлиқ бўлади. Инфратузилманинг қолоқлиги эса, мамлакатда ишлаб чиқариш, социал, молиявий соҳаларнинг самарасизлигига олиб келади.

#### **Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили.**

Саноат ишлаб чиқариши инфратузилмасининг ҳолати, ривожланганлик даражаси маҳсулот (хизмат)лар сифати ва таннархига, демакки, уларнинг рақобатдошлигига бевосита таъсир кўрсатади. Саноат ишлаб чиқариши инфратузилмаси мамлакатдаги социал муҳит ҳолатига аҳамиятли таъсир кўрсатади.

“Инфратузилма – бу ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш соҳаларининг фаолият юритишлари учун зарур бўлган умумий шароитларни ҳамда инсоннинг фаровон ҳаёт кечиришини таъминловчи тармоқлар мажмуасидир”. [Шавқиев Э.Ўзбекистон саноатининг ривожланиши: муаммо ва ечимлар. Монография. – Самарқанд: “СТАР-

SEL” MChJ. nashriyot-matbaа бўлими, 2023, 320-71 бет.]

Саноат ишлаб чиқариши инфратузилмасининг ташкил этилиши, энг аввало, янги иш ўринларининг барпо этилиши ҳамда тегишли соҳа мутахассислари, муҳандис-техник ходимлари, ишчи ва хизматчиларига бўлган талабнинг ошишига олиб келади. Бу эса, иқтисодиётдаги конъюнктуравий ўзгаришлар, даврий тебранишлар пайтида ишчи кучи бозоридаги мувозанатни таъминлашда муҳим дастак сифатида фойдаланишга имкон яратади.

Саноат ишлаб чиқариши инфратузилмасини ривожлантириш, уни модернизация қилиш ва янгилаш чора-тадбирларини амалга оширишнинг муҳим шarti ва манбаи эса – фаол инвестиция сиёсатини юритиш асосида ички ва хорижий инвестицияларни жалб этиш ҳисобланади.

“... инвестиция – бу иқтисодиёт драйвери, ўзбекча айтганда, иқтисодиётнинг юраги, десак, муболаға бўлмайди.

Инвестиция билан бирга турли соҳа ва тармоқларга, ҳудудларга янги технологиялар, илғор тажрибалар, юксак малакали мутахассислар кириб келади, тадбиркорлик жадал ривожланади” [Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. //Халқ сўзи, 30 декабрь 2018 йил].

“Инвестиция иқтисодий категория сифатида – миллий иқтисодиётнинг у ёки бу соҳасига (моддий, молиявий ва номоддий бойликлар кўринишида) капитални

жалб этиш, жойлаштириш ва инвестицион лойихаларни амалга ошириш жараёнида инвестиция фаолияти иштирокчилари ўртасида вужудга келадиган иқтисодий муносабатларни ўзида акс эттиради.

Инвестицион фаолиятни фуқаролар, юридик шахслар (корхоналар, фирмалар, акционер жамиятлари ва бошқа типдаги мулк эгалари) ва давлат юритади.

Инвестиция фаолиятини йўлга қўйишда ҳар бир мулк эгаси, биринчи навбатда ўз манфаатини қўзлаб ягона мақсадга, яъни иқтисодий ва социал самарага эришишни режалаштиради.

Инвестицион фаолият давлат иқтисодий сиёсатининг таркибий қисми ҳисобланади. Ўзбекистон ўзининг инвестицион фаолияти бўйича давлат дастурига эга бўлган ва уни изчил, кетма-кет ҳаётга тадбиқ этаётган мамлакатлардан биридир”. [Шавқиев Э. Индустириал иқтисодиёт. [Матн]: дарслик. – Самарқанд: “STAP-SEL” МЧЖ нашриёти, 2023, 320-321 бетлар].

#### **Тадқиқот методологияси**

Мақолада мавзу доирасидан келиб чиққан ҳолда илмий ва назарий ёндашувлар ўрганилиб, мушоҳада қилинган. Тадқиқотда қўйилган мақсадга эришиш учун йўналиш танлаб олинган. Бирламчи ҳамда иккиламчи маълумот манбаларини чуқур ўрганиш ва асослаш учун тадқиқот стратегияси белгилаб олинган. Мақолани ёзишда тадқиқот методологиясининг қиёслаш, умумлаштириш каби усулларидан фойдаланилди.

**Таҳлиллар ва асосий натижалар.**

Мамлакат учун ишлаб чиқаришни ривожлантириш – иқтисодий сиёсатнинг бир қисми бўлиб, ўз ичига хусусий капитални жалб этиш, янги хусусий корхоналарни яратиш ва модернизация қилишларни олади. Иқтисодиётга хусусий капитални жалб этиш – мамлакатга иқтисодий ресурслар оқиб келишига қўмаклашиб, мамлакат афзалликларидан фойдаланишга олиб келади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2022 йил 20 декабрда Олий мажлис ва Ўзбекистон халқига йўллаган Мурожаатномасида иқтисодиётга хусусий капитални жалб этишнинг зарурияти тўғрисида қуйидагиларни таъкидлади: “Келгуси йили қарийб 30 миллиард доллар сармоя жалб қилинади, шундан 25 миллиард доллар хусусий инвестициялар бўлади. Жумладан, умумий қиймати 8 миллиард долларлик 300 дан зиёд лойиҳани ишга туширамиз ва яна 40 та янги йирик лойиҳа бошланади.

Шу билан бирга, фаол инвестицияларни жалб қилишда хусусийлаштириш ва давлат-хусусий шериклик имкониятларидан тўлиқ ва самарали фойдаланиш зарур”. [Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси.//Халқ сўзи, 2022 йил 21 декабрь]

Ҳукуматимиз томонидан энг муҳим устувор вазифа – бу мамлакатимизни модернизация қилиш ва аҳоли бандлигини оширишнинг муҳим омили сифатида ишлаб чиқариш инфратузилмани

янада ривожлантиришдан иборат эканлиги белгилаб берилди.

Мазкур устувор вазифага алоҳида эътибор қаратишнинг бир қатор сабаблари мавжуд. Жумладан:

• инфратузилмани

ривожлантириш янги корхоналарни жойлаштириш ва бутун иқтисодиётни таракқий эттириш учун зарур қулай шарт-шароитлар яратади, мамлакатимизнинг бой минерал-хом ашё ресурсларини ўзлаштириш имкониятларини кенгайтиради;

• ишлаб

чиқариш инфратузилмаси, авваламбор, автомобиль ва темир йўлларнинг ривожланган тизими, уларнинг самарали фаолияти ишлаб чиқаришдаги умумий харажатларни камайтиришнинг муҳим шarti ва омилидир. Бу эса, ўз навбатида, ишлаб чиқарилаётган маҳсулот ва бутун иқтисодиётимизнинг рақобатдошлигини оширади;

• инфратузилмани

ривожлантириш кўп меҳнат талаб қиладиган кенг кўламли соҳа ҳисобланади. Бу янги иш ўринларини ташкил этиш, аҳолининг, айниқса, ёшларнинг иш билан бандлигини таъминлаш, одамларнинг даромади ва фаровонлигини ошириш имконини беради.

Бундан кўринадики, мамлакатимизда барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш, иқтисодиётнинг реал секторини янада

ривожлантириш кўп жиҳатдан корхоналарнинг ишлаб чиқариш инфратузилмаси билан таъминланганлик даражасига боғлиқ. Хусусан, саноат ишлаб чиқариши инфратузилмасининг ривожланиш даражаси – миллий иқтисодиётнинг барча тузулмавий элементлари фаолияти самарадорлигига таъсир қилади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг таракқий стратегияси тўғрисида” 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони ижросини таъминлаш, Самарқанд вилояти ҳудудларида саноат, қишлоқ хўжалиги ва хизматлар соҳасининг келгуси беш йилдаги истиқболларини ҳамда ҳар бир туман ва шаҳарнинг “ўсиш нуқталари”ни белгилаш, социал соҳани ривожлантириш орқали аҳоли саломатлиги ҳамда турмуш даражасини янада яхшилаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 28 апрелдаги “2022- 2026 йилларда Самарқанд вилояти ҳудудларини комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш ва аҳоли турмуш даражасини янада яхшилашга доир кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 222-сонли Қарори қабул қилинди ва унда 2022-2026 йилларда вилоятни иқтисодий ривожлантириш кўрсаткичлари белгилаб берилган (1-жадвал).

**1-жадвал**

**Самарқанд вилоятининг 2022-2026 йилларда иқтисодий ривожланишининг кўрсаткичлари**

	Ўлчов бирлиги	2022 йил	2023 йил	2024 йил	2025 йил	2026 йил	Жами



1	Ялпи хуудий маҳсулот (ЯХМ)	ҳажми, трлн.сўм	58,5	67,2	77,0	88,1	100,1	1,4 баравар
		ўсиш,%	107,1	107,1	107,4	107,8	108,0	
2	Аҳоли жон бошига ЯХМ ишлаб чиқариш	млн. сўм	14,5	16,3	18,3	20,6	23,0	-
3	Саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш	ҳажми трлн.сўм	25,3	29,4	34,1	40,1	47,1	1,5 баравар
		ўсиш, %	106,9	106,9	107,8	109,3	108,8	
4	Аҳоли жон бошига саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш	млн.сўм	6,2	7,1	8,1	9,4	10,8	-
5	Кичик саноат зоналарини ташкил этиш	Дона	17	17	18	18	18	88

1-жадвал маълумотларига кўра Самарқанд вилоятида 2022-2026 йилларда ялпи хуудий маҳсулотнинг ҳажми 1,4 баробар ўсиши ва аҳоли жон бошига ЯХМ 23,0 млн. сўмни ташкил этиши, саноат маҳсулотларини ишлаб чиқариш эса 1,5 баробарга кўпайиши ва унинг аҳоли жон бошига 10,8 млн.сўмга тенглашиши керак. Табиийки, саноат маҳсулотлари ҳажмининг ўсиши, амалдаги ишлаб чиқариш кучлари фаолиятининг кенгайиши ва янги кичик саноат зоналарида ташкил этилаётган корхоналар эвазига таъминланади. [Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 28 апрелдаги “2022 – 2026 йилларда Самарқанд вилояти хуудларини комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш ва аҳоли турмуш даражасини янада яхшилашга доир

кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 222-сонли Қарори (1-илова)].

2022-2026 йилларда вилоятда янги 88 та кичик саноат зоналарининг ташкил этилиши режалаштирилган. Улар фаолиятининг узлуксизлигини таъминлаш ва ривожлантириш эса тегишли инфратузилмаларни талаб қилади.

“Кўп йиллар давомида янги газ конларига инвестиция киритилмагани, электр ва газ тармоқлари модернизация қилинмагани ҳам айни ҳақиқатб оқибатда тизимда аниқ ҳисоб-китоб йўқлиги, катта йўқотишлар оддий ҳолга айланиб қолган эди.

Шу билан бирга, сўнгги олти йилда аҳолимиз 13 фоизга, саноат корхоналари эса 2 баробар ортиб, 45 мингдан 100 мингтага кўпайди. Натижада электр энергиясига талаб

камида 35 фоиз ошди ва йилдан-йилга кўпайиб бормоқда.

Иқтисодиётимиз барқарор ривожланиши учун энергетика соҳасига 25-30 миллиард доллар инвестиция керак. Бунга фақатгина хусусий инвестицияларни жалб қилиш орқали эришиш мумкин”. [Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси.//Халқ сўзи, 2022 йил 21 декабрь]

Саноат ишлаб чиқариши инфратузилмасини ривожлантириш борасида юритилаётган давлат сиёсатининг мақсадларидан бири – тармоқ инфратузилмасида хусусий бизнесни кенгайтириш учун шароитларни яратиш, хўжалик субъектларнинг манфаатларини тартибга солиш ва кам харажатли ишлаб чиқаришни таъминлашдир.

Хусусий тадбиркорлар инфратузилма объектларини шакллантириш ва ривожлантириш асосида тақдим этадиган хизматларидан фойда кўришади. Тадбиркорликнинг бу тури, табиийки, бизнеснинг фойдалилигини маълум даражада исботлайди ва мамлакатда капиталнинг жамғарилиш суръатларини тезлаштиришга имкон беради.

“Бугун кўнглимдаги бир ниятимни сизларга очик айтмоқчиман. Менинг катта ниятим – юртдошларимиз орасида юз минглаб мулкдорлар, акциядорлар пайдо бўлсин. Одамларимиз ўз омонатларини инвестиция қилиб, юқори даромадларга эга бўлсин”. Бунга эришишда, бизнинг фикримизча, иқтисодиётда, жумладан, саноат ишлаб чиқариши инфратузилмаси таркибида акциядорлик ва масъулияти чекланган жамиятларни ташкил этишни кўллаб-қувватлаш муҳим ўрин тутди.

Аҳоли даромадини оширишнинг ҳамда мамлакатда инвестицион жараёнларни молиялаштиришнинг муҳим манбаларидан бири – аҳолининг бўш маблағларини инвестицияларга трансформация этиш ҳисобланади. Бу соҳада қилиниши керак бўлган асосий масала – аҳолининг тадбиркорлик орқали мулкдор бўлишга ишончини оширишдир.

Табиийки, бу аҳолининг мол-мулкдан кўрадиган даромадларининг кўпайишига ва турмуш фаровонлигининг ошишига олиб келади.

**2-жадвал**

**Ўзбекистон аҳолисининг умумий даромадлари таркиби (фоизда)**

Йиллар	Умумий даромадлар	шу жумладан:	
		бирламчи даромадлар	Трансфертлардан

		ишлаб чиқаришдан олинган даромадлар		мол-мулкдан олинган даромадлар	даромадлар
		меҳнат фаолиятдан олинган даромадлар	шахсий истеъмол учун ишлаб чиқарилган хизматлардан олинган даромадлар		
2019	100	69.6	2.1	2.9	25.4
2020	100	65.9	7.4	2.1	24.6
2021	100	65,0	6,7	2,1	26,2
2022	100	61,6	6,3	2,3	29,8

[O‘zbekiston raqamlarda, – T.:O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2020, 78 bet;  
 O‘zbekiston raqamlarda, – T.:O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2022, 69 bet;  
 O‘zbekiston raqamlarda. – T.:O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2023, 69 bet]

2-жадвал маълумотларига кўра, аҳолининг бирламчи даромадлари таркибида ишлаб чиқаришдан олинган даромадларнинг ҳиссаси пасайиш тенденциясига эга: меҳнат фаолиятдан олинган даромадлар 2022 йили 2019 йилга нисбатан 8,0 фоизга камайган, шахсий истемол учун ишлаб чиқарилган хизматлардан олинган даромадлар эса 4,2 фоизга кўпайган. Айни пайтда, мол-мулкдан олинган даромадлар 0,6 пунктга қисқарган, трансфертдан олинган даромадлар 4,4 фоизга ўсган.

### Хулоса ва таклифлар

Таҳлилий маълумотлар, Ўзбекистон аҳолисининг мол-мулкдан олишаётган даромадлари, унинг умумий даромадлари ҳажмининг ўзгаришига таъсири сезиларли даражада эмаслигидан далolat беради. Бундай ҳолат мамлакатда ўрта мулкдорлар синфини шакллантириш ва ривожлантириш борасида муҳим ишларни амалга ошириш заруриятини туғдиради.

Маълумки, қишлоқ жойларида тадбиркорликнинг ривожланиш даражаси шаҳар жойларига нисбатан анча паст. Шу сабабдан қишлоқ жойларида кичик ишлаб чиқариш корхоналари инфратузилмаси бўйича тадбиркорликни янада ривожлантириш бўйича асосий вазифалар қуйидагилардан иборат:

- ишлаб чиқариш инфратузилмаси бўйича тадбиркорлик билан шуғулланувчи ва шуғулланиш истаги бор шахсларга бизнесни юритишда асқатадиган (молия, маркетинг, ахборот технологиялари ва бошқа) муҳим масалалар бўйича бепул ўқув семинарларини ташкил этиш;

- давлат матбуотида (телевидение ва радио, газета ва журналларда) бизнес юритиш борасида тарғибот ва ташвиқот ишларини самарали ташкил ҳисобланади.

Берилган таклифларни амалга ошириш, бизнинг фикримизча, мамлакатимизда ишлаб чиқариш инфратузилмаси бўйича тадбиркорликнинг янада

ривожланишига ва аҳоли фаровонлигининг ошишига ижобий таъсир этади.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, иқтисодиёт соҳасини эркинлаштириш, яъни давлат бошқарув ролини чегаралаш, иқтисодий эркинликларнинг ва саноат ишлаб чиқариши субъектлари сонининг ортиши – техник-сервис тизимида ҳам рақобат муҳити шакллантирилишини тақозо этади.

Бундай шароитда, турли мулк – АЖ, МЧЖ, ҚМЖ шаклидаги техник хизмат кўрсатувчи корхоналарни яратиш ўта муҳим ҳисобланади. Бироқ, ҳозирги кунда кичик саноат зоналардаги ишлаб чиқариш корхоналари, алоҳида техник-хизмат кўрсатиш шахобчаларини ташкил этиш учун кераклик пул маблағларига эга эмас. Шунинг учун (АЖ, МЧЖ, ҚМЖ шаклидаги) корхоналараро техник-хизмат кўрсатиш марказларини – уста-мутахассисларни бирлаштириш асосида ташкил этиш мақсадга мувофиқдир.

Кичик саноат зоналаридаги ишлаб чиқариш корхоналари ўртасида ташкил этиладиган техсервис марказлари – саноат ишлаб чиқариш инфратузилма-ларининг янги хўжалик субъектида мулкчилик шаклларида қатъий назар (саноат корхоналари, фермер ва деҳқон хўжаликлари, шунингдек, бошқа юридик шахслар ва аҳолига) техник хизмат кўрсатади.

Техсервис марказлари ўз тасарруфидаги ҳамда унинг хизматидан фойдаланувчи ўзга субъектлар техника ва бошқа асосий воситалари базасида кафолатли

сервис хизматини ташкил қилади ва у қуйидаги афзалликларга эга:

- техсервис марказлари бошқа турдош корхоналар билан биргаликда техник хизмат кўрсатиш соҳасида рақобатни вужудга келтиради ва кучайтиради;

- корхоналараро техсервис марказларини ташкил этиш – бино ва иншоотлар қуриш борасида капитал маблағларни тежаш имконияти туғилади;

- техсервис марказлари (хизмат кўрсатиш билан бир қаторда) кичик саноат корхоналаридаги мавжуд илғор тажрибаларни, хизматдан фойдаланувчилар фаолиятига жорий қилиши мумкин бўлади;

- техсервис марказлари хизматидан фойдаланувчи бошқа корхоналардаги техника воситаларидан йил мобайнида тўлиқ ва самарали фойдаланиш учун имкониятлар яратилади;

- техсервис марказлари хизматидан кичик саноат зоналар корхоналарининг ўзлари ҳам фойдаланганлиги учун хизмат хаки тарифлари ошиб кетишига йўл қўйилмайди ва тарифлар ўзаро келишувига асосан манфаатли даражада белгиланади;

- кичик саноат зоналари ўртасида ташкил этилган техсервис марказлари фаолияти натижасида олинган фойда сервис маркази моддий-техника базасини, шу билан бирга, унинг молиявий аҳолини мустақамлашга хизмат қилади;

- хизмат кўрсатиш нархлари нисбатан арзонлиги, улар хизматидан фойдаланувчи субъектлар сонининг ортишига олиб келади;

• техсервис марказлари фаолияти турларининг кенгайишн, яъни эҳтиёт қисм, ёқилғи-мойлаш материаллари ва бошқаларни олиб келиб таъминлаш ҳисобига фойда кўриш имкониятини беради;

• кичик саноат зоналари корхоналарининг техника воситалари ва эҳтиёт қисмларини бевосита ишлаб чиқарувчи заводлардан сотиб олиш ҳамда воситачи ташкилотларга тўланадиган тўловлар миқдорининг қисқариши ҳисобига уларнинг нархларини арзонлаштириш имкониятини туғдиради;

• техсервис марказлари хизматидан фойдаланувчи бошқа субъектлар-нинг маблағларини, улар билан келишув асосида бирлаштириш ҳамда банкдан узоқ муддатли кредит

олиш ҳисобига сервис марказининг моддий-техника базасини мунтазам равишда янгилаб боришга шароит яратади ва ҳоказо.

Демак, ҳозирги пайтда техник-сервис тизимида рақобат муҳитини вужудга келтирувчи, уни ташкил этиш ва фаолият кўрсатишда кам капитал маблағлар талаб қилувчи, қолайверса, бугунги кунда кичик саноат зоналарида юзага келган шароитга мос келувчи ва саноат корхоналарида техникалардан фойдаланишнинг асосий мақсади маҳсулот ишлаб чиқариш таннархини камайтиришнинг энг муҳим йўлларида бири – бу, кичик саноат зоналарида корхоналараро техник-сервис марказларини ташкил этишдир.

#### Фойдаланилган адабиётлар

1. *Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 28 апрелдаги “2022 – 2026 йилларда Самарқанд вилояти ҳудудларини комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириши ва аҳоли турмуш даражасини янада яхшилашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 222-сонли Қарори (1-илова).*

2. *Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. //Халқ сўзи, 30 декабрь 2018 йил*

3. *Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий мажлиси ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси.//Халқ сўзи, 2022 йил 21 декабрь.*

4. *Шавқиев Э. Индустириал иқтисодиёт. [Матн]: дарслик. – Самарқанд: “STAP-SEL” МЧЖ нашриёти, 2023.*

5. *Шавқиев Э. Ўзбекистон саноатининг ривожланиши: муаммо ва ечимлар. Монография. – Самарқанд: “STAP-SEL” МЧЖ. nashriyot-матбаа бўлими, 2023.*

6. *O‘zbekiston raqamlarda, – T.:O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2020.*

7. *O‘zbekiston raqamlarda, – T.:O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2022.*

8. *O‘zbekiston raqamlarda. – T.:O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2023.*



<https://doi.org/10.59251/2181-3973.2023.v3.138.3.2541>

## ИЖТИМОЙ ХИЗМАТЛАР БОЗОРИ РИВОЖЛАНИШИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Усманов Ил'ос Арзикулович

Шароф Рашидов номидаги

Самарқанд давлат университети,

тадқиқотчи,

тел: +998902500026, Email: ilyos7113@mail.ru

**Аннотация** Ушбу мақолада ижтимоий сиёсат тушунчасининг моҳияти, уни амалга оширишнинг асосий йўналишлари, ижтимоий муаммоларни ҳал қилиш бўйича чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва реализация қилиш, аҳолига тақдим қилинаётган ижтимоий трансфертлар таснифи, ижтимоий ислохотларни амалга ошириш дастурининг мазмуни, ижтимоий хизматлар соҳасида электрон хизматлар кўрсатишнинг инновацион стратегияси, давлат ижтимоий таъминоти тизимининг асосий йўналишлари тадқиқ қилинган.

**Калим сўзлар:** ижтимоий сиёсат, ижтимоий хизмат кўрсатиш, ижтимоий соҳа, ижтимоий таъминот, ижтимоий трансферт, ижтимоий соҳа тармоқлари, электрон хизмат, инновацион стратегия.

**Аннотация** В данной статье рассмотрены сущность понятия социальной политики, основные направления ее реализации, разработка и реализация мер по решению социальных проблем, классификация социальных трансфертов, предоставляемых населению, содержание программы реализации социальных реформ, инновационная стратегия предоставления электронных услуг в сфере социального обслуживания, основные направления государственной системы социального обеспечения.

**Ключевые слова:** социальная политика, социальное обслуживание, социальная сфера, социальное обеспечение, социальная передача, социальные сети, электронное обслуживание, инновационная стратегия.

**Annotation** This article examines the essence of the concept of social policy, the main directions of its implementation, the development and implementation of measures to solve social problems, the classification of social transfers provided to the population, the content of the program for the implementation of social reforms, an innovative strategy for providing electronic services in the field of social services, the main directions of the state social security system.

**Keywords:** social policy, social service, social sphere, social security, social transfer, social networks, electronic service, innovation strategy.

### Кириш

Ижтимоий хизматлар соҳасида ислохотларни амалга ошириш мувофиқлаштириш ва назорат фаолиятини кучайтиришни назарда

тутади. Бунда ҳозирги вақтда ижтимоий хизматлар нафақат миқдоринг маълум бир хизматни сотиб олиши ва уни кўрсатиш натижаси, балки ижтимоий

хизматларни амалга ошириш учун бюджет маблағлари асосида доимий равишда молиялаштириладиган ижтимоий хизмат кўрсатиш ташкилотлари фаолиятини сақлашдан иборатдир.

Таъкидлаш керакки, ижтимоий хизматлар тизимида таркибий ислохотларни реализация қилишнинг энг муҳим шarti – бу ижтимоий хизматларнинг юқори сифатини таъминлайдиган шарт-шароитлар ва рағбатлантиришни яратиш учун ташкилий-иқтисодий воситаларнинг мақбул комбинациясини танлашдир. Замонавий иқтисодий муносабатлар тизимида аҳолига ижтимоий хизматлар кўрсатиш бўйича давлат ва худудий дастурлар нотижорат жамоат ташкилотлари фаолиятини тўлдиради. Шундай экан, мақсадли дастурий ёндашув мақсадга эришишга йўналтирилган ҳаракатлар (дастур, лойиха шаклида) муаммони ҳар томонлама таҳлил қилиш ва чоратадбирлар комплексини шакллантириш асосида режалаштирилган бошқарув қарорларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш усулини назарда тутди.

Иқтисодиётнинг трансформациялашиши шароитида ижтимоий хизматларнинг ривожланиши худудлар барқарорлигини таъминлашга йўналтирилган ижтимоий-иқтисодий сиёсатнинг таркибий қисми ҳисобланади. Шундай экан, республика ва унинг худудларини бошқаришнинг ижтимоий йўналтирилганлиги фаол иқтисодий ўсиш ва ижтимоий босим даражасини пайтириш учун дастлабки шарт-шароитларни таъминлаш ва

ижтимоий сиёсат самарадорлигини таъминлаш орқали аҳоли турмуш даражасини мунтазам ошириб бориш алоҳида аҳмиятга эга ҳисобланади.

### **Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили**

Илмий адабиётларда сервис тизимида ижтимоий хизмат кўрсатишнинг моҳияти ва мазмуни, ижтимоий хизматлар соҳасининг ривожланиши ва аҳолига кўрсатилаётган ижтимоий хизматлар сифатини ошириш ва рақобатбардошлигини таъминлаш, ижтимоий хизматлар соҳасининг таркиби, ижтимоий хизмат кўрсатиш жараёнларини ташкил этиш ва истеъмолчиларнинг хизматларга бўлган турли хил талабларини қондиришнинг айрим жиҳатлари илмий-назарий ҳамда услубий жиҳатдан ўрганилган.

Таниқли иқтисодчи олим Ж.М.Кейнснинг машҳур асари «Бандлик, фоиз ва пулнинг умумий назарияси» асарида [9] сервис иқтисодиёти, иқтисодий ўсиш, хизмат кўрсатиш соҳасининг ривожланиши, ижтимоий хизматлар соҳасида рақобатбардошликни таъминлаш, ишлаб чиқариш омилларидан хизмат кўрсатиш жараёнида самарали фойдаланиш, ижтимоий ва иқтисодий самарадорликни ошириш, меҳнат унумдорлигини ошириш билан боғлиқ муаммоларнинг фундаментал тадқиқоти амалга оширилган.

Иқтисодчи олим Г.Э.Слезингернинг асарида [12] ижтимоий соҳанинг предмети, жамиятда ижтимоий муносабатларнинг такомиллашиб бориши, ижтимоий хизматлар соҳасининг институтционаллашуви,

ижтимоий хизматлар бозори ривожланишини тартибга солиш, ижтимоий хизматлар соҳасининг инновацион ривожланиши, ижтимоий хизматларни ташкил этиш давлатнинг харажатларини шаклланиши ҳамда ижтимоий хизматларни ишлаб чиқариш ва тақдим этиш сифатини ошириш йўналишларини ўрганилган.

К.Хаксевер, Б.Рендер, Р.Рассел, Р.Мердиклар ўзларининг асарида [11] хизмат кўрсатиш соҳаси ривожланишининг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти, хизматлар тавсифи ва таснифи, ижтимоий хизматлар самарадорлигини ошириш механизмлари, ижтимоий хизматлар кўрсатишнинг замонавий тармоқларини ривожлантириш, ижтимоий хизматлар бозори ривожланишининг тамойиллари, ижтимоий хизматлар соҳасининг инновацион ривожланиш йўналишларини тадқиқ қилганлар.

МДХ олимлари В.Г.Игнатов ва Л.А.Батуриновлар [6] асарида ижтимоий соҳанинг иқтисодий категория сифатидаги моҳияти ва мазмуни, ушбу соҳани ривожланишининг ўзига хос жиҳатлари, ижтимоий соҳани миллий иқтисодиётда тутган ўрни, ижтимоий хизматлар соҳасида иш ўринларини кенгайтириш, ижтимоий хизматлар кўрсатишнинг замонавий тармоқларини ривожлантириш, ижтимоий хизматлар бозори ривожланиши, ижтимоий хизматлар соҳаси ривожланишининг инсон фаолияти ва унинг турмуш тарзига таъсири билан боғлиқ йўналишлар тадқиқ этилган.

П.З.Хашимовнинг асарида [14] ижтимоий соҳанинг ривожланиши, ижтимоий хизматлар кўрсатишнинг замонавий тармоқларини ривожланиши, ижтимоий соҳани барқарор ривожланиши, ижтимоий хизматлар самарадорлигини ошириш механизмлари, ижтимоий хизматлар сифати ва рақобатбардошлигини ошириш муаммолари тадқиқ қилинган.

### **Тадқиқот методологияси**

Тадқиқот жараёнида иқтисодиётнинг инновацион ривожланиши шароитида ижтимоий сиёсатни амалга оширишнинг устувор йўналишлари бўйича иқтисодий тизимлар ва нисбатларни ўрганишга диалектик ва тизимли ёндашув, қиёсий баҳолаш, солиштирма ва омилли таҳлил, гуруҳлаш усулларидан фойдаланилди. Шунингдек, ижтимоий соҳанинг ривожланиш шарт-шароитлари услубий жиҳатдан тадқиқ қилинди.

### **Таҳлил ва натижалар**

Аҳолига ижтимоий хизматлар кўрсатишни бошқаришда дастурий-мақсадли ёндашувнинг аҳамияти шундан иборатки, ушбу ёндашув махсус ҳужжат доирасида (дастурлар, лойиҳалар) мақсадларни ресурслар билан боғлаганлиги сабабли режалаштирилган, мақсадли-меъёрий ёндашувлар ўртасида оралик ўринни эгаллайди.

Шу билан бирга, мақсадли дастур ёндашувидан режалаштирилган мақсадли-меъёрий ёндашув ўртасидаги асосий фарқ – белгиланган мақсадларга эришиш учун зарур бўлган ресурсларни ҳисобга олишдир. Шундай қилиб,

агар классик мақсад-меъёрий ёндашув учун мақсадга қандай ресурслар сарфланиши умуман муҳим бўлмаса, дастур-мақсадли ёндашув учун мақсадга эришишда ресурслардан фойдаланиш самарадорлиги муҳим масала ҳисобланади. Бундай ҳолда, ишлаш кўрсаткичи олдиндан ҳисобланган ва сифат жиҳатидан ва энг муҳими, миқдорий жиҳатдан ўлчанган якуний натижадир. Бундан ташқари режалаштирилганидан фарқли ўлароқ, вазиятни мониторинг қилиш ва баҳолашнинг доимий тизими туфайли дастур-мақсадли ёндашув сезиларли даражада мослашувчан, сезгир ва тартибга солинадиган ёндашувдир ва шунинг учун ижобий якуний натижага эришишга кўпроқ йўналтирилган.

Дастурий мақсадли ёндашувни жорий этиш муқаррар бошқарув тизимини такомиллаштиришга таъсир қилади. Масалан, ҳудудий даражада кексалар ва ногиронлар учун ижтимоий хизматлар мақсадли дастур асосида реализация қилинади. Бунда аҳолига ижтимоий хизмат кўрсатиш ташкилотлари инфратузилмасини ривожлантириш, уларнинг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш, аҳолига кўрсатилаётган хизматлар рўйхатини кенгайтириш ва сифатини ошириш «Темир дафтар», «Ёшлар дафтари» ва «Хотин-қизлар дафтари»да назарда тутилган. Ижтимоий хизматларни ривожлантириш давлат ижтимоий буюртмасини давлат ташкилотлари учун ҳам, нотижорат сектори учун ҳам рақобат механизмлари орқали жорий қилиш орқали мумкин бўлди.

Яна шуни таъкидлаймизки, аҳолига ижтимоий хизматлар кўрсатиш бўйича ижтимоий сиёсатни амалга ошириш бўйича фаолият шундай мураккаб объект бўлиб, уни амалга ошириш механизми ўз вақтида ва сифатли рағбатлантириш, ижтимоий хизматларни яратиш, ишлаб чиқариш ва улардан фойдаланиш ҳамда режалаштирилган ва дастур асосида иқтисодий самарадорликка эришишни таъминлаш босқичларини яқунлаши зарур. Шунинг учун ҳам ушбу механизм доирасида аҳолига ижтимоий хизматларни амалга ошириш воситаларидан фойдаланиш муҳим.

Ижтимоий хизматларни реализация қилиш воситалари самарадорли-гининг умумлаштирувчи кўрсаткичи ижтимоий инфратузилманинг ташкилий-ҳуқуқий тузилмаси томонидан кўрсатилган хизматлар орқали кўшимча равишда олинадиган соф фойда қийматини турли йўналишдаги чора-тадбирлар мажмуини амалга ошириш жараёнида барча харажатлар йиғиндисига нисбати билан ифодаланиши керак. Хусусий фаолиятнинг асосий кўрсаткичлари соф фойдаси билан бир қаторда ижтимоий хизмат кўрсатиш объектлари ликвидлиги, хавфсизлик, молиявий барқарорлик, тадбиркорлик фаоллиги даражаси кўрсаткичлари ҳисобланади.

Бундай хусусий кўрсаткичлар самарадорликни баҳолашда оралик кўрсаткич ҳисобланади, чунки улар ижтимоий хизматларни амалга ошириш воситаларини шакллантириш харажатлари қиймати

билан таққосланмайди ва бундан ташқари, ижтимоий инфратузилма объектларининг ҳар бири учун ўз хусусиятига эга. Шу сабабли аҳолига ижтимоий хизматларни реализация қилиш воситалари самарадорлигининг хусусий кўрсаткичлари, бизнинг фикримизча, ижтимоий хизматлар соҳасида ташкилий-ҳуқуқий тузилмаларнинг иқтисодий, ижтимоий, молиявий ривожланишга алоҳида кўмаклашувчи чора-тадбирлар мажмуини қўллаш натижасида олинган белгиланган қийматга эга натижалар нисбатини ҳисобга оладиган кўрсаткичлар бўлиши мумкин. Бунда таъсир этишнинг иқтисодий натижалари фойда ҳажмининг ошиши, кўрсатиладиган ижтимоий хизматлар ҳажмининг ҳажмининг миқдори ва қийматини ўсиши, улар таннархининг пасайиши ва умуман маълум бир давр учун умумий харажатлар сифатида намоён бўлиши мумкин. Ижтимоий хизматларни амалга ошириш воситалари самарадорлигининг умумлаштирувчи ва ўзига хос хусусиятларини мавжудлиги, ушбу кўрсаткичларнинг муайян вақт оралиғидаги ўзгаришлар динамикаси ижтимоий ривожланиш мақсадларига эришиш жараёнида турли йўналишдаги бошқарув қарорларини миқдорий ва сифат жиҳатидан баҳолаш учун реал имконият яратиши мумкин.

Бунга боғлиқ ҳолда ва самарадорликни баҳолаш бўйича ишлаб чиқилган ёндашувлар асосида, бизнинг фикримизча, маҳаллий бюджетларнинг ижтимоий харажатлари самарадорлигини

баҳолаш зарур, чунки ижтимоий хизматларни реализация қилиш доирасида айнан маҳаллий ташкилотлар аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлашни амалга оширадilar.

Аҳолига ижтимоий трансфертларни (субсидиялар, нафақалар ва нафақалар) тақдим қилишнинг амалдаги тизими асосан манзилли эмас, яъни трансфертларнинг кўп қисмини бутун аҳоли ёки унинг алоҳида категориялари, жумладан, турли хил ижтимоий таъминотга эга фуқаролар олади. Мазкур хизматларни кўрсатувчи ташкилотларга яширин субсидиялар кўринишида молиялаштириладиган кўплаб ижтимоий аҳамиятга эга хизматларнинг бепул ёки арзонлиги ҳақидаги иллюзия сақланиб қолмоқда. Аҳоли ижтимоий трансфертларни нафақат ижтимоий хизматлар тизими, балки маҳаллий хўжалик тармоқлари орқали ҳам олади. Шу сабабли маҳаллий бюджетларнинг аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлашга реал харажатлари бюджетнинг «Ижтимоий сиёсат» моддаси бўйича акс эттирилган суммалари анча юқоридир. «Ижтимоий хизматлар тўплами»нинг ҳақиқий қиймати уни олувчига ҳам, маҳаллий ҳокимият органларига ҳам маълум эмас. Ишларнинг бундай ҳолати маҳаллий ҳокимиятнинг ижтимоий мақсадларга йўналтирилган харажатларининг ҳақиқий ҳажмини, уларнинг умумий бюджет харажатларидаги улушини аниқлашга ва натижада маҳаллий даражада ижтимоий сиёсатни шакллантиришга имкон бермайди.




Ижтимоий хизматлар ва аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлашнинг ҳар қандай шаклини реализация қилиш учун маҳаллий бюджет орқали қилинадиган барча харажатлар мажмуини «ижтимоий бюджет» деб атаيمиз.

Республикаимизда ижтимоий бюджет тузилмасини таҳлил қилиш натижаларига кўра, аҳолига ижтимоий хизматлар кўрсатиш ва ижтимоий харажатларни ҳисобга олиш тизимини жорий этиш воситаларини такомиллаштириш бўйича таклифлар киритиш мақсадга мувофиқдир.

Юқорида айтиб ўтилганидек, «ижтимоий хизматлар тўплами»нинг реал қиймати, яъни барча имтиёзлар, ижтимоий нафақалар ва субсидиялар,

на олувчига (муайян шахс ёки оила) ва на маҳаллий маъмуриятга маълум эмас. Бу фуқароларнинг ижтимоий табақаланишини ҳисобга олмасдан, маҳаллий ҳокимиятнинг турли тузилмавий бўлинмалари томонидан амалга ошириладиган нафақалар, имтиёзлар ва субсидиялар тизими орқали ижтимоий қўллаб-қувватлаш мақсадида аҳолини кенг кўламда субсидиялашга олиб келади ва бунинг ҳақиқий миқдорини аниқлаш имконини бермайди.

Биз, бюджет томонидан қилинадиган ижтимоий харажатларнинг тўлиқ ҳажмини ўрганиш учун аҳолига ижтимоий трансфертларнинг таснифини ишлаб чиқдик (1-расм).



## 1-расм. Аҳолига тақдим қилинаётган ижтимоий трансфертлар таснифи

Ижтимоий трансфертлар таснифи кўидагиларни ўз ичига олади:

**Аҳолини қамраб олиш даражасига кўра:** бутун аҳолига тақдим этилган (уй-жой коммунал хизматларини тўлашда аҳолининг улушини белгилаш); аҳолининг айрим категорияларига бериладиган (фахрийлар, ногиронлар, ёлғиз яшовчи ишламайдиган пенсионерлар учун турли имтиёзлар); шахсий ёки мақсадли (уй-жой коммунал хизматларини тўлаш учун субсидиялар, болали фуқаролар учун имтиёзлар).

**Хизматлар турлари бўйича:** уй-жой коммунал хизматлари (уй-жой коммунал хизматларини тўлаш учун имтиёзлар, алоқа хизматлари, уй-жой субсидиялари, операцион ташкилотларга субсидиялар); транспорт (шаҳар ва шаҳар атрофи йўловчи транспортда имтиёзли саёҳат); таълим (болаларнинг мактабгача таълим муассасаларида бўлиши учун ота-оналарнинг тўловлари бўйича имтиёзлар, болалар мусиқа ва санъат мактабларида ўқиш учун тўловлар бўйича имтиёзлар); соғлиқни сақлаш соҳасида (имтиёзли дори-дармонлар билан таъминлаш, тиш протезлари, санитария-курорт даволаш, болаларнинг ёзги таътилларини ташкил этиш); ижтимоий (маиший хизматлар, иссиқ овқат учун купонлар сотиш, моддий ёрдам кўрсатиш) [12].

**Ҳуқуқий асосига кўра:** давлат меъёрий ҳужжатларига мувофиқ (уй-жой коммунал хизматларини тўлашда аҳолининг улушини белгилаш, фахрийлар, ногиронларга турли

имтиёзлар бериш); ҳудудий меъёрий ҳужжатларга мувофиқ (уй-жой коммунал хизматларини тўлашда аҳолининг улушини давлат стандарт даражасидан паст даражада белгилаш, ёлғиз яшайдиган ишламайдиган пенсионерлар учун имтиёзли саёҳатларни ташкил қилиш); маҳаллий ҳокимият меъёрий ҳужжатларига мувофиқ (олий ўқув юртлари талабалари, коллежлар, касб-ҳунар мактаблари талабалари, мактаб ўқувчилари учун шаҳар йўловчи транспортда бепул саёҳатни таъминлаш, ишламайдиган пенсионерлар учун уй-жой коммунал хизматларини тўлаш учун имтиёзлар).

**Аҳоли хизмат кўрсатиш усулига кўра:** тўғридан-тўғри, бевосита ижтимоий хизматларга эга бўлувчи кишилар; аҳолига имтиёзли шартларда ижтимоий аҳамиятга эга хизматлар кўрсатувчи уй-жой, транспорт, тиббиёт, таълим ва бошқа ташкилотларга субсидиялар бериш орқали амалга ошириладиган хизматлар.

**Маҳаллий ҳокимиятнинг у ёки бу таркибий бўлинмасида ваколат бўйича мансублигига кўра.**

Ижтимоий хизматлар ва аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлаш соҳасидаги ҳудудий сиёсатни шаклланишида давлат ижтимоий сиёсатининг асосий йўналишлари ҳисобга олиниши керак. Ҳудудий даражада аҳолига ижтимоий трансфертларни тақдим этиш тизимини такомиллаштириш ижтимоий бюджет доирасида амалга ошириладиган ижтимоий эҳтиёжлар учун харажатларнинг комплекс

хисобини юритишни назарда тутати (2-расм).

Давлат ижтимоий таъминоти тизими ўз ичига мажбурий ижтимоий суғурта, давлат ижтимоий таъминоти ва ижтимоий ёрдамни олади. 2020 йилда Республика ҳукумати ва Бирлашган Миллатлар Ташкилоти агентликлари томонидан аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишни мустаҳкамлаш юзасидан БМТнинг қўшма лойиҳаси йўлга қўйилди. БМТ Тараққиёт Дастури, Халқаро меҳнат ташкилоти, ЮНИСЕФ ва Жаҳон банкининг етакчи мутахассисларидан

иборат экспертлар гуруҳи республикада 2030 йилгача бўлган даврда аҳолини ижтимоий ҳимоя Миллий стратегияси лойиҳасини ишлаб чиқишда бевосита иштирок этадилар. Ижтимоий ҳимоя бўйича Миллий стратегиянинг қабул қилиниши асосида БМТнинг Барқарор ривожланиш мақсадлари камбағалликни қисқартириш, ижтимоий ҳимоя тизимини ривожлантириш, аёллар, эркаклар, ҳамда ёшлар ва ногиронларни тўлиқ ва муносиб бандлигини таъминлашга қўмаклашиш назарда тутилган.



## 2-расм. Давлат ижтимоий таъминоти тизимининг асосий йўналишлари

2020 йилда ижтимоий ҳимоя билан шуғулланувчи давлат органлари рўйхати Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги ва Ёшлар агентлиги билан тўлдирилди. Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлигининг ваколоти ижтимоий ёрдамга мухтож оила ва болаларни аниқлаш, ижтимоий нафақа олувчиларни маҳалла даражасида рўйхатга олиш ва ҳисоблашдан иборат. Ёшлар ишлари агентлиги функцияларига эса ижтимоий-ҳуқуқий ҳимояни ташкил этиш ва институционал муассасаларни тугатган етим ва ота-она қарамоғисиз қолган болалар бандлигига кўмаклашиш қиради [16].

Республикамизда аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш ва ижтимоий қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш учун тадбирларни амалга ошириш зарур:

– аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш ва ижтимоий қўллаб-қувватлашга давлат ва ҳокимият органлари томонидан амалга оширилаётган харажатларнинг реал ҳажмини билган ҳолда, халқ депутатлари кенгашлари орқали визуал баҳолаш салоҳиятини ошириш керак. Бунда ижтимоий трансфертлар бюджетни режалаштириш жараёнига объектив ёндашиш имконини беради;

– аҳолини ҳар томонлама манзилли ижтимоий қўллаб-қувватлаш мақсадида аналитик-ахборот базасини яратиш;

– “ягона дарча” технологиясидан фойдаланган ҳолда ижтимоий хизматлар ва аҳолини

ижтимоий қўллаб-қувватлаш соҳасида ишларни ривожлантириш. “Ягона дарча” технологияси давлат ва коммунал ижтимоий хизматларнинг барча турларига ариза маҳаллий ҳокимиятнинг ягона ташкилий-таркибий бўлимига топширилишини назарда тутди. Республикамизда «ягона дарча» технологиясининг қўлланилиши аҳолининг вақтини сезиларли даражада тежайди ва маъмурий харажатларни камайтиради. Ариза берувчи билан индивидуал суҳбат жараёнида миждознинг эҳтиёжлари аниқланади, индивидуал «ижтимоий хизматлар тўплами» (имтиёзлар, нафақалар, хизматлар) шакллантирилади ва шахсий ижтимоий ҳисоб қайдномаси тузилади.

Ҳозирги кунда мамлакатимизда мавжуд ижтимоий-иқтисодий муаммолар сабабли иқтисодиётда амалга оширилаётган ислоҳотлар ва бюджет маблағлари тақчиллиги шароитида давлат ижтимоий хизматлар соҳасидаги инновацияларни ривожлантиришга алоҳида эътибор бериш лозим.

Ижтимоий таъминот тизимида инновацион технологияларни мувофақиятли жорий қилиш учун ҳал қилиниши лозим бўлган қуйидаги вазифаларни ажратиш мумкин:

– ижтимоий соҳада рақобатни ривожланиши ҳисобига турмуш сифатини ошириш, янги ижтимоий хизмаларни яратиш ва ижтимоий соҳани модернизациялаш;

– ижтимоий хизматларни тақдим қилувчи нодавлат ташкилотлар фаолиятини

ривожлантириш воситаларини ишлаб чиқиш;

– Ўзбекистонда ижтимоий тадбиркорлик лойиҳаларини ривожлантириш учун шарт-шароитлар яратиш;

– худудлар ўртасида ижтимоий соҳада асосий ютуқларни намойиш қилиш ва тажриба алмашиш учун самарали механизмларни жорий эти ва платформаларни яратиш;

– мувоффақиятли жтимоий амалиётни ривожлантириш ва кўллаб-қувватлашнинг самарали механизмини шакллантириш;

– ижтимоий соҳада истиқболли ва стратегик лойиҳалар ва инновацияларни оммалаштириш ва уларнинг самарали шаклланиш механизмини жорий қилиш;

– нотижорат ташкилотлари, ижтимоий лидерлар, тадбиркорлар ва ҳокимият органлари вакиллари билан ҳамкорликни йўлга қўйиш.

Ҳозирги вақтда ижтимоий соҳада ахборот технологияларини жорий қилиш долзарб ҳисобланади. Бунда ижтимоий менежерлар ва фуқаролик жамияти фаоллари ва кўнгилчиларини тайёрлаш, услубий кўрсатмаларни нашр қилиш, аҳолига интерактив хизматларни янада кенг жорий қилиш жамиятда ахборот муҳитини кенгайтиришга кўмаклашиш ҳамда электрон хизматларга талабни ошириш имконини беради. Аҳолига тақдим қилинаётган электрон хизматларни ривожлантиришда ижтимоий соҳани ислоҳ қилиш жараёнида яратилган ахборот тизимлари (соғлиқни сақлашда ахборот тизимлари, ижтимоий таъминот тизимлари, ижтимоий жамғарма)нинг аҳамияти

юқори бўлиб, бугунги кунда ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ) ёрдамида аҳолига кўплаб электрон хизматлар кўрсатилмоқда [11].

Кўриниб турибдики, таълим даражасининг ошиши, компьютер ва коммуникацион технологияларнинг ривожланиши аҳолининг интернет хизматларидан фойдаланиш нуқталарининг кенгайиши, бир томондан, ахборот бўшлиғини енгиб ўтишга бўлган интилиш ҳамда ривожланаётган иқтисодий муносабатлар ва турмуш даражасининг ёмонлашуви, ишсизлик, аҳоли миграцияси каби ижтимоий муаммоларни бартараф қилиш, иккинчи томондан, аҳолининг интернет хизматларига бўлган талабини ошириб, мулоқотнинг энг мақбул усулини танлаш имкониятини шакллантиради.

Ижтимоий хизматлар соҳасида электрон хизматлар кўрсатишнинг инновацион стратегияси қуйидаги вазифаларни ўз ичига олади:

1. Шаффофликни таъминлаш, давлат бошқаруви жараёнларида демократик ривожланиш тамойилига асосланиш ва коррупцияга қарши кураш самарадорлигини ошириш.

Ушбу устувор вазифа қуйидаги шарт-шароитларни таъминлашни талаб қилади:

– аҳолига электрон хизматлар кўрсатиш бўйича норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқиш;

– фаолиятни амалга ошириш ва ривожланиш барқарорлигини таъминлаш;

– аҳолига электрон хизматлар кўрсатишни мувофиқлаштириш.

2. Тегишли давлат бошқаруви тузилмалари ўртасида ахборот

алмашиш учун замонавий технологиялар доирасида самарали коммуникациялар мажмуасини яратиш.

Ижтимоий соҳада фаолият юритувчи давлат органлари ўртасида автоматлаштирилган ахборот алмашинувини таъминлаш асосида аҳоли учун бюрократик тартиб-қоидаларни бартараф қилиш натижасида идоралараро ҳамкорлик самарадор-лигини оширади. Шунга кўра:

– бўлимларнинг маълумотлар алмашинуви бўйича ўзаро ҳамкорлиги қоидаларини ишлаб чиқиш каби чора-тадбирларни тақдир этиш мақсадга мувофиқ;

– аҳолига электрон хизматлар кўрсатиш учун чорраха банкни (cross-road bank) яратиш ва идоралараро маълумотлар алмашинувини автоматлаштириш;

– электрон имзони жорий этиш;

– зарурий функционаликни таъминловчи тартибни жорий қилиш ва тизимга киришга рухсат бериш, ахборотни ҳимоя қилиш ва маълумотлар алмашинуви хавфсизлигини таъминлаш.

3. Барча (давлат, ҳудудий, маҳаллий) аҳоли қатламларининг ижтимоий хизматлардан қулай ва хавфсиз фойдаланишини таъминлаш.

Аҳолининг электрон хизматлардан қулай ва тенг фойдаланишини таъминлаш мақсадида қуйидаги чора-тадбирлар амалга ошириш лозим:

– телекоммуникацияларни ривожлантириш ва электрон алоқа билан таъминлаш;

– ягона ижтимоий портални ишлаб чиқиш ва узлуксиз ишлашини таъминлаш;

– аҳолига ахборот тақдим этиладиган сайтларни реконструкция қилиш;

– контент менежерларини ахборот тайёрлаш ва оммага тақдим қилиш усулларига ўргатиш;

– тушуниш қулайлигини таъминлаш;

– электрон хизматларни олиш бўйича йўриқномаларни ишлаб чиқиш ва нашр этиш.

### Хулоса

1. Аҳолига ижтимоий хизматлар кўрсатиш бўйича ижтимоий сиёсатни амалга ошириш бўйича фаолият шундай мураккаб объект бўлиб, уни амалга ошириш механизми ўз вақтида ва сифатли рағбатлантириш, ижтимоий хизматларни яратиш, ишлаб чиқариш ва улардан фойдаланиш ҳамда режалаштирилган ва дастур асосида иқтисодий самарадорликка эришишни таъминлаш босқичларини яқунлаши зарур. Шунинг учун ҳам ушбу механизм доирасида аҳолига ижтимоий хизматларни амалга ошириш воситаларидан фойдаланиш муҳим.

2. Республикамизда аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш ва ижтимоий қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш учун тадбирларни амалга ошириш зарур:

– аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш ва ижтимоий қўллаб-қувватлашга давлат ва ҳокимият органлари томонидан амалга оширилаётган харажатларнинг реал ҳажмини билган ҳолда, халқ



депуталари кенгашлари орқали кувватлаш мақсадида аналитик-  
визуал баҳолаш салоҳиятини ошириш ахборот базасини яратиш;  
керак. Бунда ижтимоий трансфертлар “ягона дарча” технологиясидан  
бюджетни режалаштириш жараёнига фойдаланган ҳолда ижтимоий  
объектив ёндашиш имконини беради; хизматлар ва аҳолини ижтимоий  
– аҳолини ҳар томонлама кўллаб-куватлаш соҳасида ишларни  
манзилли ижтимоий кўллаб-ривожлантириш.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Абулқосимов Ҳ.П. *Иқтисодиётни давлат томонидан тартибга солиш*. – Т.: «Noshirlik yog'dusi», 2018. 206-б.
2. Акмалова А.А. *Социальная политика: парадигмы и приоритеты*. – М.: Союз, 2011. -312 с.
3. Виноградов Ю.Б. *Социальная переориентация экономических преобразований: макро- и мезоуровневый аспекты // Российский экономический журнал*. - 2007. - №10.
4. Гранберг А.Г. *Социальная политика в программах экономических реформ// Федерализм и региональная политика*. - Вып.1. - Новосибирск: ИЭиОПП СО РАН, 2009. – С.7-52.
5. Зияев Т.М., Исроилова Ш.Т., Ёқубов Д.Т. *Ижтимоий соҳа иқтисодиёти*. – Т.: ТДИУ, 2011. 15-б.
6. Игнатов В.Г., Батурич Л.А. и др. *Экономика социальной сферы*. – М.: «Март», 2005. – с. 11.
7. Йўлдошев З.Й., Халилова Х.Т. *Миллий ва жаҳон иқтисодиёти*. – Т.: «Чўлпон номидаги НМИУ», 2014. 163-б.
8. Ефимов Б.А. *Изменение предпочтений индивидов в социальной сфере// Экономика и мат.методы*, 2011. – Т.33. – Вып.2.
9. Кейнс Дж.М. *Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова*. – Москва: МИЭМП, 2010.
10. Малофеев И.В. *Социальные услуги в системе социального обслуживания населения*. - М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», 2012 - 176 с. ISBN 978-5-394-01677-5.
11. К.Хаксевер, Б.Рендер, Р.Рассел, Р.Мердик *Управление и организация в сфере услуг, 2-е изд. / Пер. с англ. Под ред. В. В. Кулибановой*. - СПб: Питер, 2002. – 752 с.: ил. - (Серия «Теория и практика менеджмента»).
12. Слезингер Г.Э. *Социальная экономика*. – М.: «Дело и сервис», 2001. –
13. *Социальная политика. Учебник / И.П.Клинавенко*. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2007. – С. 32.
14. Хашимов П.З. *Экономика социальной сферы*. – Т.: «Университет», 2002. – С. 26.
15. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/03/29/social-protection/>

<https://doi.org/10.59251/2181-3973.2023.v3.138.3.2542>

## ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИДА ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЛИГИ РИВОЖЛАНИШНИНГ ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ

Омонов Шермухаммад Бекмурод ўғли

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти  
тадқиқотчи,

тел: +998932399333, Email: sh.b.omonov@gmail.com

**Аннотация:** Ушбу мақолада ДХШ лойиҳаларини реализация қилишнинг самарали механизмлари, ижтимоий ва инфратузилма лойиҳаларини хусусий капитал ҳисобга молиялаштириши, давлат-хусусий шериклиги лойиҳаларини ташкил этиши йўналишлари, хорий давлатларда ДХШ механизмини амалга ошириши хусусиятлари, уни реализация қилиши ва такомиллаштириши бўйича халқаро институтлар фаолияти, турли хил иқтисодий ривожланиши даражасига эга мамлакатларда ДХШ лойиҳаларининг соҳа ва тармоқ таркиби, хизмат кўрсатиши соҳасида ДХШ лойиҳаларини реализация қилиши йўналишлари тадқиқ қилинган.

**Калим сўзлар:** хизмат кўрсатиши соҳаси, давлат сектори, хусусий сектор, давлат-хусусий шериклиги, тамойил, модел, концессия, давлат-хусусий шериклиги шакллари, лойиҳа.

**Abstract:** In this article, effective mechanisms for the implementation of FDI projects, financing of social and infrastructure projects with private capital, directions for organizing public-private partnership projects, features of the implementation of the FDI mechanism in foreign countries, the activities of international institutions for its implementation and improvement, various economic In developed countries, the field and sector composition of FDI projects, the directions of realization of FDI projects in the field of services were studied.

**Key words:** service sector, public sector, private sector, public-private partnership, trend, model, concession, forms of public-private partnership, project.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены эффективные механизмы реализации проектов ПИИ, финансирование социальных и инфраструктурных проектов частным капиталом, направления организации проектов государственно-частного партнерства, особенности реализации механизма ПИИ в зарубежных странах, деятельность международных институты для его реализации и совершенствования, различные экономические. В развитых странах изучались отраслевой и отраслевой состав проектов ПИИ, направления реализации проектов ПИИ в сфере услуг.

**Ключевые слова:** сфера услуг, государственный сектор, частный сектор, государственно-частное партнерство, тренд, модель, концессия, формы государственно-частного партнерства, проект.

### КИРИШ

Мамлакатимиз иқтисодиёти тажрибасининг кўлланилиши ривожланишининг ҳозирги хизматларга бўлган талабнинг босқичида сервис хизматлари сони ва ошишига олиб келди. Бу ўз навбатида сифатига қўйилаётган талаблар ошиб истеъмол бозори таркибида

Ўзгаришларни вужудга келтирди. Аҳолининг айрим қатламлари моддий фаровонлигининг ошиши натижасида хизматларга ўзларининг талаблари ва эҳтиёжлари мавжуд бўлган истеъмолчиларнинг янги категорияси вужудга келди. Моддий жиҳатдан таъминланган истеъмолчилар ўзларининг ҳаёт қулайликларини оширишни таъминлайдиган турли ассортиментдаги хизматларга катта талабгор ҳисобланишади. Шу сабабли айрим хизмат кўрсатиш корхоналари ўз фаолиятларини айнан аҳолининг шу талаблар ва эҳтиёжларини қондиришга қаратадилар.

Ҳозирги мамлакатимиз иқтисодиётининг инновацион ривожланиши шароитида хизмат кўрсатиш корхоналарини доимий равишда ўзгариб боровчи бозор муносабатлари шароитида барқарор иқтисодий ривожланиши уларнинг хўжалик фаолиятлари самарадорлигини оширишнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштиришни талаб этади. Чунки хизмат кўрсатиш корхоналари фаолиятлари самарадорлигини оширишнинг ташкилий-иқтисодий механизми билан боғлиқ бўлган хизмат кўрсатиш интенсивлигини таъминлаш ресурслардан фойдаланишда тежамкорликка эришишга йўналтирилган давлат ва бизнес ўртасида ҳамкорликни кенгайтириш орқали яратилаётган хизматлар истеъмолчилари талабини тўлиқ қондириш масалалари алоҳида долзарбдир.

Шунга кўра, иқтисодиётнинг инновацион ривожланиши шароитида жаҳоннинг кўплаб мамлакатларида

давлат-хусусий шериклигининг ривожланиш хусусиятларини тадқиқ этиш орқали хорижий тажрибалардан республикамизда хусусий сектор ва давлат ўртасидаги муносабатларнинг ўзига хос механизмини яратиш бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқиш муҳим аҳамиятга эга бўлиб, бугунги кунда хизмат кўрсатиш соҳасида хўжалик механизмларини такомиллаштириш ва инвестицион фаолликни оширишнинг институционал асосларини такомиллаштириш алоҳида долзарб ҳисобланади.

### **Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили**

Илмий адабиётларда хизмат кўрсатиш соҳасида давлат ва бизнес ўртасида шерикчилик муносабатлари ривожланиш хусусиятлари, жаҳонда давлат-хусусий шериклиги механизмини самарали жорий этиш моделлари, давлат-хусусий шерикликнинг шартнома шакллари, ривожланган ва ривожланаётган мамлакатларда давлат-хусусий шериклигидан фойдаланиш соҳаси ва йўналишлари жаҳон хўжалигида давлат ва бизнеснинг ўзаро муносабатларининг кўлами ва шакллари кенгайтиришга таъсир этувчи омиллар илмий-назарий ҳамда услубий жиҳатдан тадқиқ этилган.

Хорижлик иқтисодчи олим Дж.К.Гелбрейт [7, 200-250 б.] ўз асарида давлат ва бизнес ўртасида шерикчилик муносабатлари, инвестицион маблағларнинг шаклланиши, давлат-хусусий шериклигининг концептуал асослари каби йўналишларни тадқиқ қилган.

Ж.Пьер, Ж.Г.Петерс [14, 89-108 б.] асарида хусусий инвестицияларни

рағбатлантириш орқали уй ижтимоий аҳамиятга молик хўжаликлари даромадларининг энг лойиҳаларни амалга ошириш тез ўсишига эришиш йўналишлари, йўллари, унинг афзалликлари ёритиб рақобат муҳитининг шаклланиши берилган.

учун давлатнинг иқтисодий функцияларидан фойдаланишнинг шарт-шароитлари билан боғлиқ муаммолар ёритиб берилган.

Россиялик олимлар В.Г.Варнавский, А.В.Клименко, В.А.Королев [2, 45-85 б.] лар асарида давлат ва хусусий сектор ўртасидаги иқтисодий муносабатлар тизимининг шаклланиши, «давлат-хусусий шериклиги» категориясининг иқтисодий моҳияти ва мазмуни, мақсад ва вазифалари, таркиби ва моделлари, давлат ва хусусий тадбиркорлик субъектлари ўртасида иқтисодий фаолиятнинг асосий йўналишлари, давлат ва тадбиркорлик ўртасида ҳамкорлик шакллари амалга ошириш учун молиявий маблағларни жалб қилиш манбалари, давлат ва жамоатчилик мулк объектлари билан боғлиқ йўналишлари ўрганилган.

В.А.Кабашкиннинг [8, 15-18 б.] диссертация авторефератида «давлат-хусусий шериклиги» категориясининг иқтисодий мазмуни, унинг мақсад ва вазифалари, давлат-хусусий шериклиги моделлари, давлат ва хусусий тадбиркорлик субъектлари ўртасида иқтисодий фаолиятнинг асосий йўналишлари тадқиқ қилинган.

Е.Д.Фролова [12, 31-32 б.] мақоласида ижтимоий аҳамиятга эга стратегик лойиҳаларни бошқариш ва молиялаштириш бўйича хусусий секторнинг иштирокини таъминлаш, шунингдек, кенг доирадаги иқтисодий фаолият турларида

ижтимоий аҳамиятга молик лойиҳаларни амалга ошириш йўллари, унинг афзалликлари ёритиб берилган.

Иқтисодчи олимлар С.Э.Элмирзаев, Н.Ш.Шавкатов [13] ларнинг илмий мақоласида давлат-хусусий шериклик муносабатларининг илғор хориж тажрибалари ва мамлакатимизда қўллаш истикболлари, давлат-хусусий шерикликнинг асосий шакллари, давлат ва хусусий секторнинг ўзаро муносабати тизимида давлат-хусусий шерикликнинг ўрни ва омиллари тадқиқ қилинган.

#### **Тадқиқот методологияси**

Тадқиқот жараёнида давлат ва хусусий сектор ўртасидаги ҳамкорлик ва иқтисодий муносабатларни шаклланиши, хизмат кўрсатиш соҳасида давлат-хусусий шериклигини ривожланиш шакллари ва моделлари, давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини реализация қилиш бўйича иқтисодий тизимлар ва нисбатларни ўрганишга диалектик, тизимли ва илмий ёндашув, қиёсий ва солиштирма таҳлил ҳамда гуруҳлаш усулларидадан фойдаланилди.

#### **Таҳлил ва натижалар**

Ҳозирги вақтда жаҳонда ДХШ лойиҳаларини реализация қилишнинг самарали механизмларини жорий этиш бўйича муайян даражада кенг кўламли тадқиқотлар олиб борилмоқда. ДХШ механизми барча давлат тузилмалари учун манфаатли бўлиб, хусусий бизнес ўртасидаги ҳамкорликни кенгайтириш орқали муҳим ижтимоий ва инфратузилма лойиҳаларини хусусий капитал ҳисобга молиялаштириш имконини

беради. Давлат нафақат ушбу шаклдаги муносабатларни тартибга солувчи субъект ҳисобланади, балки жамият манфаатлари ва эҳтиёжларини фаол ҳимояловчи ролини бажаради.

Маълумки, дунё тарихи давлат-хусусий шериклиги лойиҳаларини ташкил этиш мисолларига бой ҳисобланади. Дунёнинг баъзи мамлакатлари давлат-хусусий шериклик (ДХШ) имкониятларини аллақачон тўлиқ баҳолаган. Кўпгина давлатларда ДХШ хусусиятларини ўрганиш, уни реализация қилиш ва такомиллаштириш бўйича халқаро институтлар мавжуд. Буларга қуйидагилар киради:

– Европа Давлат-хусусий шериклиги экспертиза маркази (European PPP Expertise Centre) [17];

– АҚШ Давлат-хусусий шериклик бўйича миллий кенгаш (The National Council for Public-Private Partnerships) [18].

Бундан ташқари, халқаро миқёсда ҳам, алоҳида ҳудудлар даражасида ҳам тадбиркорликни ривожлантириш билан шуғулланадиган кўплаб ривожланиш

институтлари мавжуд. Бунда улар ДХШни ривожлантириш муаммоларига катта эътибор беришади. Дунёдаги энг йирик халқаро ривожланиш институтлари қуйидагилардир:

– Халқаро тикланиш ва тараққиёт банки (ХТТБ, IBRD);

– Европа тикланиш ва тараққиёт банки (ЕТТБ, EBRD);

– Ислон тараққиёт банки (ИТБ, ISDB);

– Халқаро тараққиёт ассоциацияси (ХТА, IDA) ва бошқалар.


Миллий иқтисодиётлар даражасидаги бозор иқтисодиёти механизмига асосланган кўпчилик давлатларнинг ривожланиш институтлари ҳам яратилган ва фаолият юритмоқдалар. Буларга:

– Ҳиндистон индустриал тараққиёт банки (IDBI);

– Хитой тараққиёт банки (CDB);

– Германия тараққиёт банки (KfW);

– Хорижий хусусий инвестициялар корпорацияси (ОРИС) ва бошқалар.



1-расм. Турли хил иқтисодий ривожланиш даражасига эга мамлакатларда ДХШ лойиҳаларининг соҳа ва тармоқ таркиби [9]


Бундай тузилмаларнинг асосий саъй-ҳаракатлари транспорт, махсус ва энергетика машинасозлиги соҳасидаги лойиҳаларни қўллаб-қувватлашга йўналтирилган. Шу билан бирга, авиация саноати ва ракета-космик комплексдаги лойиҳаларга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Айрим муассасалар кишлоқ хўжалиги, кemasозлик, металлургия ва бошқа соҳалардаги лойиҳаларни молиялаштиради [1].

Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатадики, давлат қанчалик ривожланган бўлса, ДХШ лойиҳалари таркибида ижтимоий йналтирилган соҳалар шунчалик муҳим ҳисобланади (1-расм).

Ижтимоий ҳимоя даражаси кам ривожланган, умр кўриш давомийлиги паст, инфратузилмаси суст ривожланган мамлакатларда эса асосий эътибор йўл қурилиши, электр энергетикаси ва бошқа соҳалардаги лойиҳаларга қаратилади. Бу

тузилмани принципиал муҳим жиҳатдан шундан иборатки, давлатнинг иқтисодий ривожланишини етарли даражада эмаслиги кўпинча асосий эътибор стратегиясида миллий иқтисодиётнинг турли соҳаларини ривожлантиришга қаратилган.

Шу билан бирга, сўнгги бир неча йил ичида ҳатто ривожланган давлатлар ҳам аста-секин инфратузилма лойиҳаларини реализация иқлишга ўтмоқда. Таълим ва соғлиқни сақлаш соҳаларини молиялаштириш бўйича ҳамон етакчи бўлишига қарамай, аста-секин бошқа соҳалардаги лойиҳаларга ўз ўрнини бўшатиб бормоқда. Масалан, агар Европада 2020 йилда тузилган ДХШ шартномаларининг асосий қисми таълимга тўғри келган бўлса, 2021 йилда у транспорт тизимини ривожлантиришдаги ҳиссаси юқори бўлган (2-расм).



**2-расм. 2020-2021 йилларда Европада соҳалар бўйича ДХШ лойиҳаларининг таркиби [15]**

Умуман олганда, ДХШ лойиҳалари сонининг камаётганлини айтиш мумкин. Бундан ташқари, Европа ДХШ экспертлар маркази молиялаштириш бўйича лойиҳаларнинг қисқаришини қайд этади. Бу ҳолат қисман 2008 йилдаги жаҳон молиявий-иқтисодий

инқирозидан кейин кўплаб Европа давлатларининг беқарор иқтисодий аҳволи билан боғлиқ.

ДХШ лойиҳаларини реализация қилишнинг халқаро амалиёти шуни кўрсатадики, улар энг кўп қўлланиладиган асосий соҳалар қуйидагилардан иборат:



– транспорт инфратузилмаси (шу жумладан автомобил йўллари), шунингдек автомобил йўллари, аэропортлар, темир йўллари куриш, сақлаш ва улардан фойдаланиш;

– уй-жой коммунал хўжалиги соҳаси – сув окуваси, чиқиндиларни тозалаш, коммунал хизматларни ташкил этиш ва уй-жой фондини таъмирлаш;

– экологик объектлар – сув тозалаш иншоотлари, фойдали қазилмаларни қазиб олиш ва қайта ишлаш;

– кўчмас мулк, шу жумладан уй-жой фонди, давлат ва ижтимоий инфратузилма объектларини куриш ва сақлаш;


– жамоат тартибини муҳофаза қилиш соҳасида давлат хизматларини

ташкил этиш – алоқа, телекоммуникация инфратузилмасини яратиш ва истеъмолчиларга хизматлар кўрсатиш;

– таълим, шу жумладан мактабларни куриш ва таъмирлаш, зарур коммуникациялар билан жиҳозлаш ҳамда қўшма таълим лойиҳаларида иштирок этиш;

– соғлиқни сақлаш – соғлиқни сақлаш соҳасидаги тадбирларни реализация қилишда иштирок этиш, ушбу соҳада янги технологияларни ишлаб чиқиш ва жорий этиш, тиббий маҳсулотларни яратиш (3-расм).

Шундай экан, жаҳон амалиётига кўра, ДХШ лойиҳаларини реализация қилиш учта асосий йўналишни ўзичига олади: таълим; соғлиқни сақлаш; йўл курилиши.



**3-расм. Жаҳонда соҳалар бўйича реализация қилинадиган лойиҳалар сони, бирликда. [URL: <http://www.eib.org/epec/>.]**

Давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини самарали амалга ошириш учун аниқ “ўйин қоидалари”ни (яъни, ДХШни қонунчилик билан тартибга солиш) ҳамда давлат ва бизнеснинг ўзаро ҳамкорлиги тизимини яратиш зарур.

Кўпгина мамлакатларда бундай ўзаро ҳамкорлик федерал аҳамиятга эга бўлган давлат органлари томонидан ихтисослашган органлар билан биргаликда таъминланади. Халқаро тажриба шуни кўрсатадики, ДХШ лойиҳаларини амалга оширишдаги



муваффақиятсизликларнинг аксарияти лойиҳаларни тузишдаги хатолар билан боғлиқ [4]. Давлат органлари ва хусусий тузилмалар ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг аниқ тузилмасини шакллантириш, ДХШ бўйича ихтисослашган органнинг маслаҳат ёрдами ушбу муаммони ҳал қилишга ёрдам беради [13].

Умуман олганда, ушбу органларнинг функцияларини куйидаги йўналишларга гуруҳлаш мумкин:

– ДХШ лойиҳаларини тайёрлаш ва амалга оширишда

иштирок этувчи давлат органларининг ҳаракатларини мувофиқлаштириш;

– лойиҳани молиялаштириш (биргаликда молиялаштириш);

– ДХШ лойиҳалари иштирокчиларига лойиҳаларни ишлаб чиқиш ва бошқариш бўйича маслаҳатлар бериш;

– давлат-хусусий шериклик соҳасидаги қонун лойиҳаларини ишлаб чиқиш ва муҳокама қилишда иштирок этиш;

– режалаштирилган ДХШ лойиҳаларини эксперт таҳлили.

#### 1-жадвал

#### Келтирилган давлатларда ДХШ бўйича махсус органларнинг функциялари [11]

Мамлакат ва ДХШ органи	Ахборот ва таклиф		Консалтинг ва молиялаштириш				Лойиҳани таҳлил этиш ва тасдиқлаш
	Ресурс маркази	ДХШ бўйича тавсиялар	Аниқ лойиҳалар бўйича маслаҳат	Лойиҳаларни молиялаштириш	Лойиҳани ишлаб чиқиш	Шартнома бажарилишининг назорати	
Буюк Британия: Partnerships UK, сейчас – Infrastructure UK)	+	+	+	+	+	+	+
Австралия, Виктория штати: Partnerships Victoria	+	+	+	-	-	+	-
Канада, Британия Колумбия провенцияси: Partnerships BC	+	+	+	-	+	+	-
Жанубий Африка: Молия вазирилик ичидаги орган	+	+	+	+	-	-	+

*Изоҳ:* «+» – бор; «-» – йўқ.

Бундай ихтисослашган органларнинг функциялари бўйича мисоллар 1-жадвалда келтирилган.

Шуни тушуниш керакки, мазкур ихтисослаштирилган органларнинг функциялари қандай бўлишидан қатъи назар, давлат

тузилмалари лойиҳаларини жиддий кўллаб-қувватлаш, ДХШ механизмлари орқали ижтимоий ривожланишни таъминлаш орқали ДХШ сезиларли ривожланиши мумкин.

Жаҳон амалиётида аҳамиятли даражада молиявий механизмлар мавжуд бўлиб, улар асосида ДХШ амалга оширилади. Ушбу механизмлардан энг асосийлари куйидагилардан иборат: 1) турли хил даражалардаги бюджет ресурслари; 2) давлат корхоналари, ташкилотлари ва муассасалари маблағлари; 3) хусусий сектори маблағлари; 4) жамоат ва нотижорат тузулмалар маблағлари; 5) молиявий ташкилотлар ва кредит муассасаларининг кредит ресурслари;

б) кўшма корхоналар томонидан қилинадиган қимматли қоғозлар эмиссияси; 7) хорижий мамлакатлар ва хусусий инвесторларнинг маблағлари; 8) жисмоний шахслар ихтиёридаги маблағлар ва ҳ.к.

Дунёда, хусусан, ривожланган мамлакатларда инфратузилмага инвестициялар хусусий сектор ҳамкорлигида амалга оширилади. Жумладан, дунёда 2018 йилда инфратузилма объектларига инвестициялар 2,6 триллион долларни ташкил этган. Мазкур кўрсаткичнинг истиқбол параметраларига назар солсак, 2040 йилга бориб 42,0 %га ошиши ва 3,7 триллион долларга етиши кутилмоқда (1-жадвал).

**2-жадвал**

**Ривожланган мамлакатларда ДХШ лойиҳаларидан фойдаланиш бўйича асосий кўрсаткичлар [16]**

Давлатлар	Хизмат кўрсатиш соҳасида ДХШ лойиҳаларини реализация қилиш										
	Автоўллар	Соғлиқни сақлаш	Таълим	Кўприклар ва тунеллар	Аэропортлар	Енгил метро	Темир йўллар	УЖКХ	Чикиндиларни қайта ишлаш	Ижтимоий уйлар	Жами
АҚШ	32			2		1					34
Буюк Британия	12	123	113			9	3		19	22	301
Германия	10	3	24				1	1			39
Италия	23	32		5		12	1		4		77
Канада	10	14	1	3		1	1				30
Франция	5	12		3		2	1				23
Япония								1			1
<b>Жами</b>	<b>92</b>	<b>184</b>	<b>138</b>	<b>13</b>	<b>0</b>	<b>25</b>	<b>7</b>	<b>2</b>	<b>23</b>	<b>22</b>	<b>505</b>

Энди турли мамлакатларда ДХШ лойиҳаларини амалга ошириш хусусиятлари ва уларни ривожлантиришда давлатнинг ролини кўриб чиқамиз.

2-жадвалдаги таҳлилий маълумотларининг миқдорий жиҳатдан таққосланишига назар ташлсак, ривожланган мамлакатларда соғлиқни сақлашга йўналтирилган

лойихалар сони бошқа тармоқларга нисбатан устунлик қилади. Шунингдек, Буюк Британия ва Германияда таълимга қаратилган лойихалар сони ҳам юқори кўрсаткичга эга.

Шундай экан, таҳлил натижаларига кўра, қайд этиш зарурки, умумий ҳолатда ДХШ предмети сифатида аниқ лойихаларни бажариш бўйича давлат ва хусусий сектор ўртасида юзага келадиган ўзаро муносабат қаралади.

**Буюк Британияда** ДХШ тизимининг аҳамияти тегишли шартномаларни тузиш масалаларида давлат ёки ваолатли органларнинг фаолиятни чеклаш юзасидан мувофиқ қонунчилик амалда мавжуд эмас. Муниципалитетлар учун 1997 йилда “Маҳаллий ҳокимият органлари учун шартномалар тўғрисида”ги Қонун қабул қилиниб, уларга ДХШ лойихаларини тўғридан-тўғри амалга ошириш ҳуқуқини беради. Айнан шунинг учун давлат институтлари ва хусусий компаниялар Буюк Британия ДХШ тизими ва бошқа ихтисослашган институтларга жавоб берадиган молия вазирлигининг ваколатли бўлимлари томонидан ишлаб чиқилган намунавий лойихалардан фойдаланадилар [10].

Европада Буюк Британия тарихан ДХШ лойихалари ҳажми ва сони бўйича етакчи бўлиб келган. Ҳамкорликнинг энг муҳим ривожланиши турли соҳаларда ДХШ лойихаларини амалга оширишда бой анъаналарга эга бўлган Франция ва Германияда ҳам кузатилди. Масалан, 2019 йилда Европада тузилган барча лойихаларнинг 48 фоизи Буюк Британия ҳиссасига тўғри келди. Бу

давлат ДХШ имкониятларини биринчи бўлиб баҳолади. У ўзининг биринчи жиддий лойихасини 1981 йилда амалга оширди. Унинг моҳияти Лондон доқларини қайта қуриш эди. Лойиха муваффақиятли яқунлангач, Хусусий молия ташаббуси (Private Finance Initiative, PFI) дастури яратилди. PFI лойихалари автомобил ва темир йўллар, мактаблар, ҳарбий казармалар, касалхоналар ва бошқа соҳаларда амалга оширилади.

Мазкур дастурнинг амал қилиш муддати давомида жами 55 миллиард фунт стерлинглик 700 дан ортиқ лойиха амалга оширилган. Инқироздан олдинги йилларда энг кўп шартномалар амалга оширилган:

- 2017 йилда – 56 та лойиха;
- 2018 йилда – 67 та лойиха.

Шартномаларнинг асосий улушини соғлиқни сақлаш бошқармаси билан тузилган шартномалар ташкил этади, аммо транспорт бошқармаси ресурслар бўйича етакчи ҳисобланади). Умуман олганда, 1992 йилдан бери транспорт соҳасида 22,7 миллиард фунт стерлинг миқдорида шартномалар амалга оширилди. Улардан 16 миллиарди дунёдаги энг йирик ДХШ лойиха-ларидан бири – Лондон метросини реконструкция қилишга тўғри келади.

Ҳарбий-саноат мажмуаси лойихалари катта аҳамиятга эга. Буюк Британия ҳукумати қурол-яроғ, ҳарбий техника етказиб бериш ва ҳарбий хизматчиларни тайёрлаш ва жойлаштириш билан боғлиқ хизматларни ташкил қилиш учун PFIдан фойдаланади.

Дастур мавжуд бўлган даврда Лондондаги Мудофаа вазирлиги

штаб-квартираси 430 миллион фунт стерлингга қайта таъмирланди, шунингдек, амфибия танкер самолётларини лойиҳалаш ва қуриш ва Skynet сунъий йўлдош тизимини ишга тушириш: 2,7 ва 1,08 миллиард фунт стерлинг, мос равишда.

Инқироз шароитида Буюк Британия ушбу дастур доирасида амалга оширилаётган лойиҳаларга муносабатини қайта кўриб чиқди. Гап шундаки, уларни амалга ошириш тажрибаси шуни кўрсатдики, дастурнинг айрим хусусиятларининг ўзи молиялаштириш жараёнининг секин ва узоқ давом этиши, тузилган шартномаларнинг етарли даражада мослашувчан эмаслиги ҳамда хусусий шериклар томонидан ортиқча фойда олиш ва лойиҳаларни шакллантиришда ҳисоб-китобларнинг етарли даражада шаффоф эмаслиги билан боғлиқ самарасиз қарорлар қабул қилинишига олиб келади. Бундан ташқари, сўнгги йилларда ўртача контракт нархининг барқарор ўсиш тенденциясини кузатиш мумкин. Энг йирик лойиҳаларни ҳисобга олмаганда (канал туннели ва Лондон метроси қурилиши), сўнгги 15 йил ичида шартноманинг ўртача қиймати 50 миллион фунтни ташкил этган [10].

PFI дастури бўйича лойиҳаларни амалга ошириш билан боғлиқ асосий даъволар қурилишга хусусий шерикларни жалб қилишнинг иқтисодий мақсадга мувофиқлиги билан боғлиқ. Буюк Британия парламентидаги бир қатор танқидлардан сўнг, мавжуд лойиҳалар мисолида бир қатор ҳисоб-китоблар амалга оширилди.

**Францияда** ҳам давлат-хусусий шерикликнинг бой анъаналари мавжуд. У ДХШ соҳасида жаҳон етакчиларидан бири бўлиб, лойиҳаларни бошқариш ва инвесторларни жалб қилиш, жумладан, минтақавий ва шаҳар инфратузилмаси соҳасида катта тажрибага эга.

Француз ДХШ ривожлантириш моделининг ўзига хос хусусияти шундаки, давлат хусусий инвесторларни давлат лойиҳаларига жалб қилиш учун қўшма корхоналар бўлган аралаш иқтисодиёт жамиятларини (Societe d'Economie Mixte, SEM) яратади. Бундай корхонани ташкил этишнинг зарурий шarti давлат ёки маҳаллий ҳокимият органларининг устав капиталидаги улуши 50 дан 85% гача. Давлат корхоналари федерацияси (FedEpl) маълумотларига кўра, 2017 йилда Францияда 1001 та SEM фаолият кўрсатган бўлиб, улар капиталининг асосий қисми маҳаллий ҳукуматларга тегишли.

SEM аралаш иқтисодиёт жамоалари қуйидаги ҳуқуқларга эга: қурилиш ва реконструкция соҳасидаги фаолиятни амалга ошириш; саноат объект-ларини бошқариш; давлат хизматларини кўрсатиш бўйича уларга юкланган функцияларни бажариш.

9. Диссертация на тему «Электронная коммерция в системе современного бизнеса», скачать бесплатно автореферат по специальности ВАК РФ 08.00.05 – Экономика и управление народным хозяйством: теория управления экономическими системами; макроэкономика; экономика, организация и управление предприятиями, отраслями, комплексами; управление инновациями; региональная экономика; логистика; экономика труда (*dissercat.com*)
10. Основные тенденции развития электронной коммерции в России и мире в 2023 году: ТОП-15 трендов — *Торговля на vc.ru*
11. Проблемы и перспективы развития электронной коммерции – Современные проблемы науки и образования (сетевое издание) (*science-education.ru*)
12. Специфика электронной коммерции в сфере услуг – Студенческий научный форум (*scienceforum.ru*)
13. Специфика электронной коммерции в сфере услуг *specifics of e (studylib.ru)*
14. Что такое e-commerce и как устроена онлайн-торговля | РБК Тренды (*rbc.ru*); Электронный бизнес — Википедия (*wikipedia.org*)
15. Электронная коммерция как прогрессивная форма развития торговли (Сущность электронной коммерции) [Курсовая №987] (*evkova.org*)
16. Электронная коммерция: что это, примеры, тренды 2023 (*kokoc.com*)

<https://doi.org/10.59251/2181-3973.2023.v3.138.3.2549>

**TURISTIK XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHDA MODDIY-  
MADANIY MEROSLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI:  
SAMARQAND REGIONI MISOLIDA**

*Bahrieva Zarina Nasimovna*

*“Ipak Yo‘li” turizm va madagiy meros xalqaro universiteti,  
I kurs doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Samarqand viloyatining turizm resurslari va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan. Turli yo‘nalishdagi turizm xizmatlarining istiqbolli imkoniyatlari bayon etilgan hamda muhokama etilgan. Maqolada shuningdek Samarqand viloyatida turistik- rekreatsion xizmatlar rivojlanish xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** turizm, turizm turlari, ziyorat turizmi, turistik resurslar, turistik mahsulot, moddiy-madaniy meros, turizm industriyasi.

**Abstract.** In this article, the tourism resources of Samarkand region and the possibilities of increasing the efficiency of their use are analyzed from a scientific and practical point of view. Prospective possibilities of tourism services in different directions were described and discussed. The article also examines the features of development of touristic and recreational services in Samarkand region.

**Key words:** tourism, types of tourism, pilgrimage tourism, tourist resources, tourist product, material and cultural heritage, tourism industry.

**Аннотация.** В данной статье туристические ресурсы Самаркандской области и возможности повышения эффективности их использования анализируются с научной и практической точки зрения. Были описаны и обсуждены перспективные возможности туристических услуг по различным направлениям. В статье также рассматриваются особенности развития туристско-рекреационных услуг в Самаркандской области.

**Ключевые слова:** туризм, виды туризма, паломнический туризм, туристские ресурсы, туристский продукт, материальное и культурное наследие, туристическая индустрия.

**KIRISH**

Turizm sohasi iqtisodiy samaradorligining oshishi turizm xizmatlarining har tomonlama rivojlanganligida ko‘rinadi, ya‘ni bunga turizmning mamlakatdagi boshqa ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlar bilan parallel ravishda va o‘zaro aloqada rivojlanishi natijasida erishiladi. Turizm sohasi mahalliy aholi hamda xorijiy fuqorolar boradigan mintaqalarning tarixi, u yerdagi tarixiy arxitektura obektlarlari, mahalliy aholining urf-odatlarini, an‘analari, marosimlari

bo‘yicha kishilar bilimlarini oshirish, ziyoratgox joylarni ziyorat qilish, sog‘lomlashtirish xizmatlaridan foydalanish bilan bir qatorda shu mamlakat yoki mintaqa iqtisodiyotiga bevosita valyutalar oqimini olib kelish, mahalliy aholining yashash sharoitini oshirish va ularni ish bilan ta‘minlashga ko‘maklashadi. Turizm sohasi milliy iqtisodiyotning alohida tarmog‘i sifatida o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning mahsuloti muayyan turdagi xizmatlardan foydalanishga beriladigan xuquq bo‘lib, bu xizmatlarning o‘zi esa

iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida yaratiladi.

Bugungi kunda respublikamizda iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, innovatsion rivojlantirishga qaratilgan islohatlar natijasida turizm sohasi ham yangi bosqichga ko'tarildi. Mamlakatimizda turizm faoliyatini ravnaq toptirish masalasi bo'yicha muhim farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, 2022 yil 18 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm, madaniy meros va sport sohaslarida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-75-son Farmoni, 2022 yil 18 fevralda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-135-son Qarori, 2022 yil 4 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-232-son Qarori qabul qilindi.

#### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI**

Hududiy turizmni rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish xususida dunyoning yetakchi olimlaridan Mayk Stavenga, R.M.Bolmostor, M.B.Birjakov, V.I.Nikiforov va boshqa ko'plab olimlar o'z ilmiy izlanishlarida atroflicha to'xtalib o'tganlar. Xususan S.G.Surkov va V.I.Krivoruchkoning "Международный туризм в России: проблемы развития и управления" nomli asarida Rossiyada xalqaro turizm bozori rivojlanishining asosiy yo'nalishlari va integratsion jarayonlar, turizm industriyasi subyektlari faoliyati,

xalqaro turizmni tartibga solish mexanizmlari, xalqaro turistik siyosatning maqsadlari, vazifalari va ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilgan[1]

Shuningdek mamlakatimizning yetakchi olimlari M.T.Alimova o'zining "Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari" nomli doktorlik dissertatsiyasida turizm bozorida talab va taklifni muvofiqlashtirish, marketing konsepsiyasi orqali turistik mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish, turizm sohasi rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda hududiy turistik klasterni shakllantirish bo'yicha ilmiy mulohazalar keltirilgan[2] hamda turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari, globallashtirish jarayonlarining turistik faoliyatga ta'siri va turizm destinatsiyasi rivojlanish xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

#### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqot davomida Samarqand regionining turistik imkoniyatlari qiyosiy tahlil etiladi hamda tegishli takliflar keltiriladi. Unda ziyorat, ekologik hamda boshqa turlar ko'rib chiqiladi, turistik-rekreatsion xizmatlarning imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Samarqand viloyatining ziyorat turizmi resurslari va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari o'rganib chiqiladi. Samarqand viloyatida eko-turizm xizmatlaridan olingan daromad dinamikasini o'rganiladi.

#### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Ma'lumki, ziyorat turizmi butun dunyoda turoperatorlik hamda

turagentlik tashkilotlari uchun eng jozibali turizm turlaridan biri hisoblanadi.

Ziyorat turizmi - bu muqaddas qadamjolar, tarixiy-madaniy va tabiiy resurslar bilan bog'liq obyektlarga turistlarning tashriflarini tashkil yetish bilan bog'liq faoliyatdir. Bu jarayonda, turli din va aholi qatlamlari vakillarini nafaqat ziyorat, balki ularni tashrif buyurgan joylarning tarixiy, madaniy va badiiy qadriyatlarini bilan tanishtirish imkoniyatini beradi.

O'zbekistonda ziyorat turizmi sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda hamda busoha rivojlanib borayotganligi sababli islom diniga e'tiqod qiluvchi va musulmon aholiga ega bo'lgan ko'plab davlatlardan musulmon turistlar tashrif buyurmoqda. "Jahonda 1,6 milliarddan ortiq musulmonlar bo'lib, dunyoning deyarli barcha mintaqasida musulmonlar yashaydi. Indoneziya (260 mln.), Malayziya (32 mln.), Pokiston (150 mln.) singari mamlakatlarning fuqarolarini ziyorat turizmi maqsadida Buxoro, Samarqand, Toshkent va Termiz shaharlarida joylashgan muqaddas qadamjolariga jalb etish O'zbekiston uchun ulkan imkoniyatdir. Ushbu shaharlarda joylashgan muqaddas qadamjolar, avliyolar va ulamolarning maqbaralari, qadimiy masjid va madrasalar, muqaddas qo'lyozmalarni ko'rsatish turizm salohiyatini yaxshilashga turtki bo'lishi turgan gap" [7].

Statistik ma'lumotlar bo'yicha, bugungi kunda Samarqand viloyatida 975 ta arxeologiya, 581 ta arxitektura, 36 ta monumental san'at yodgorliklari hamda 34 ta diqqatga sazovor joylar, 20 dan ortiq sanatoriya va dam olish uylari mavjud. Samarqand viloyatidagi

moddiy-manaviy resurslarning asosiy qismi Samarqand shahri, Samarqand va Urgut tumanlarida joylashganligiga Samarqandni aziz, muqaddas avliyolar va buyuk insonlar abadiy qo'nim topgan joy tarzida e'zozlashadi. Xalqimiz din ulamolari, buyuk kishilar, avliyolar qabristonlarini ziyorat etish, o'tganlar ruhini shod etish maqsadida Samarqand shahri va uning tumanlaridagi ziyoratgohlarga tashrif buyurishadi [8].

Turizm sohasini barqaror rivojlantirishning bugungi bosqichida O'zbekiston, jumladan Samarqand viloyatining ziyorat turizmi salohiyatini baholash rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ziyorat turizmining daromadlilikini ta'minlashda uning raqobatbardoshligini oshirish orqali nafaqat mamlakat hududlarida yashovchi, balki mamlakatlardan ham imkon qadar ko'proq ziyoratchi turistlarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir [9].

Ekoturizmning rivojlanishi ekologik maskanlar joylashgan qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Xizmat ko'rsatish sektorining rivojlanishi tadbirkorlik subyektlarini soni va ko'lamini kengayishiga, bu orqali ayollar va yoshlar bandligi hamda daromadlarini oshishiga sabab bo'ladi.

Samarqand viloyati qishloq hududlarida joylashgan tabiiy maskanlardan betartib va haddan ortiq foydalanish, mulk munosabatlarining tartibga solinmaganligi ushbu maskanlarning yemirilishiga olib kelib, ularga uzoq muddatli investitsiyalar kiritish, qayta tiklash va yaxshilash tadbirlarini amalga oshirishga bulgan rag'bat va manfaatlarni shakllantirishga

tusiq bulib kelmoqda. Tadqiqotda tabiiy maskanlarga dam olish va rekreatsiya maqsadlarida tashrif buyuruvchilar uchun tashrifdan oladigan naflarini oshirish maqsadida kichik hududlarda xizmat turlarini kupaytirish, xizmat ko'rsatuvchi subyektlarni kompleks rivojlantirishda klaster usuldan foydalanish imkoniyatlari ochib beriladi.

Ijtimoiy so'rovnoma natijalariga ko'ra ekoturizmga bo'lgan qiziqish yuqori ekanligi hamda Samarqand viloyatida mavjud ekoturistik maskanlarda turizm sharoitlarni yaxshilash ustida ishlar olib borish zarurligi, ekoturizm infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha yirik investitsion loyixalarni amalga oshirishni taqozo etadi [10].

Turizmning, xususan, rekreatsion turizmning iqtisodiyotga ta'sir etish mohiyati, uning xizmatlarga bo'lgan talabining oshishi yuqori multiplikativ samaraga egaligi, uning rivojlanishi butun xizmatlar sohasining kengayishiga olib kelishidan iborat bo'ladi. Rekreatsion xizmatlar faoliyati va turizm xizmatlarining o'zaro aloqadorligi, ularning bir butun yoki bir qismi sifatida muttanosibligida namoyon bo'ladi. Bu o'z navbatida, yuqorida ta'kidlanganidek, rekreatsion xizmatlar faoliyati o'z ichiga sanatoriy-kurort xizmatlarni ham qamrab oladi.

Xozirgi paytda turistik-rekreatsion xizmatlarning rivojlanishda Samarqand viloyati O'zbekistonning eng istiqbolli hududlaridan biri hisoblanadi va bu quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- O'zbekistonning barcha turistik resurslarining 37,7 foizi Samarqand viloyatida joylashgan;
- Samarqand viloyatiga yuqori

to'lov salohiyatiga ega yaqin hududlarning mavjudligi;

- qulay tabiiy-iqlimiy resurslar;
- hayvonot va o'simliklar dunyosining boyligi va turli xilligi;
- tarixiy-madaniy meros obidalarining salmoqli miqdori;
- muzeylar, dekorativ-amaliy san'at me'rosleri va xalq hunarmandchiligi korxonalarining borligi;
- zamonaviy xalqaro aeroport va temir yo'l vokzalining mavjudligi;
- turli darajadagi xalqaro musobaqalarini o'tkazish imkoniyatini beruvchi zamonaviy sport muassasalarining borligi;
- turizm va dam olishning moddiy bazasini rivojlantirishga investitsiyalarni jalb qilish uchun yuqori investison reytingga egaligi;
- turizm sohasidagi ta'lim va ilmiy muassasalarning mavjudligi.

O'zbekiston Respublikasi aholisiga turizm va sayoxat sohasida ko'rsatilgan jami xizmatlar xajmidagi Samarqand viloyatining ulushi 2022 yilda 27% ni tashkil qilib, boshqa viloyatlar qatorida Toshkent shahridan keyin ikkinchi o'rinni egallab turibdi.

#### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytganda jahonda so'nggi yillardagi iqtisodiy va siyosiy sohadagi o'zgarishlar iqtisodiyot tarmoqlarining xo'jalik faoliyatida, shuningdek ulardagi boshqaruv tizimining ham tuzilmaviy o'zgarishini taqozo etmokda. Davlat tomonidan hududlarda turizm sohasini yaxlit rivojlan-tirishga ta'sir ko'rsatishsiyosati hududlarda muhim ahamiyatga ega. Turizmga strategik maqomining berilishi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlanishidagi islohotlar va turizmga bo'lgan e'tiborning ortishi mazkur sohada tadqiqotlarning kengayishiga olib keldi. O'zbekiston Respublikasida 2025 yilgacha bo'lgan davrda turizm sohasini rivojlantirish Konsesiyasiga ko'ra, turizm sohasida davlat siyosatining asosiy maqsadi hududiy turizmni barqaror rivojlantirish asosida turizm xizmatlar bozorini barqaror rivojlanishiga erishishni ta'minlashga qaratildi.

Bizning fikrimizcha, hududiy turizmni rivojlantirishda iqtisodiy samaradorlikni oshirishning obyektiv zaruriyati va ahamiyati sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining ijtimoiy, iqtisodiy hayotdagi mavqei va rolini har

tomonlarga oshirishni ta'minlash;

- O'zbekistonda hududiy turizmni rivojlantirishda mazkur xizmat turlari doirasida turistlar oqimini jalb qilishga muhim masala sifatida qarash;

- O'zbekistonda turizm bozorini rivojlantirishning bugungi bosqichida davlat tashkilotlarining asosiy vazifasi xorijiy turistlar bilan bir qatorda mahalliy turistlarini ichki bozorga yo'naltirish;

- hududiy turistik resurslarni rivojlantirish, turistik-rekreatsion salohiyatidan samarali foydalanish;

- sohada erkin raqobatni rag'batlantirish maqsadida bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon tug'diruvchi huquqiy asos va ijtimoiy-iqtisodiy muhitni ta'minlash;

- turistik xizmatlar bozorida raqobatni himoya qilish.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Surkov S.G. *Rossiyada xalqaro turizm: rivojlanish va boshqarish muammolari* / S.G. Surkov, V.I. Krivoruchko. – M.: Sovet sporti, 2019. – 214 b.

2. Alimova M.T. *Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida)* // I.f.d. diss. – Samarqand: SamISI, 2017. 25-26-b.

3. Tuxliev I.S., Hayitboev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. *Turizm asoslari. Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi*. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 151-b.

4. M.T. Alieva. *Mehmonxona menedjmenti. Darslik*. – T.: 2007. -335s.

5. Amonboyev M., Abidova D.I., Jurayeva N.A. *Turizm iqtisodiyoti va menejmenti. O., quv qo., llanma*. – T.: “IQTISODIYOT”, 2019. - 226 bet.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2021 yil 22 apreldagi Hududlarda xizmat ko'rsatish sohasi yo'nalishlarini rivojlantirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi.

7. Xudoyarov A. *O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlari: Monografiya / Toshkent: OOO “Complex Print”, 2021. -304 b.*

8. Jiyonov O.P., Xudoynazarov Yu.R. “O'zbekiston-ziyosat turizm markazlaridan biri”. *Buyuk ipak yo'li chorraxasida ziyorat turizmining renessansi (ilmiy maqolalar to'plami)*. S.: 2019 y. -192 s.

9. Ibadullaev N.E. *Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda turizm resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari. Servis jurnali. 2019 yil №3. 71-75 b.*



<https://doi.org/10.59251/2181-3973.2023.v3.138.3.2550>

## O'ZBEKISTONDA TURISM SOHASINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

*N.Sh. Mansurova*

*“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti  
Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i PhD.*

*Annotatsiya* Maskur maqolada O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanish holati, mamlakatga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni, ularning maqsadlari, hukumat tomonidan sohaga doir olib borilayotgan siyosat hamda turistik infratuzilma rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** turizm, turistik infratuzilma, tashrif buyurgan turistlar soni, turoperator va turagentliklar, gid va tarjimonlar, ekskursovodlar.

*Annotatsiya* В данной статье рассматривается состояние развития туризма в Узбекистане, количество туристов, посещающих страну, их цели, государственная политика в этой области, а также проанализированы основные показатели развития туристской инфраструктуры.

**Ключевые слова:** туризм, туристическая инфраструктура, количество посещенных туристов, тuroператоры и турагентства, гиды и переводчики, экскурсоводы.

**Annotation.** This article the state of tourism development in Uzbekistan, the number of tourists visiting the country, their goals, the government’s policy in the tourism sector, and also the main indicators of the development of tourism infrastructure were analyzed.

**Keywords:** tourism, tourism infrastructure, number of tourists visited, tour operators and travel agencies, guides and translators, tour guides.

### **Kirish**

Jahon turizm tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning 1-choragida xalqaro turistlar soni 2023-yilning 2-choragida pandemiyadan oldingi darajaning 85 foizini va 2023-yilning iyulida 90 foizini tashkil etdi. Taxminan 700 million sayyoh 2023-yilning yanvar-iyul oylari orasida xalqaro miqyosda sayohat qilgan, bu 2022-yilning shu oylariga nisbatan qariyb 43 foizga ko‘p, ammo 2019-yilga nisbatan 16 foizga kam. [<https://www.unwto.org/unwto-world-tourism-barometer-data>].

Butunjahon turizm va sayohatlar kengashi (The World Travel & Tourism Council) tomonidan taqdim etilgan statistik ma’lumotlarda qayd

etilganidek, COVID-19 pandemiyasi 2019-yilda 334 milliondan ortiq kishini ish bilan ta’minlagan turizm sohasida bandlik darajasining pasayishiga olib keldi. Yopiq chegaralar va boshqa cheklovlar tufayli 2020-yilda turizm 70 milliondan ortiq ish o‘rinlarini yuqotdi va 2020-yilda turizm sohasida band bo‘lganlarning umumiy soni 264 millionni tashkil qildi. Turizm sohasining qayta jonlanishi natijasida bu ko‘rsatkich 2022-yilda butun dunyo bo‘ylab 295 milliondan ortiq kishiga etdi. Shunday qilib, o‘tgan yili turizm va sayohat sektori dunyoda har 11ta ish o‘rinlaridan bittasini qo‘llab-quvvatladi. [<https://www.atorus.ru/node/52405>].

Turizm sohasi jahon iqtisodiyotidagi yuqori daromadli va



aholining bandligini ta'minlab berishda peshqadamlilik qilayotganini inobatga olib, mamlakatimizda xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan infratuzilmani hamda maqbul va qulay turizm muhitini yaratish, transport logistikasini rivojlantirish, ichki va tashqi yo'nalishlarni kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish, turizm bozorining turli segmentlariga yo'naltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Turizm sohasini tezkor rivojlanishini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2016-yil 2-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4861-sonli Farmoni soha rivojlanishini yangi bosqichga ko'tardi [1].

Ushbu Farmonga binoan mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, turizm tarmog'ini boshqarishni tubdan takomillashtirish, milliy turizm mahsulotlarini yaratish va ularni jahon bozorlarida targ'ibot qilish, turizm sohasida O'zbekistonning ijobiy qiyofasini shakllantirish maqsadida bir qator vazifalar va ularni amalga oshirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi. Shundan kelib chiqqan holda, mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning

boshqa salohiyatli turlarini rivojlantirish mamlakat oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.**

Jahon hamda mahalliy tadqiqotlarda olimlar tomonidan turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Bu borada, xorijlik yetakchi olimlardan Rob Davidson [2], Nigel Evans [3], Scott McCabe, Xavier Font [4], Krzysztof Cieslikowski [5], V.I.Azar [6], A.Yu.Aleksandrova [7], V.S.Bogolyubov [8], M.B.Birjakov [9], I.T.Balabanov [10], V.A.Kvartalnov [11] singari olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu olimlarning tadqiqotlarida turizm sohasini rivojlantirishning nazariy jihatlarini, tamoyillari, hamda turizm infratuzilmasini takomillashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilgan.

O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishga hissa qo'shgan olimlardan Xalqaro Islom akademiyasi dotsenti B.B.Valliyev mamlakatimizda turizmni rivojlantirish maqsadida turizm brendlari asosida raqobatbardosh milliy turistik mahsulotni yaratish va jahon turizm xizmatlari bozoriga olib chiqishda integratsiyalashgan marketing konsepsiyasining ishlab chiqilishi kerakligini ta'kidlaydi [12].

N. Xaydarovning fikriga ko'ra, mamlakatda turizmni rivojlantirish uchun ta'lim sohasiga xorijlik talabalarni qabul qilishni keskin ko'paytirish kerak. Ular kamida 4 yil o'qish davrida turistlar kabi hayot kechiradi. Ularni o'qish davrida ota-onalari va yaqin do'stlari ko'rib ketish uchun kelib-ketish imkoniyati juda kattaligini ta'kidlaydi [13].

Ko'rib o'tilgan mutaxassislarining fikriga ko'ra, turizm sohasini

rivojlantirish mamlakatning barcha sektorlarining rivojlanishiga bevosita ta'siri yuqori ekanligi asoslab berilgan. Hozirgi kunda mamlakatimiz turizm salohiyatini rivojlangan davlatlar foydalanayotgan tajribalar asosida mavjud bo'lgan turistik salohiyatdan foydalanish orqali dunyoga namoyon qilishi zarur hisoblanadi.

#### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu ilmiy maqolada O'zbekistonda turizm sohasini rivojlanish istiqbollari tahlil qilindi. Turizm bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanib, nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish, qiyosiy tahlil, sintez kabi usullardan samarali foydalanildi.

#### **Tahlil va natijalar.**

O'zbekiston o'zining boy madaniy merosi va noyob tarixiy, diqqatga sazovor joylarini ochib berishga intilib, turizm sohasini jadal rivojlantirmoqda. Mamlakatda infratuzilmani rivojlantirishga, turizm sohasida xizmat ko'rsatishni yaxshilashga, sayyohlar uchun sharoit yaratishga sarmoya kiritilmoqda. Shu bilan birga, bu tizimni faol rivojlantirish uchun sohani diversifikatsiya qilishga intilmoqda.

Jumladan, Prezidentimiz tomonidan bosqichma-bosqich kompleks chora-tadbirlar xususan, qarorlar, farmonlar va davlat dasturlari qabul qilinmoqda. So'nggi yillarda turizm sohasini rivojlantirish, turistlarga yetarli sharoitlar yaratish, turizm infratuzilmasini shakllantirish hamda turistlarning xavfsizligini ta'minlash borasida belgilangan chora-tadbirlar huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlanib, turizmni rivojlantirishning yaxlit konsepsiyasi shakllantirildi hamda

turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomi berildi. Turizm sohasini tezkor rivojlanishini ta'minlash maqsadida 2016-yildan keyin boshqaruv strukturasi ham ko'plab o'zgarishlar vujudga kelmoqda.

2016-yil 2-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4861-sonli Farmoni asosida "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi negizida O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil etildi [14]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 06-apreldagi "Turizm, sport va madaniy meros sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6199-sonli Farmoni bilan Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi negizida Turizm va sport vazirligi tashkil etildi [15]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-fevraldagi "Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-135-sonli Qarori bilan Turizm va madaniy meros vazirligiga o'zgartirildi [16] va 2022-yilning oxirigacha shu vazirlik o'zini faoliyatini olib bordi. 2023-yilning yanvar oyidan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-sonli Farmoni bilan Madaniyat va turizm vazirligiga o'zgartirildi [17]. 2023-yil 7-iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil

qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-114-sonli Farmoni bilan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzurida Turizm qo‘mitasi tashkil etildi [18], 1-jadval.

1-jadval.

**Respublikada turizm sohasidagi boshqaruv tashkilotlarning yillar kesimidagi o‘zgarishi**

<i>Yillar</i>	<i>Boshqaruv tashkilotlarning nomi</i>
<i>1992-2016</i>	<i>“O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi</i>
<i>2016-2021</i>	<i>O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi</i>
<i>2021-2022</i>	<i>Turizm va sport vazirligi</i>
<i>2022-2023</i>	<i>Turizm va madaniy meros vazirligi</i>
<i>2023 (yanvar-iyul)</i> <i>2023 (iyul)</i>	<i>Madaniyat va turizm vazirligi</i> <i>Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzurida Turizm qo‘mitasi</i>

Turizm sohasida qabul qilinayotgan qarorlar, farmonlar va davlat dasturlari turizm salohiyatidan to‘liq va samarali foydalanish, turizm infratuzilmasidagi muammolarni tezkor hal etish, shuningdek, mavjud resurslar

va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish imkonini bermoqda.

2016-2023-yillar oralig‘ida turizm sohasini rivojlantirish uchun jami 63 ta normativ huquqiy hujjatlari qabul qilindi.


2-jadval.

**2016-2023-yillar oralig‘ida turizm sohasini rivojlantirish uchun qabul qilingan normativ huquqiy hujjatlari ro‘yxati**

<i>№</i>	<i>Qonun hujjatlari nomi</i>	<i>Soni</i>
<i>1</i>	<i>Qonun</i>	<i>1</i>
<i>2</i>	<i>Prezident Qarori</i>	<i>19</i>
<i>2</i>	<i>Prezident Farmoni</i>	<i>16</i>
<i>4</i>	<i>Vazirlar Mahkamasining Qarorlari</i>	<i>27</i>
	<b><i>Jami:</i></b>	<b><i>63</i></b>

Hukumat tomonidan bu sohani rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2022-yil yanvar-dekabr oylarida O‘zbekistonga kelgan xorijlik fuqarolar soni jami 5 232,8 ming nafarni tashkil etgan. 2021-yilga nisbatan ularning soni 2,8 barobarga oshgan.


2022-yilda O‘zbekiston Respublikasiga MDH davlatlaridan 4 968,1 ming kishi tashrif buyurib, bu jami kelganlarning 94,9 foizini tashkil etdi, boshqa davlatlardan –264,7 ming kishi (5,1 %) tashrif buyurgan.



**1-rasm. O‘zbekiston Respublikasiga 2022-yilda tashrif buyurgan xorijiy sayyohlarning ulushi (ming kishi).**

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida O‘zbekistonga kelgan chet el fuqarolari safar maqsadini o‘qish uchun deb belgilaganlar soni – 8,8 ming kishiga (jami kelganlarning 0,2 % i) teng, tijorat maqsadida kelganlar – 20,4 ming kishi (0,4 %), davolanish uchun – 70,0 ming

kishi (1,3 %), xizmat safari uchun – 83,8 ming kishi (1,6 %), bo‘sh vaqt va dam olish uchun – 392,2 ming kishiga (7,5 %) hamda eng ko‘p sayohatlarning maqsadlariga esa qarindoshlarni yo‘qlash deb belgilanganlari – 4 657,6 ming kishiga (89,0 %) teng bo‘lgan.



**2-rasm. 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida O‘zbekistonga kelgan chet el fuqarolarining safar maqsadlari bo‘yicha taqsimlanishi (ming kishi).**

Tegishli davrning o‘tgan 2021-yilga nisbatan o‘qish maqsadidagi safarlar – 37,5 foizga, xizmat safarlari – 38,1 foizga, tijorat maqsadidagi safarlar – 48,9 foizga oshgan. Davolanish uchun amalga oshirilgan safarlar 2,2 baravarga,

bo‘sh vaqtini o‘tkazish va dam olish uchun 2,5 baravarga va qarindoshlarni yo‘qlash uchun 2,9 barobarga oshgan.

Xorijiy fuqarolarning respublikamizga eng ko‘p oqimi quyidagi davlatlardan qayd etildi (3-jadval).

**3-jadval.**

**O‘zbekiston Respublikasiga xorij davlatlaridan kelgan chet el fuqarolari (2022-yil yanvar-dekabr, ming kishi)**

Davlatlar	Tashrif buyurgan xorijiy fuqarolar soni (ming kishi)
Qozog‘iston	1 551,1
Tojikiston	1 448,0
Qirg‘iziston	1 356,9

Rossiya	567,6
Turkiya	75,5
Janubiy Koreya	20,0
Germaniya	17,7
Hindiston	16,8
Belarus Respublikasi	13,7
AQSh	13,2
Isroil	11,3
Ukraina	11,1
Fransiya	10,9
Buyuk Britaniya	10,4
<b>Boshqa mamlakatlar</b>	<b>108,6</b>

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida O‘zbekiston Respublikasiga kelgan erkaklar soni – 2 585,8 ming kishidan iborat bo‘lib, bu kelgan barcha xorijiy fuqarolar umumiy sonining 49,4 foizini tashkil etadi. 2021-yilga nisbatan ularning soni – 2,7 barobarga oshgan. 2022-yil davomida kelgan erkaklarning eng katta qismi to‘rtinchi chorakka to‘g‘ri kelgan – 837,5 ming kishi, bu ularning umumiy sonining 32,4 foizini tashkil etgan.

2022-yilda yurtimizga tashrif buyurgan ayollarning umumiy soni 2 647,0 ming kishidan iborat bo‘lgan va kelgan barcha turistlarning umumiy

sonining 50,6 foizini tashkil etdi. 2021-yilga nisbatan ularning soni 2,9 barobarga oshdi. 2022-yil davomida kelgan ayollarning eng katta qismi uchinchi chorakka to‘g‘ri kelgan – 884,8 ming kishi, bu ularning umumiy sonining 33,4 foizini tashkil etdi [19].

Turistik infratuzilmaning asosiy ishtirokchilar soning yillar kesimida rivojlanish darajasini baholash ushun quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar: turoperator va turagentliklar soni, gid va tarjimonlar soni, ekskursovodlar sonini tahlil qilishni lozim deb topdik (2-jadval), [20].

**2-jadval.**

**Turistik infratuzilma rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari**

Ko‘rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2022-yilning 2019-yilga nisbatan o‘zgarishi	2022-yilning 2021-yilga nisbatan o‘zgarishi
<b>Turoperator va turagentliklar soni</b>	517	337	280	348	0,67	124,2
<b>Gid va tarjimonlar soni</b>	238	141	129	180	0,75	139,5
<b>Ekskursovodlar</b>	181	96	66	91	0,50	137,8

Yuqoridagi ma’lumotlarni tahlil qilish natijasida, 2022-yilni 2021-yil bilan solishtirganda turoperator va turagentliklar soni – 24,2 foizga, gid va tarjimonlar soni – 39,5 foizga,

ekskursovodlar soni – 37,8 foizga oshganligini, lekin bu ko‘rsatkichlarni 2019-yil bilan solishtirganda turoperator va turagentliklar soni – 33 foizga, gid va tarjimonlar soni – 25 foizga,

ekskursovodlar soni – 50 foizga kam ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Bu ko‘rsatkichlarni oshirish maqsadida, O‘zbekiston oxirgi uch yil ichida ko‘plab xalqaro tadbirlarga mezbonlik qilmoqda. Bunday katta tarixiy tadbirlardan biri, 16-20-oktabr kunlari Samarqandda bo‘lib o‘tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Butunjahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) Bosh Assambleyasining 25-yubiley sessiyasidir. Bu tadbirda 160 ga yaqin davlatlardan turizm yo‘nalishida faoliyat yurituvchi davlat idoralari rahbarlari, xalqaro tashkilotlar va turistik biznes vakillari ishtirok etishdi. (Saudiya Arabistoni, Albaniya, Ozarbayjon, Bagama, Baxrayn, Gvatemala, Gaiti, Kot-d’Ivuar, Indoneziya, Monako, Niger, Panama, Portugaliya, Siyerra-Leone, Ukraina, Urugvay, Yaman kabi mamlakatlar).

Qayd etish joizki, O‘zbekiston keyingi 2023-2027-yillar uchun UNWTO Ijroiya kengashining Vakolatlar bo‘yicha qo‘mitasi a‘zoligiga qabul qilindi. Bu UNWTO Ijroiya kengashi tomonidan qabul qilinadigan muhim qaror va hujjatlar, ularda a‘zo davlatlar ishtirokining haqqoniyliги va tamoyillarga mosligini nazorat qilish vakolati O‘zbekistonga ishonib topshirilganligini bildiradi. Bosh Assambleyaning O‘zbekistonda o‘tkazilishi mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik ko‘lamini yanada kengaytirish, madaniy va turizm salohiyatini targ‘ib qilishda yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Jumladan, UNWTO doirasida tashkillashtirilishi rejalashtirilayotgan Investitsiya forumi O‘zbekistonning barcha hududlaridagi investitsiyaviy salohiyati yuqori bo‘lgan

obyektlar, hududlar, loyihalar yirik xorijiy investorlarga taqdim etilishi, yurtimizga faol maqsadli va manzilli investitsiyalar jalb etilishi bo‘yicha ko‘plab muhim biznes kelishuvlariga erishilishi ko‘zda tutilmoqda. Forum turizm sektoridagi imkoniyatlarni o‘rganish uchun global manfaatdor tomonlarni, sanoat rahbarlarini va investorlarni birlashtirib mamlakatimizda yaratilgan qulay investitsion muhit hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning mustahkam huquqiy asoslarini namoyish etish, shuningdek ishtirokchilar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratildi. [<https://gov.uz/news/view/254>]

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov bu sessiyada nutq so‘zlar ekan mamlakat ishtirokchi investorlarga 3 milliard dollar qiymatdagi loyihalar taklif qilishini aytdi.

Sayyohlik sektorini rivojlantirish uchun ko‘plab yengilliklar berdik. Masalan, QQS 20 foizdan 12 foizgacha tushirildi, QQSni 7 kun ichida qaytarish imkoni berildi. Bojxona xizmatida ham yengillashtirilgan tartiblar joriy qilindi. Xizmatlar sifatini oshirish maqsadida innovatsion startaplarni qo‘llash va soha uchun kadrlar tayyorlash uchun ta‘limga e‘tiborni oshirdik. Bu forumda investorlarga umumiy qiymati 3 milliard dollardan ortiq bo‘lgan loyihalar taklif etiladi, dedi Abduhakimov.

[[https://kun.uz/uz/news/2023/10/18/sayohlik-ortidan-milliardlar-samarqandda-butunjahon-turizm-tashkilotining-yubiley-sessiyasi-otkazilmoqda.](https://kun.uz/uz/news/2023/10/18/sayohlik-ortidan-milliardlar-samarqandda-butunjahon-turizm-tashkilotining-yubiley-sessiyasi-otkazilmoqda)]

Shu bilan birga, Bosh Assambleya doirasida “Ipak yo‘li” turizm va madaniy

meros xalqaro universiteti hamkorligida o'tkazilgan "Ta'lim forumi" turizm sohasidagi ta'limning bugungi kundagi holatini namoyon etish, malaka oshirish va barcha uchun inklyuziv imkoniyatlar yaratishga sarmoya kiritish naqadar muhim ekanini namoyon qildi.

Suningdek, turizm sohasidagi kadrlar salohiyatini yanada oshirish, ularni jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish maqsadida 2023-yil 20-oktabr kuni Samarqand shahridagi UNWTO bilan hamkorlikda "Turizm akademiyasi" ochildi. Bosh kotib Zurab Pololikashvili Samarqand shahridagi yangi Turizm akademiyasining ochilish marosimiga tashrif buyurdi. Akademiya ushbu sohaga yangi kelgan talabalarni, shuningdek, turizm sohasida ishlayotgan talabalarni o'qitadi va ularga karyerasini oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni beradi. [<https://www.unwto.org/news/opportunity-for-all-samarkand-academy-adds-to-growing-unwto-education-network>].

2023-yilning 23-noyabr kuni Urumchi shahrida bo'lib o'tgan "Shanxay Hamkorlik Tashkilotining 2023 – turizm yili" Forumi doirasida Turizm qo'mitasi raisi Umid Shadiyev va ShHT Bosh kotibi Chjan Min o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda tomonlar ShHTda turizm sohasidagi hamkorlikni kengaytirish, tashkilotga a'zo davlatlardan yetakchi media va sayyohlik blogerlari pullini shakllantirish va ular ishtirokida 2024-yil davomida ShHT makonidagi eng yaxshi sayyohlik yo'nalishlariga info-

turlar tashkil etish masalalari ko'rib chiqildi.

ShHT Bosh kotibi Chjan Min Samarqandda bo'lib o'tgan UNWTO Bosh Assambleyasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "BMT doirasidagi xavfsiz turizmning global kodeksi", Yashil turizmni rivojlantirish bo'yicha xalqaro harakatlar dasturi, 2025-yilni "Jahon inklyuziv turizm yili" deb e'lon qilish bo'yicha maxsus deklaratsiyasi kabi tashabbuslar umumjahon ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlab, ShHT ushbu hujjatlarga hammualliflik qilishga tayyor ekanligini bildirdi.

Shuningdek, uchrashuv yakunida O'zbekistonda ish boshlagan UNWTO Xalqaro turizm akademiyasi va "Ipak yo'lida turizm" tematik ofisi bilan ShHT o'rtasida qo'shma loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi. [<https://uzbektourism.uz/news/view?id=2997>].

2023-yilda O'zbekiston turizm sohasi uchun yana bir tarixiy voqea va o'zbek diplomatiyasining g'alabasi bo'ldi. Parijda bo'lib o'tgan UNESCO Bosh assambleyasida navbatdagi 43-sessiyani 2025-yilda Samarqandda o'tkazish rasman ma'qullandi. Bosh Assambleyaning sessiyasi oxirgi marta Parijdan tashqari 1985-yilda (Sofiya sh., Bolgariya) bo'lib o'tgan.

Mamlakatimiz turizm salohiyatini Jahon bozorlarida keng ko'lamda targ'ib qilish maqsadida 2024-yilda quyidagi xalqaro turizm ko'rgazmalarini tashkil etishini rejalashtirdi:

### 3-jadval.

**O'zbekistonda 2024-yilda xalqaro turizm tadbirlarining tashkil etish rejasi** [[https://t.me/sam\\_turizm](https://t.me/sam_turizm)]



№	Tadbirlar nomi	O‘tkazilish sanasi
1	“World Travel Market-2024”	yanvar
2	“FITUR” Ispaniya	24-28-yanvar
3	“EMIT” Turkiya	6-9-fevral
4	“ITB Berlin” Germaniya	5-7-mart
5	“MITT” Rossiya	19-21-mart
6	“AITF” ozarbayjon	3-5-aprel
7	ATM” BAA	6-9-may
8	“SITF” Koreya	9-12-may
9	“ITB China” Xitoy	27-29-may
10	“MATTA Fair” Malayziya	sentabr
11	“Отдых Leisure” Rossiya	sentabr
12	“Tourism Expo Japan” Yaponiya	oktabr
13	“ITB Asia” Singapur	oktabr
14	“IFTM Top Resa” Fransiya	oktabr
15	“TTG Rimini” Italiya	9-11-oktabr
16	“WTM” Buyuk Britaniya	noyabr
17	“Halal Indonesia Expo” Indoneziya	dekabr

Turizmni rivojlantirishning jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, mazkur industriyani yuqori daromadli sohaga aylantirish uchun davlat va xususiy sektordagi barcha ishtirokchilarning sa’y-harakatlarini birlashtirish va mustahkamlash zarur. Bunda, hukumatning roli – xalqaro, hukumat va xususiy sektor darajalarida turizm sohasidagi rivojlanish siyosatini muvofiqlashtirish va rejalashtirishni ta’minlashdan iborat.

Shu nuqtai nazardan, 2022-yilning 26-aprel kuni Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida turizm xizmatlari ko‘lamini kengaytirish va infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida turizm industriyasini rivojlantirish, sohadagi, xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va nufuzini yaxshilashga qaratilgan masalalarga alohida urg‘u berildi.

Mamlakatning har bir hududida turizmni rivojlantirish bo‘yicha yirik loyihalar amalga oshirib kelinmoqda. Bunga, Namangandagi “Afsonalar vodiysi”, Bo‘stonliqdagi “Amirsoy” majmualari yaqqol misol bo‘la oladi. Prezident yig‘ilish davomida “O‘zbekiston turizm magistrali” bo‘ylab, 31 ta tuman va shahar hududidan o‘tuvchi yo‘llar bo‘yida avtoturargoh, kemping, avtoservis, ovqatlanish, yoqilg‘i quyish kabi xizmatlarni qamrab olgan “Karvonsaroy”lar barpo etish taklifini ham berdi. Albatta, bu takliflarning amalga oshirilishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, aholi bandligining ta’minlanishi hamda turmush farovonligining oshishiga, shuningdek mamlakat iqtisodiyotida turizm industriyasi ulushining sezilarli ravishda ortishiga, sayyohlar oqimining ko‘payishiga xizmat qiladi. Ichki turizmni rivojlantirish hamda tadbirkorlarga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida qator imkoniyatlarning belgilab berilishini

ta'kidlab o'tdilar. [https://dunyo.info/cyrl/site/inner/ichki\_va\_ziyorat\_turizmni\_rivozhlantirish\_im\_koniyatlari\_kengaymoqda-bYY].

### **Xulosa va takliflar.**

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagicha xulosa qilish mumkin:

Birinchidan, O'zbekistondagi turizm sohasini tahlil qilish natijasida so'nggi yillarda bu sohani rivojlantirish, turizm infratuzilmasini takomillashtirish va diversifikatsiya qilish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlanib turizm salohiyatidan to'liq va samarali foydalanish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratib berayotganligi aniqlandi.

Ikkinchidan, 2016-2023-yillar oralig'ida turizm sohasini rivojlantirish uchun qabul qilingan jami normativ huquqiy hujjatlar soni 63 tani tashkil etayotgani bu sohaga berilayotgan e'tiborning yoqori ekanligidan dalolat beradi.

Uchinchidan, Hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar natijasida O'zbekistonga kelgan xorijlik fuqarolar soni jami 5 232,8 ming nafarni tashkil etganligi, bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan 2,8 barobarga oshganligini ko'rsatmoqda.

To'rtinchidan, Mamlakatimiz 16-20-oktabr kunlari Samarqandda Butunjahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) Bosh Assambleyasining 25-yubiley sessiyasiga mezbonlik qilganligi va UNESCO Bosh assambleyasida navbatdagi 43-sessiyani 2025-yilda Samarqandda o'tkazilishi, O'zbekiston haqiqatdan ham dunyo turizm davlatlari orasida o'z o'rnini topganligidan dalolat bermoqda.

Beshinchidan, 2023-yil 20-oktabr kuni Samarqand shahridagi UNWTO bilan hamkorlikda "Turizm akademiyasi"ning ochilishi, bu sohada faoliyat olib boruvchi kadrlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga imkoniyat yaratib beradi.

Oltinchidan, O'zbekiston hududlarida yirik loyihalarni amalga oshirib kelinishi, bu sohadagi yangi ish o'rinlarining yaratilishiga, aholi bandligining oshishiga, mamlakat iqtisodiyotida turizm industriyasi ulushining sezilarli ravishda ortishiga va sayyohlar oqimining ko'payishiga xizmat qilmoqda.

Alohida ta'kidlash joyizki, turizm sohasini rivojlantirish uchun olib borilayotgan islohotlar nafaqat tashqi turizmni balki ichki turizmni rivojlantirishga poydevor yaratmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4861-sonli Farmoni.*
2. *Rob Davidson. Business events 2<sup>nd</sup> edition. England.: Routledge, 2018. – 486 page.*
3. *Nigel Evans. Strategic Management for Tourism, Hospitality and Events. Routledge; 3rd edition (August 20, 2019). – 814 pages.*
4. *Scott McCabe., Xavier Font. Marketing for Sustainable Tourism. Routledge; 1st edition (December 13, 2019). – 208 pages.*

5. Krzysztof Cieslikowski. *Business tourism as innovative product for destinations. Innovative (Eco-) Technology, Entrepreneurship and Regional Development. Conference proceedings, 2015. ISBN 978-9955-27-479-7 (online).*
6. Азар В.И. *Экономика и организация туризма.* - М.: Экономика, 2003. – 322 с.
7. Александрова А.Ю. *Международный туризм.* - М.: Аспект Пресс, 2002. – 346 с.
8. Боголюбов В.С. *Экономика туризма: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений.* - М.: «Академия», 2005. – 192 с.
9. Биржаков М.Б. *Введение в туризм: изд. 9-е, перераб. и доп.* СПб.: Издательский дом «Герда», 2007. – 576 с.
10. Балабанов И.Т. *Экономика туризма: учебное пособие.* – М.: Финансы и статистика, 2003. - 176 с.
11. Квартальнов В.А. *Энциклопедия туризма: справочник* – М.: Финансы и статистика, 2000. – 368 с.
12. Valliyev B.B., “O‘zbekistonda turizmning zamonaviy yo‘nalishlarini rivojlantirish xususiyatlari” // *Builder of the future.* 2022. – 202-208 b.
13. Xaydarov N., “Turizmni rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasi” // *Ochiq iqtisodiyot: sog‘lom raqobat, biznes va investitsion muhit jozibadorligi. Xalqaro amaliy anjuman. TDIUH.* 2023.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4861-sonli Farmoni.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 06-aprelda “Turizm, sport va madaniy meros sohaslarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6199-sonli Farmoni.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-fevralda “Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-135-sonli Qarori.
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda “Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-269-sonli Farmoni.

#### **Foydalanilgan Internet saytlari.**

1. <https://www.unwto.org/unwto-world-tourism-barometer-data>.
2. <https://www.atorus.ru/node/52405>.
3. <https://gov.uz/news/view/2541/>
4. <https://kun.uz/uz/news/2023/10/18/sayohlik-ortidan-milliardlar-samarqandda-butunjahon-turizm-tashkilotining-yubiley-sessiyasi-otkazilmoqda>.
5. <https://www.unwto.org/news/opportunity-for-all-samarkand-academy-adds-to-growing-unwto-education-network>
6. <https://uzbektourism.uz/news/view?id=2997>
7. [https://t.me/sam\\_turizm](https://t.me/sam_turizm)
8. [https://dunyo.info/cyrl/site/inner/ichki\\_va\\_ziyorat\\_turizmni\\_rivozhlantirish\\_imkoniyatlari\\_kengaymoqda-bYY](https://dunyo.info/cyrl/site/inner/ichki_va_ziyorat_turizmni_rivozhlantirish_imkoniyatlari_kengaymoqda-bYY)

<https://doi.org/10.59251/2181-3973.2023.v3.138.3.2551>

## OLIJ TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA XORIJ TAJRIBASINING TUTGAN O'RNI

**Kuldashev Sherzod Alimardonovich**

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

*Tel: +998 88 287 69 96.*

*El.manzil: [sherzod\\_kuldashev1988@mail.ru](mailto:sherzod_kuldashev1988@mail.ru)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishning xorij tajribasini o'rganish, oliy ta'lim tizimida faoliyat jarayonining sifatini oshirishni tahlil etish, tashqi va ichki mehnat bozorida raqobatga bardosh beradigan mutaxassislarni tayyorlash va xorij tajribasini o'rgangan holda mehnat unimdorligini oshirish.*

**Kalit so'zlar:** *Oliy ta'lim muassasalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, xizmat ko'rsatish sohasi, iqtisodiy sektor, model.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается зарубежный опыт повышения конкурентоспособности высших учебных заведений, анализируется повышение качества процесса деятельности в системе высшего образования, подготавливаются специалисты, способных выдерживать конкуренцию на внешнем и внутреннем рынке труда, а также повышается производительность труда за счет изучения зарубежного опыта.*

**Ключевые слова:** *Высшие учебные заведения, опыт развитых стран, сфера услуг, сектор экономики, модель.*

**Abstract:** *This article examines the foreign experience of increasing the competitiveness of higher education institutions, analyzes the improvement of the quality of the activity process in the higher education system, prepares specialists who can withstand competition in the external and internal labor market, and increases labor productivity by studying foreign experience.*

**Keywords:** *Higher education institutions, experience of developed countries, service sector, economic sector, model.*

**Kirish.** Mamlakatimiz taraqqiyotining pirovard maqsadi, inson huquq va manfaatlarini ta'minlash, xalqimiz uchun munosib turmush sharoitini yaratib berish, aholining farovonligi, yashash darajasi va sifatini o'nglash, ularni bugungi kunda baxtliligini ta'minlagan holda hayotidan rozi bo'lib yashashini taminlashdan iboratdir. Mamlakatimizda amalga oshirilib kelinayotgan keng ko'lamli islohatlarning asosiy maqsadi ham aynan shularga qaratilgan. Sohadagi barcha yo'tuq va kamchiliklarimiz sarhisob

qilinib, ta'lim sohasi yangi pog'anaga ko'tarilishi borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan mamlakatni rivojlantirishning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida va bir qancha farmon hamda qarorlarda mazkur soha tubdan takomillashtirilgan holda davom ettirilmoqda.

Hozirgi vaqtda oliy ta'lim faoliyatidan ilmiy-texnik va

innovatsiyalar sohasida natija sifatida yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lish qobiliyati talab qilinmoqda. Bu esa oliy ta‘lim tizimida faoliyat jarayonining sifatini oshirishni tahlil etish, iqtisodiy, moliyaviy va boshqaruv jarayoni muammolarini aniqlash, endogen va ekzogen omillarning ta‘sirining o‘zgarishi sharoitida muayyan maqsadlarga erishish qobiliyatini baholash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Ilmiy adabiyotlarda ta‘lim xizmatlari bozori rivojlanishini strategik rejalashtirish jarayonida raqobat muhiti tahlili, ta‘lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishda xorij tajribasini o‘rganish, moliyaviy va boshqaruv jarayoni muammolarini aniqlash omillar ilmiy-nazariy hamda uslubiy jihatdan tadqiq etilgan. Xususan, L.A.Korchagova, I.B.Romanova[2], N.I.Pashchenko[3], Vaxabov A.V., Raxmonov N.R. [4], V.G.Varnavskiy, A.V.Klimenko, V.A.Korolev [5], Pardaev M.Q[6], Rajabov B.J., Toshnazarov S.N., Islomov B.S. [7] kabi olimlar ta‘lim xizmatlari, oliy ta‘lim tizimiga bag‘ishlab darslik, maqola, o‘quv qo‘llanmalar va boshqa o‘quv va ilmiy adabiyotlarni yozganlar. Ammo ushbu asarlarda ta‘lim xizmatlari bozorida oliy ta‘lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish masalalari atroflicha o‘rganilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida ta‘lim xizmatlari bozori rivojlanishini strategik rejalashtirish jarayonida raqobat muhiti tahlili, ta‘lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishda xorij tajribasini o‘rganish dialektik, tizimli va ilmiy yondashuv, qiyosiy va solishtirma

tahlil hamda guruhlash usullaridan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar.**

Iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida “oliy o‘quv yurtlari turli xil korxonalar (firmalar) va tashkilotlar bilan teng huquqli hisoblanadi va universitet (institut)ning vazifalaridan biri uning iqtisodiy samaradorligini ta‘minlashdan iborat. Shuningdek, har qanday mamlakat o‘z milliy ta‘lim tizimini moliyalashtirishdan bosh tortmaydi, chunki universitetning muhim vazifalaridan biri inson kapitalini rivojlantirish bo‘lib, bu o‘z navbatida mamlakatda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining raqobatbardoshligini ta‘minlaydi. Inson kapitalining rivojlanishi nafaqat aholi turmush darajasining oshishiga, balki iqtisodiyot samaradorligi va mehnat unumdorligining oshishiga ham olib keladi” [1].

Hozirgi vaqtda oliy ta‘lim faoliyatidan ilmiy-texnik va innovatsiyalar sohasida natija sifatida yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lish qobiliyati talab qilinmoqda. Bu esa oliy ta‘lim tizimida faoliyat jarayonining sifatini oshirishni tahlil etish, iqtisodiy, moliyaviy va boshqaruv jarayoni muammolarini aniqlash, endogen va ekzogen omillarning ta‘sirining o‘zgarishi sharoitida muayyan maqsadlarga erishish qobiliyatini baholash muhim ahamiyatga ega zarurat hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “...ta‘lim-tarbiya bo‘yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur. Shu maqsadda Hukumatning, tegishli

vazirlik va idoralar hamda butun ta'lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o'qituvchilarning eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir. Farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o'rin egallashini ta'minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishni davrning o'zi taqozo etmoqda" [1]

Jahonda amal qilayotgan ta'lim sifatini ta'minlovchi turli milliy tizimlar bir-biridan ko'pgina jihatlari bo'yicha farqlanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlarda oliy ta'lim tizimi quyidagi mezonlarga ko'ra guruhlanadi: oliy o'quv yurtlari soni, oliy ta'limni boshqarish tarkibi, oliy o'quv yurtlarini guruhlanishi, tashkiliy avtonomiya darajasi. Oliy ta'lim sifatini oshirishning milliy tizimlari o'ziga xos quyidagi jihatlari va tavsifi bilan farqlanadi[8]:

- hukumatning tashkiliy tuzilmalari huquqlari;
- jamoat tashkilotlari, kasaba uyushmalari ishtirokini tashkil etish darajasi;
- maqsadlarni aniqlanishi va vazifalarni qo'yilishi;
- mezonlari va tartibi.

Jahon amaliyotida oliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini ta'minlash ta'lim sifatini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish modellariga asoslanadi.

Fransuz modeli OTMni ichki baholashga asoslangan bo'lib, bunda asosiy e'tibor davlat va jamoat tashkilotlari orqali OTMni samarali tashqi baholash nazarda tutiladi. Fransiya, Germaniya va Skandinaviya

davlatlarida "Ingliz (anglosakson)" modeli joriy etilgan. Mazkur modelda OTMni ichki o'z-o'zini baholash muhim o'ringa ega hamda tashqi ijtimoiy va kasbiy ta'lim sifatini ekspert baholash hisobga olinadi. Ushbu holat Buyuk Britaniya, AQSH, Irlandiya, Lotin Amerikasi davlatlari, Tayvan va Filippinda keng tarqalgan.

Oliy ta'lim sifatini ta'minlash tizimlarining "Fransuz modeli" ta'lim muassasalarini boshqarishning "kontinental" modeli quyidagi tamoyillarga asoslangan[8]:

- davlat tomonidan oliy o'quv yurtiga nisbatan paternalizm siyosati;
- davlat boshqaruv organlari tomonidan oliy ta'limni rivojlanishini tartibga solishda markazlashgan nazoratni o'rnatish (ta'lim vazirligi, maorif vazirligi);
- OTMning moliyaviy va akademik mustaqilligini cheklash;
- davlat mulkining ta'limda yetakchi o'rin egallashi.

Mazkur holatda ta'lim sifatini oshirish vakolatli davlat organlari tomonidan realizatsiya qilinadi va hukumat tomonidan moliyalashtiradi. OTMlarda sifatni oshirish tizimlari davlat nazoratida bo'ladi. Ular litsenziyalanadi, davlat akkreditatsiyasi va attestatsiyasidan o'tkaziladi, turli OTMlarning ko'rsatkichlari taqqoslanadi hamda moliyaviy resurslar taqsimlanadi.

"Angliya (anglosakson) modeli quyidagi "atlantika" modeli tamoyillari asosida tashkil etiladi:

- oliy o'quv yurtining mustaqilligi (universitetlarning rivojlanishi);
- strategiyasiga liberal yondashuv xos;



– oliy o‘quv yurtlari katta avtonomiyaga, jumladan, har bir universitet ratsional moliyaviy va iqtisodiy mustaqillikka ega;

– oliy ta’lim tizimi xizmati pullik;

– ta’lim tizimida nodavlat mulkning ulushi yuqori” [8].

Oliy ta’lim tizimida sifatni oshirishning “Amerika modeli” OTMlari va ta’lim dasturlarini akkreditatsiyalashga asoslangan hamda “Fransuz” va “Ingliz” modellarining samarali uyg‘unligidan iborat. Hozirgi vaqtda AQSH universitetlarida o‘z-o‘zini baholash tizimi rivojlangan bo‘lib, amerika oliy ta’limi ustun darajada OTMlar tomonidan nazorat qilinadi. Universitetlarning akkreditatsiyasi mintaqaviy universitetlar va kollejlarda birlashmasi, assotsiatsiyasi tomonidan realizatsiya qilinadi. Mazkur assotsiatsiyalar ichida ixtisoslashtirilgan oliy ta’lim tizimi komissiyalari faoliyat yuritadi va mintaqadagi OTMlarini akkreditatsiyadan o‘tkazadi. AQSH OTMlarini akkreditatsiyadan o‘tkazish OTMlarini akademik erkinlik berish huquqi asosida ularning jamiyat oldidagi majburiyati o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlashni jamoaviy boshqarish tizimidir. AQSHning o‘zini-o‘zi boshqarish tizimi orqali ta’lim tizimi samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan OTM darajasida baholash nazarda tutiladi.

Oliy ta’lim tizimi sifatini oshirishning Boloniya modeli quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi: ixtiyoriy qatnashuv va milliy o‘ziga xoslikni saqlab qolish, jumladan, milliy oliy ta’lim tizimlarini yaqinlashuvi. Uning asosiy qoidalari 1999-yilda Yevropaning 29 mamlakatlari tomonidan qabul qilingan Boloniya

deklaratsiyasida bayon etilgan. Ushbu modelning maqsadi Yevropa ta’lim tizimidan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi va uni xalqaro darajada obro‘si va raqobatbardoshligini oshirishdan iborat[8].

XXI asrning dastlabki yillarida aksariyat davlatlarda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi transformatsiyalashuvi bilan ta’lim sifatini oshirish tizimlari o‘rtasida yaqinlashuv sodir bo‘lmoqda. Bu jarayonga oliy ta’lim sifatini yaxshilashning Boloniya jarayoni jiddiy ravishda ta’sir qilmoqda.

“Boloniya jarayoni modeli” quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

– OTMlarining akademik va ilmiy-tadqiqot faoliyati bo‘yicha markazlashgan nazoratni kamayishi hamda ularni mustaqilligi va mas’uliyatini kengayishi;

– davlatni ta’limni boshqaruvi tarkibidan mustaqil OTMlari va oliy ta’limni baholovchi tashkilotlarning mavjudligi;

– oliy ta’lim sifatini baholashning qulay bo‘lgan mezonlaridan foydalanish;

– baholashda OTMlarining to‘liq ishtirok etishi;

– ushbu tartib asosida o‘zini-o‘zi baholash hisobotiga o‘tish va tashqi auditorning ekspertiza xulosasi bilan taqqoslanishi kerak.

Zamonaviy bozorda ta’lim xizmatlari har qanday mahsulot kabi kuchli raqobat muhitida sotiladi. Universitetlar esa o‘zlarining raqobatdosh ustunliklarini mustahkamlashlari va bozorda mustahkam o‘rinlarni egallashi lozim[7].

Hozirgi kunda “jahonda ta’lim sohasida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar OTMlarning salohiyatini barcha yo‘nalishlarda oshirishga qaratilgan bo‘lib, ular quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

1) tashqi va ichki mehnat bozorida raqobatga bardosh bera oladigan mutaxassislarni tayyorlash;

2) raqobatbardoshlikni rivojlantirish sohasidagi yangiliklar;

3) samarali takror ishlab chiqarish siyosatini olib borish” [7].

Rossiya universitetlarining raqobatbardoshligi universitetda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va boshqa universitetlarning shunga o‘xshash mutaxassislari bilan raqobatlashishga imkon beradigan va muayyan iste‘molchilar guruhlariga talablariga javob beradigan raqobat ustunligini ta‘minlashga qaratilgan. Rossiya universitetlari raqobatbardoshligi quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

– universitetda mutaxassislar tayyorlash uchun sifat menejmenti tizimining mavjudligi;

– boshqa ta’lim dasturlarini ishlab chiqishga ta’sir qiluvchi yuqori raqobatbardosh ta’lim dasturlari guruhining mavjudligi;

– zamonaviy o‘quv, moddiy-texnika bazasiga asoslangan innovatsion o‘quv tarbiya jarayonining yaxshi faoliyat yuritishi;


– mintaqaviy, federal va xorijiy darajadagi ilmiy-texnikaviy, ma‘muriy, iqtisodiy va biznes hamkorligining moslashuvchan tizimining mavjudligi;

– mehnat bozorini to‘liq qondirish uchun ta’lim dasturlarining mobilligi;

– universitetning imijini oshirish hamda tayyorlanayotgan mutaxassislarga yuqori talabni shakllantirish.

“Alohida OTMlar raqobatbardoshligining muhim ko‘rsatkichi va mamlakatda ta’lim tizimining rivojlanish darajasi indikatori bo‘lib, xalqaro ta’lim reytinglari hisoblanadi. Eng taniqli reytinglar tarkibiga Shanxay reytingi (ARWU-500), kompaniyalar universitetlari reytingi QS (QS WUR), Times Higher Education World University Rankings (THE WUR) reytingi kiradi” [7].

Xalqaro reytingda o‘ringa ega bo‘lishlari uchun OTMlarining raqobatbardoshligining tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat (1.4-rasm):





#### 1.4-rasm. OTM raqobatbardoshligining tarkibiy qism elementlari

Reytinglar tahlili asosida xulosa qilish mumkinki, “OTMning raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlariga quyidagi ko‘rsatkichlarni kiritish mumkin:

- ilmiy-pedagogik xodimlar va talabalar sonining nisbati;
- universitetning bir xodimga to‘g‘ri keladigan iqtiboslar soni;
- xorijiy xodimlar ulushi va xorijiy talabalar ulushi;
- ishlab chiqarish (innovatsion) faoliyatdan olinadigan daromadlar;
- bita talaba yoki bita o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan universitetning umumiy daromadi” [7].

Qozog‘iston ta‘lim klasterlari samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlik omillarini shakllantirish maqsadida turli mamlakatlarning klaster siyosatini amalga oshirish bo‘yicha dasturlarini tahlil qilish respublikada ta‘lim klasterlarini yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan.

Qozog‘istonda ta‘lim klasterlarini yaratishda quyidagi maqsadlar nazarda tutilgan:

- mamlakatning raqobatbardoshligini tiklash va mustahkamlash;
- iqtisodiy rivojlanishni faollashtirish;
- ish o‘rinlarini yaratish va qo‘llab-quvvatlash;
- autorsing risklarini baholash;
- yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘ylik va malakali ish o‘rinlarini yaratishga hissa qo‘shish.

“Ta‘lim klasterlarini tashkil etish maqsadlari (“raqobatbardoshlik qutblari”) quyidagilardan iborat: ilmiy-tadqiqotlar samaradorligiga erishish; tadqiqot loyihalarini amalga oshirish; global miqyosda ta‘limni rivojlantirish. Raqobatbardoshlikning bunday qutblari rezidentlarini tanlash mezonlari kompaniya rivojlanishining faol dinamikasi, uning yangi rezidentlarni jalb qilish va jahon bozorida sezilarli o‘ringa ega bo‘lish qobiliyatini shakllantirishi zarur. Qolaversa, universitetlar atrofida klasterlar tuzish, klasterlarga universitetlarni kiritish mumkin. Klasterni tashkil etish shaklidan qat‘iy nazar universitet va korxonalar o‘zaro yaqin aloqada bo‘la boshlaydi. Klasterlarning yaratilish g‘oyasi universitetlarning biznes bilan o‘zaro hamkorligini yanada yaqinlashtirish imkonini beradi. Bunda ta‘lim jarayoni tobora amaliyot bilan integratsiyalashgan bo‘ladi” [7].

Bozor iqtisodiyoti sharoitida OTMlari nafaqat kadrlar tayyorlash vazifasini bajaradi, balki milliy va mintaqaviy raqobatbardoshlikni mustahkamlashga ko‘proq hissa qo‘shmoqdalar. Tajribalarning ko‘rsatishicha, OTMlarning rolini kengayib borayotganligi ularni iqtisodiy hamkorlik jarayonida hududiy infratuzilma ishtirokchisi sifatidagi ahamiyatini tobora oshirmoqda.

Masalan, “Buyuk Britaniyada ko‘pincha universitetlardan amaliy-ilmiy tadqiqotlar, bozor tadqiqotlari va innovatsion jarayonlarda faol ishtirok etishi ularning asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Agarda

ilgari universitetlar tayanch va fundamental fanlarga konsentrasiyalashgan holda olingan natijalarni tijorat maqsadlariga qo'llash uchun mustaqil ishlashga majbur bo'lgan bo'lsa, endilikda chegaralar tobora shaffoflashib bormoqda va tadqiqotlar hamda ishlanmalar sohasida muvofaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun korxonalar va universitetlar innovatsion jarayonlar doirasida ko'proq hamkorlik qilishlari talab etilmoqda" [7].

Ikkinchidan, "ko'pincha universitetlar o'zlarini konsalting xizmatlari, maslahatlar, o'zgarish dasturlari kabilarni yetkazib beruvchilar sifatida namoyon etmoqdalar. Ko'p hollarda bu xizmatlar "sotuvchi-xaridor"ning ikki tomonlama o'zaro munosabatidan tashqariga chiqadi va ko'p tomonlama, uzoq muddatli hamkorlik yuzaga keladi. Ushbu sohaga kirish uchun universitetlar korxonalar va tashkilotlar bilan uzoq muddatli o'zaro ishonchli munosabatlarni o'rnatishi, qo'llab-quvvatlashi va rivojlantirishi zarur" [7].

Buyuk Britaniyada ta'lim sohasida biznes va menejment oliy ta'limning eng kuchli sohalaridan biri hisoblanadi. Deyarli barcha universitetlar biznes maktablari yoki shunga o'xshash bo'limlarga ega. "Biznes maktablar assotsiatsiyasi" (Buyuk Britaniyadagi barcha universitet biznes maktablari vakili bo'lgan a'zo tashkilot) ish tajribasi uning a'zolarini biznes va jamiyatni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan o'z ishini tashkil etish va amalga oshirishni namoyish etadi.

Universitetlar va biznes hamjamiyati o'rtasidagi hamkorlik

metodologiyasini ishlab chiqish va modelini yaratishga assotsiatsiya tajribasi va uning sinovdan o'tgan yondashuvlari alohida qiziqishini yuzaga keltiradi. Xususan:

– biznes maktablari tadbirkorlik subyektlari bilan muloqot qilishlari uchun foydalaniladigan turli xil usullarni ko'rsatadi;

– biznes maktablari o'zaro aloqalarni mustahkamlash va hamkorlik institutlari sifatidagi rolini oshirish natijasida faoliyat turlari bo'yicha ko'p miqdordagi o'zaro munosabatlar tasnifini ishlab chiqadi;

– universitetning intellektual resurslaridan foydalanishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish mumkin bo'lgan tijorat takliflarining diversifikatsiyasini tavsiflaydi;

– biznes maktablarining mahalliy hamjamiyat bilan o'rnatgan aloqalari turlarini va bunday munosabatlarning shakllanishi bo'yicha choralarni tavsiflaydi.

Hamkorlikni amalga oshirishga bo'lgan bunday yondashuvlar Yevropa davlatlari universitetlari amaliyotida keng tarqalganligi alohida ahamiyatga ega. Shunga yaqin misollarni MDH davlatlari universitetlari tajribasida ham ko'rish mumkin. Biroq iqtisodiyotning real sektoriga universitetlar taqdim qiladigan xizmatlar ko'lami va hamkorlik darajasi ancha ixchamroq hisoblanadi.

Moss Kanterning tasdiqlashicha, hududiy darajada universitet infratuzilmani optimallashtirish va barcha ishtirokchilar manfaatlarini ko'zlab, bir qator tashabbuslarni realizatsiya qilishga qo'shilishi mumkin, bunda o'z ustunligini mustahkamlash

asosiy maqsad bo'lib hisoblanadi, xususan:

– “iqtisodiyot sektori, hokimiyat organlari va boshqa steyxolderlarning maqsad va manfaatlarini aniqlash maqsadida hududiy fuqarolik forumlarini o'tkazish;

– avtoritar hokimiyat tomonidan belgilanmagan, demokratiya tamoyillari asosida jamiyatning kommunikatsiya kanallari orqali ishlab chiqilgan hududni rivojlantirish strategiyalarini realizatsiya qilish;

– Strategiyalar mintaqaning kuchli tomonlari va uning kelgusidagi salohiyatini oshirish istiqbollarini hisobga olishi lozim;

– hududiy tadbirlarda ishtirok etish, “muvaffaqiyat tarixi”ni ommaviy nishonlash;

– hudud hayotining barcha jarayonlarida va uning barcha subyektlari tomonidan mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvni oldinga surishda ko'mak berish:

– hududiy hokimiyatlar, tadbirkorlik hamjamiyatlari, ta'lim, kompaniyalarning axborotlar va resurslardan foydalanishini yengillatish va tadbirkorlikning turli masalalari bo'yicha maslahatlar berish uchun “yagona darcha” markazlarini tashkil etish;

– resurslarga ega hududiy kompaniyalar bo'yicha ma'lumotlar bazasini yetarli darajada qo'llab-quvvatlash;

– hududda endigina faoliyatini boshlagan kompaniyalarga e'tibor bergan holda tadbirkorlikning turli sohalarida hududiy kompaniyalar xodimlarini tayorlash bo'yicha ta'lim dasturlari “portfeli”ni realizatsiya qilish;

– uzluksiz ta'lim uchun ishga joylashtirish, kasbiy karerani o'stirish, xususiyl imkoniyatlardan foydalanish masalalari bo'yicha kompaniyalar bilan o'zaro aloqada talabalarni o'qitish va ko'nikmalarini shakllantirish;

– atrof-muhit bilan uyg'unlikka erishish, tashqi muhitga moslashish masalalari bo'yicha biznes, ta'lim va davlat xizmatining xodimlariga maslahatlar berish;

– kompetensiyalar va talab etilgan ko'nikmalarni fuqarolar va ishchilar olishlari uchun volontyorlikni rivojlantirish hamda hamjamiyatning yangi sektoriga ko'rsatiladigan xizmatlarning ko'lami va harakatlanishini kengaytirish;

– kichik korxonalarni qo'llab-quvvatlash asosida mahalliy kompaniyalarni yanada yaqinroq hamkorlikka jalb qilish” [7].

Buyuk Britaniya universitetlarining tajribalari tahlili shuni ko'rsatdiki, ta'lim, kadrlar tayyorlash, ishga joylashtirish va iqtisodiyot sohalarida “hamkorlik institutlari”ning yaratilganidan beri ko'plab o'n yilliklar o'tganiga qaramay, Buyuk Britaniyada haligacha nisbiy nobarqarorlik mavjud[7]. Hudduiy rivojlanish bo'ymcha agentliklar – hozircha yangi hodisa hisoblanadi. Kasaba uyushmalari esa kadrlar tayyorlash va ishga joylashtirish kontekstida o'z rolini o'zgartirish bo'yicha sezilarli o'zgarishlarga do'ch keldi va keyingi paytlarda Buyuk Britaniyada hukumat universitetlari biznes hamjamiyatining ehtiyojlariga ko'proq mos kelishi uchun ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni nazorat qilishga harakat qilmoqda[7].

Bu bosqichda hukumat shunga guvoh bo'ldiki, ta'lim va o'qitish sifati hamda mavjud ko'nikmalar darajasida katta o'zgarishlar faqatgina alohida tashkilotlarning sayi-harakatlari bilan sodir bo'lishi mumkin emas. Buyuk Britaniya "Ko'nikmalar bo'yicha hukumat strategiyasi"ni realizatsiya qila turib, zamonaviy tarmoqlarni rivojlantirish muammosini dolzarbligini oshirdi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan fikr qiladigan bo'lsak, O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha xorijning ilg'or tajribalaridan foydalanish ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni jadallashuviga zamin yaratadi. Xususan, xorijiy mamlakatlarda OTMlarning raqobatbardoshligini ta'minlash holatini tahlil qilgan holda, respublikamiz ta'lim xizmatlari bozorini kelajakda samarali

rivojlanishini ta'minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur: davlat tomonidan oliy o'quv yurtiga nisbatan paternalizm siyosatini amalga oshirish, oliy o'quv yurtlarining akademik va moliyaviy mustaqilligini ta'minlash; ta'lim tizimida nodavlat mulkining ulushini oshirish; oliy ta'lim sifatini baholashning qulay bo'lgan mezonlaridan foydalanish; tashqi va ichki mehnat bozorida raqobatga bardosh bera oladigan mutaxassislarni tayyorlash; universitetda mutaxassislar tayyorlash uchun sifat menejmenti tizimining mavjudligi; mehnat bozorini to'liq qondirish uchun ta'lim dasturlarining mobilligini ta'minlash; kompetensiyalar va talab etilgan ko'nikmalarni fuqarolar va ishchilar olishlari uchun volontyorlikni rivojlantirish hamda hamjamiyatning yangi sektoriga ko'rsatiladigan xizmatlarning ko'lami va harakatlanishini kengaytirish.

### FOYDALANILGAN ADABIËTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. *Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq.*-T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. – B. 13-14.

2. Pardaev M.Q. va boshqalar. *Ta'lim xizmatlari va ularning samaradorligini oshirish masalalari. Monografiya.* – T.: —Innovatsion rivojlanish nashriëtmatbaa uyil, 2020. – 200 b.

3. L.A.Korchagova, I.B.Romanovanning iqtisodiy asarlari.

4. *Inson taraqqiëti. Darslik. I.f.d., professor Q.X.Abduraxmanov tahriri ostida.* – T.: —Fanva texnologiya nashriëti, 2013. – 476 bet.

5. Pardaev M.Q. va boshqalar. *Ta'lim xizmatlari va ularning samaradorligini oshirish masalalari. Monografiya.* – T.: —Innovatsion rivojlanish nashriëtmatbaa uyil, 2020. – 200 b.

6. Rajabov B.J., Toshnazarov S.N., Islomov B.S. va boshqalar. *Ta'lim sifatini yaxshilashda erishilgan natijalardan samarali foydalanish. Monografiya.* – T.: —TURON-IQBOI?

7. <https://cyberleninka.ru/article/n/povyshenie-konkurentosposobnosti-vuzov-mezhdunarodnyy-opyt-akademicheskogo-predprinimatelstva/viewer>

<https://doi.org/10.59251/2181-3973.2023.v3.138.3.2552>

## QISHLOQ JOYLARIDA XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGI

*Xalimov Shaxboz Xalimovich,*  
*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,*  
*«Raqamli iqtisodiyot» kafedrası o‘qituvchisi*  
[\*xalimovshaxboz8545@gmail.com\*](mailto:xalimovshaxboz8545@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, hozirgi davrda jahon iqtisodiyotini pandemiya bilan bog‘liq inqiroz sharoitida Respublikamizda barqaror va innovatsion iqtisodiyotni samarali rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar bugungi kunda tobora o‘z dolzarbligini ko‘rsatmoqda. Shu bois, mazkur holatdan chiqishda iqtisodiyotning barcha jabhalarida bir qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni, xususan, mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish sohasidagi muammolar o‘rganilib, tahlil qilinib, mavzu bo‘yicha muallifning ilmiy izlanishlari, taklif va tavsiyalari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** samaradorlik, unumdorlik, mehnat unumdorligi, xizmat ko‘rsatish, xom ashyo, maxsulot, rentabellik, iqtisodiy samara, ijtimoiy samara, bandlik, ishsizlik,

**Аннотация:** В данной статье все большее значение приобретают текущие экономические реформы, направленные на эффективное развитие устойчивой и инновационной экономики в Республике Узбекистан в условиях глобального пандемического кризиса. Поэтому для преодоления данной ситуации изучаются и анализируются ряд социально-экономических проблем во всех отраслях экономики, в частности, проблемы производства в нашей стране, описываются авторские исследования, предложения и рекомендации по данной теме.

**Ключевые слова:** эффективность, производительность, производительность труда, услуги, сырье, продукция, рентабельность, экономическая эффективность, социальная эффективность, занятость, безработица,

**Annotation:** In this article, current economic reforms aimed at the effective development of a sustainable and innovative economy in the Republic of Uzbekistan in the context of the global pandemic crisis are becoming increasingly important. Therefore, in order to overcome this situation, a number of socio-economic problems in all sectors of the economy are studied and analyzed, in particular, the problems of production in our country, author’s research, proposals and recommendations on this topic are described. .

**Key words:** efficiency, productivity, labor productivity, services, raw materials, products, profitability, economic efficiency, social efficiency, employment, unemployment.

**Kirish.** Iqtisodiyotda xizmat yondashuvlar ham nafaqat o‘zgarib ko‘rsatish korxonasi faoliyatining boradi, balki xizmat ko‘rsatish faoliyati rivojlanib borishi bilan uning samaradorligini baholash ham alohida samaradorligini baholashdagi ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda xizmat ko'rsatish faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati bo'yicha turli qarashlar mavjud. O'zaro harakatdagi insonlarning bir qismi o'zlarining ko'plab ehtiyojlarini qondirish uchun moddiy ne'matlar olishni xohlaydilar, boshqalari muayyan xizmatlar ko'rsatish asosida insonlarning ehtiyojlarini qondiradilar. Bunday munosabatlardan asosiy maqsad – moddiy ne'matlar yaratish emas, balki insonlarni tobora o'sib borayotgan ehtiyojlarini to'liqroq qondirish hisoblanadi. Garchi xizmat ko'rsatish faoliyati buyumlarda (moddiy ne'matlarda) mujassamlansa ham, u bevosita mehnat jarayonida iste'mol qilingan foydali mehnat samarasi hisoblanadi.

#### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

B.A.Abdukarimovning fikricha, xizmat ko'rsatish faoliyati deganda insonlar talabini qondirishga yo'naltirilgan faoliyat turini tushunish lozim. Ushbu turdagi faoliyat bilan turli xildagi korxonalar shugullanishadilar. Ular jumlasiga yakka tartibdagi tadbirkorlar va turli mulk shakliga ega bo'lgan xizmat ko'rsatish korxonalari kiradi. Ular mehnatining natijasi bo'lib xizmat hisoblanadi. [Abdukarimov B.A va boshqalar. Korxonalar iqtisodiyoti (oliy o'quv yurtlari uchun darslik) T.:Fan, 2010. –B. 122-123.]

Agar yuqoridagi ta'riflarni tahlil qiladigan bo'lsak, xizmat ko'rsatish faoliyatiga bir muncha tuluqroq ta'rifni E.Engel tomonidan e'tirof etilgan iste'mol tarkibini daromadlarning o'sishiga bog'liqligi haqidagi qonuniyati ushbu yo'nalishda tadqiqotlar olib borishga turtki bo'ldi.

Xususan, turli xil tovar va xizmatlarga to'lov qobiliyatini daromadga nisbatan egiluvchanlik koeffitsienti va boshqa yo'nalishdagi tadqiqotlar shular jumlasidandir. Masalan, V.Fyuks 1968 yilda xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirish sabablaridan biri sifatida sanoat va qishloq xo'jaligiga nisbatan xizmat ko'rsatish sohasida unumdorlikni past darajada o'sishi deb hisoblaydi. [FUChSV.RTheService Economic "National Bureau of Economic Research, New York, 1968.] V.Fyuks tomonidan sanoat, qishloq xujaligi va xizmat ko'rsatish sohasida ish bilan bandlik taqsimoti aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real yalpi ichki mahsulot bilan chambarchas bog'liq degan fikri o'z tasdig'ini topmoqda.

1987 yilda R.Solou tomonidan ishlab chiqilgan «Unumdorlik paradoksi» [Solow R We'd Better Out // New York Review of Books. 1987. July 12-p36] ga ko'ra kompyuter texnologiyalari uchun qilingan investitsiya hajmining o'sib borishi, unga mos holda xizmat ko'rsatish sohasida unumdorlikni oshishiga olib kelmagan. Xizmat ko'rsatish korxonalari samaradorlik ko'rsatkichining pastligini yana bir sababi sifatida moddiy xizmat ko'rsatishda band bo'lgan xodimlar mehnat haqining pastligidir. Ammo xizmat ko'rsatishning ba'zi turlari xodimlari mehnat haqi, ancha yuqori.

Hozirgi vaqtda xorij tadqiqotchilari «R.Solou paradoksi»ning yechimini tushuntiruvchi bir necha gipotezalarni ilgari surishmoqda. Birinchidan, eng ko'p tarqalgan variant sifatida unumdorlik statistikasini nomukammalligi e'tirof etiladi. Bunday fikrni R.Solou ilgari surgan. Ikkinchidan, keng tarqalgan

variantlardan yana biri - amal qilayotgan moddiy xizmat ko'rsatish o'zagida «xizmat ko'rsatish»ni to'liq hisobga olmaslik hisoblanadi.

Bunga «Devidning keyinga qoldirish gipotezasi» misol bo'la oladi. Shuningdek «R.Solou paradoksi»ning turli tahliliy yechimini amal qilishiga qaramasdan hozirgi vaqtda ulardan hech biri shubhasiz to'g'ri deb tan olinmagan. Ammo sanoati rivojlangan mamlakatlarda unumdorlik o'sish sur'ati statistikasi hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish faoliyatini unumdorligini (samaradorligini) barqaror o'sayotganidan dalolat beradi.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda, bizning fikrimizcha, xizmat ko'rsatish faoliyati bu – turli shakl va yunalishlarda xizmat ko'rsatish asosida aholi, ijtimoiy guruh, korxonalar va tashkilotlarning moddiy, ijtimoiy-moddiy, ma'rifiy talab va ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan, yakuniy natijalarga erishishda iste'molchilarning bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi bilan amalga oshiriladigan faoliyatdir.

#### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotni amalga oshirishda xizmat ko'rsatish va iste'mo jarayonlarining statistik ko'rsatkichlari tahlil qilinib, ular natijasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Bundan tashqari xizmat ko'rsatish korxonalar faoliyatini o'rganish davomida analiz va sentiz usulidan ham samarali foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** So'nggi yillarda respublikamizda kichik biznes, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish borasida xukumat tomonidan amalga oshirilayotgan izchil tadbirlar, xizmat sohasidagi alohida olingan tarmoqlarni rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlar,

dasturiy yunalishlar xizmat ko'rsatish va xizmat ko'rsatish sohasining yuqori sur'atlar bilan rivojlanishiga olib kelmoqda.

Bizga ma'lumki, har qanday jamiyatda ijtimoiy xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish iqtisodiy taraqqiyotning asosini yaratadi. Shu sababli ham iqtisodiyotni erkinlashtirish, modernizatsiyalash sharoitida ijtimoiy xizmat ko'rsatishning samaradorligini oshirish jiddiy masalalardan biri hisoblanadi.

Samaradorlikning umumiy holati, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik – chegaralangan resurslardan oqilona foydalangan holda erishilgan, aholining ijtimoiy, iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy darajasini yuksaltirishdir. Ish – inson kamolotini yuksalish, moddiy va ijtimoiy farovonligini o'sishida, madaniy va ma'naviy jihatdan rivojlanishida ko'rinadi. Inson farovonligi hamda kamoloti naqadar yuksalsa, shu qadar yuqori ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka erishgan bo'ladi. [Abdukarimov B.A va boshqalar. Korxonalar iqtisodiyoti (oliy o'quv yurtlari uchun darslik) T.:Fan, 2012. –B. 142-152.].

Ijtimoiy xizmat ko'rsatishning iqtisodiyot tarmoqlaridagi samaradorligini o'rganishda uning mezonlari va ko'rsatkichlarini to'g'ri tushunish va hisoblab chiqish katta ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizcha, muhim masalalardan biri bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni har tomonlama

chuqur o'rganish va tushunish uchun alohida ijtimoiy, iqtisodiy samaradorlik mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish kerak. Lekin bunda ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik mezonlari va ko'rsatkichlari o'zaro bog'liq emas, degan fikr kelib chiqmaydi. Aksincha, ular uzviy bog'langan va bir-birini taqozo qiladi, to'ldiradi.

Iqtisodiy samaradorlik sifat jihatidan hisoblab chiqilmasa va o'lchanmasa, uni muntazam oshib borishi bo'yicha belgilangan ishlarni bajarib bo'lmaydi.

Iqtisodiy samaradorlikning o'sishi - xizmat ko'rsatish va xizmat ko'rsatishning har qanday shakli rivojlanishini ob'ektiv qonuniyatidir, chunki jamiyatning rivojlanishi ishlab chiqariladigan mahsulot yoki ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi va sifati ortishini, xizmat ko'rsatish va muomala, kengaytirilgan takror xizmat ko'rsatishni amalga oshirish uchun jamg'arishni ko'paytirishni talabetadi. Xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatining iqtisodiy samaradorligini kompleks tahlil qilish faqat samaradorlik mezonini o'z ichiga olish bilan chegaralanib qolmasligi kerak, chunki mezon asosan samaradorlikni oshirishning mohiyatini va asosiy vazifalarini ifodalaydi, lekin o'lchov hamda baholash vositasi bo'lib xizmat qila olmaydi. Bu vazifani iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari hal qiladi.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish kompleks dasturi mezonining murakkabligi uning maqsadlari va resurslarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar zarurligini taqozo etadi. Bizning fikrimizcha, O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning zamonaviy tarmoqlari singari rivojlanib

borayotgan sohadir. Shunga ko'ra, mazkur sohada faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlari iqtisodiy samaradorligini barcha ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa jihatlari quyidagi mezonlarda o'z aksini topadi:

– iste'molchilarning turli qatlamlariga mos maxsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish;

– xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan taklif etilayotgan maxsulotlarni ommabopligini ta'minlash;

– xo'jalik subyektlari faoliyatining natijadorligini oshirish;

– sarflarning nisbiy darajasini pasaytirish;

– sohada yuqori unumdorlikni ta'minlashga erishish.

Mazkur mezonlar xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda samaradorlik ko'rsatkichlarini turlicha: baholash miqyosi bo'yicha, resurslardan foydalanish darajasi bo'yicha, ko'rsatkichlarning ahamiyati bo'yicha, ularning qarorlar qabul qilishdagi roli bo'yicha, umulashtirish darajasi va hokazolar bo'yicha tasniflari uchraydi.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari ikki guruhga: xususiy va umumlashgan ko'rsatkichlarga bo'linadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatining iqtisodiy samaradorligini tavsiflovchi xususiy ko'rsatkichlarga mehnat resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari, moddiy va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari kiradi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari



tizimida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari alohida o'rin egallaydi. Bizning fikrimizcha, xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat unumdorligi darajasi va dinamikasi (natural va qiymat ko'rsatkichlari); o'rtacha mehnat haqi; bir xodim hisobiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmining o'sish sur'ati va mehnatga haq to'lash sur'atining nisbati; mehnat haqining bir

so'miga olingan natija ko'rsatkichlari tizimidan foydalanib, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini keng tavsifiga ega bo'lish mumkin.

Mehnat unumdorligi darajasi natural va qiymat shaklida hisoblanishi mumkin. Natural shaklda  $T_m$  hisoblansa, tovarlar hajmining  $MU_{XO} = \frac{T_m}{X_s}$  (1.) o'rtacha soniga nisbati olinadi.

Bu yerda:  $T_m$  – tovar-mahsulot hajmi

$X_s$  – xodimlar (bevosita) soni

Xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi mehnat unumdorligi,

mehnat qaytimi va mehnat sig'imi kabi ko'rsatkichlarda aniqlanadi.

Mehnat unumdorligi bir ishchi tomonidan qancha xizmatlar ko'rsatilganligini bildiradi  $T_{ush\ x}$

$$MU = \frac{T_{ush\ x}}{Sir} \quad (2.)$$

Bu yerda:  $T_{ush\ x}$  – xizmatlar hajmi.

$Sir$  – ishlovchilarning o'rtacha yillik soni;

$$MK = \frac{T_{ush\ x}}{MxF} \quad (3.)$$

Bu yerda:  $MK$  – mehnat qaytimi;  
 $MxF$  – ish haqi fondi;

Mehnat sig'imi mehnat unumdorligiga teskari ko'rsatkich

$$Msig'z = \frac{M.sarf}{T_{ush.x}} \quad (4.)$$

Bu yerda:  $M$  sig' – mehnat sig'imi;

$M$  sarf – mehnat sarfi;

$$MUo's = \frac{Msig'x100}{100 - Msig'} \quad (5.)$$

$$MSh = \frac{Musx100}{100 + MUo's} \quad (6.)$$

Bu yerda:  $MU$  o's – mehnat unumdorligining bazis davriga nisbatan darajasi(%);

Mehnat qaytimi bir so'mlik ish haqiga to'g'ri keladigan ko'rsatilgan xizmatlar sonini tavsiflaydi.

bo'lib, bir so'mlik tushumga to'g'ri keladigan mehnat sarfini ifodalaydi.

Mehnat unumdorligi o'sish sur'ati va mahsulot mehnat sig'imining pasayishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$MSh$  – mehnat sig'imining bazis davriga pasayishi (%);

Xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat unumdorligini umumiy o'sishi ( $\Delta MU$  umumiy) xizmatlar ko'rsatish

hajmini oshishi va ishlovchilar sonini kamayish hisobiga bo'ladi va u quyidagi formula bilan aniqlanadi

$$\Delta MU = \frac{100 (\Delta V + \Delta U_n)}{100 + U_p} \quad (7.)$$

Bu yerda:  $\Delta V$  – korxonada joriy davrda mahsulot xizmat ko'rsatishni o'sish hajmi foizi.

$\Delta U_p$  – korxonalarda ishlovchilar sonini kamayish foizi. Agar ishlovchilar soni kamaymasa, ko'payib borsa, ishlovchilar soni foizi teskari belgi bilan ifodalanadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida mahsulot xizmat ko'rsatish miqdori yoki

$$I_{OK} = \left( 1 - \frac{U_{is}}{U_{tm}} \right) \times 100\% \quad (8.);$$

Bu yerda:  $I_{OK}$  = intensiv omil hissasi;

$U_{is}$  = ishchilar sonining qo'shimcha o'sishi;

$U_{tm}$  = tovar-mahsulot hajmining qo'shimcha o'sishi;

Xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini chuqur va har tomonlama tahlil qilish uchun samaradorlikning xususiy ko'rsatkichlari bilan bir qatorda umumlashtirilgan ko'rsatkichlari ham

Bu yerda:  $\sum R_{kor} = \frac{\text{balansfoydasi}}{\sum Aif + \sum NOM}$ ;  
 $Aif$  – asosiy xizmat ko'rsatish fondlari;

$\sum NOM$  – aylanma mablaglar summasi.

Bizning fikrimizcha, xizmat ko'rsatish korxonalarida ijtimoiy samaradorlik deganda xodimlarning xizmat ko'rsatish yoki xizmat ko'rsatish jarayonida ularning ijtimoiy jihatidan rivojlanishni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar majmuasi tushuniladi.

ko'rsatilgan xizmatlar hajmi (soni) ning o'sishida qancha qismi mehnat unumdorligining oshishi, qancha qismi qo'shimcha resurslar (mehnat resurslari) ni jalb qilish evaziga bajarilishini ifodalovchi ko'rsatkich bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkich intensiv omil hissasi formulasi deb yuritiladi.

qo'llaniladi. Adabiyotlarda umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarga: rentabellik, xarajatlar nisbiy darajasi, fond samaradorligi, sarflangan barcha resurslar fond samaradorligi va boshqa ko'rsatkichlar kiradi.

Rentabellik xizmat ko'rsatish sohasida – balans foydaning korxonaga asosiy fondlari va aylanma mablag'lari yig'indisiga nisbatining foizdagi ulushi bilan aniqlanadi.

### **Xulosa va takliflar.** Bizning

fikrimizcha, ijtimoiy samaradorlikning statistik ko'rsatkichlarini quyidagi guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Iste'molchilik talabi qondirilishini tavsiflovchi statistik ko'rsatkichlar;
2. Xizmat ko'rsatish vaqtini qisqarishini tavsiflovchi ko'rsatkichlar;
3. Mehnat sharoiti va xarakterini yaxshilanishini tavsiflovchi statistik ko'rsatkichlar.

Fikrimizcha, iste'molchilar talabini qondirishni tavsiflovchi ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

– xizmat ko'rsatish jarayonida yaratilgan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan mahsulotlar hajmi;

– xizmat ko'rsatish jarayonida yaratilgan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi

– xizmat ko'rsatish vaqtini qisqartirishni tavsiflovchi ko'rsatkichlar;

– iste'molchilarning xizmat ko'rsatish korxonalarida sarflaydigan vaqtini kamaytirish koeffitsienti;

– bir iste'molchiga xizmat ko'rsatish mahsuloti uchun sarflanadigan vaqt;

Mehnat sharoiti va mehnat xarakterini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga:

– mehnat jarayonlarini avtomatlashtirish (yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash darajasi);

– xizmat ko'rsatish korxonalarini bino va inshootlarini zamon talablari darajasiga javob berishi;

– xizmat ko'rsatishda ilg'or mehnatni tashkil qilish usullaridan foydalanish darajasi;

– korxonada foydalaniladigan texnologiya, asbob-uskuna va mexanizmlarni ilg'orilik darajasi;

– xizmat ko'rsatishda band bo'lgan ishchilarning malakasi, ma'lumoti, mutaxassisligining yuqoriligi darajasi;

– soha uchun zarur bo'lgan xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirishni tashkil qilish darajasi kiradi.

Yuqorida qayd etilgan mezonlar va ularning ko'rsatkichlaridan xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatini baholash, kompleks tahlil qilish va strategik rejalashtirishning metodologik asoslarini yaratishda va ularni tadbir etishda foydalanish mumkin.

#### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 11 sentabrdagi "Hududlarda tadbirkorlik tashabbuslari va loyihalarini jadal amalga oshirishni tashkil etishni chora-tadbirlari"gi qarori.* mineekonomiy.uz 2018 yil 18 sentabr.

2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyuldagi "Tadbirkorlik subektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.* mineekonomiy.uz 2018 yil 30 iyul.

3. *Словарь иностранных слов.* – М.: изд. «Русский язык», 1979. – С.

4. *Ожогов С.И. Словарь русского языка. «Советская энциклопедия».* М.: 1973. – С. 837.

5. *Ўзбек тилининг изоҳли луғати.* М.: «Рус тили» нашриёти. 1981.

6. *Abdukarimov B.A va boshqalar. Korxonalar iqtisodiyoti (oliy o'quv yurtlari uchun darslik) T.:Fan, 2010. –B. 122-123.*

7. *Abdukarimov B.A va boshqalar. Korxonalar iqtisodiyoti (oliy o'quv yurtlari uchun darslik) T.:Fan, 2012. –B. 142-152.*

8. *FUChSV.RThe service Economic "National Bureau of Economic Research, New York, 1968.*

9. *Solou R We'd Better Out // New York Review of Books. 1987. July 12*

10. <http://www.lex.uz>

<https://doi.org/10.59251/2181-3973.2023.v3.138.3.2553>

## INTELLEKTUAL KAPITAL VA INTELLEKTUAL TADBIRKORLIK: NAZARIY YONDASHUV

*Sh.Rashidov nomidagi  
SamDU Inson resurslari va mahalla  
taraqqiyotini boshqarish instituti  
“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasida  
dotsenti B.Bobokulov, dotsent v.b.A.Amirov*

*Iqtisodiy nazariya yo‘nalishi magistranti X.Eshbekova*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada intellektual tadbirkorlikni shakllanishi, uning asosiy belgilari, amal qilishi xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, intellektual tadbirkorlik innovatsion klasterning muhim unsuri ekanligi masalalari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Intellektual tadbirkorlik, bilimlar iqtisodiyoti, axborot savodxonligi, yangi bilimlar, texnopark, technopolis.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены формирования интеллектуального предпринимательства, его основные черты и особенности их реализации. Также раскрыты проблемы интеллектуального предпринимательства, как важного элемента инновационного кластера.

**Ключевые слова:** Интеллектуальное предпринимательство, экономика знаний, информационная грамотность, новые знания, технопарк, технополис.

**Abstract.** This article examines the formation of intellectual entrepreneurship, its main features and features of their implementation. It also reveals the problems of intellectual entrepreneurship as an important element of the innovation cluster.

**Keywords:** Intellectual entrepreneurship, knowledge economy, information literacy, new knowledge, technopark, technopolis.

### KIRISH

Hozirgi davrda milliy xo‘jaliklarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, ularda mavjud bo‘lgan resurslar miqdori, faoliyat yuritayotgan korxonalar yoki ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish infratuzilmalarining amal qilishi bilan emas, balki ilmiy – amaliy tatqiqotlar natijasida (ilmiy yangiliklar, bilimlar) vujudga kelgan intellektual kapital (mulk) miqdori, hajmi bilan shuningdek, jamiyat a‘zolarining intellekti (bilimi, aqliy salohiyati, tajribasi, ko‘nikmasi) bilan belgilanadiki, ular qanchalik yuqori darajada bo‘lsa, mamlakatning taraqqiyoti, salohiyati, rivojlanish

ko‘lami ham shunchalik yuqori, jadal bo‘ladi.

Ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda shaxs, jamoa, millat intellektini shakllantirishga va uning asosida intellektual kapitalni rivojlantirish va qo‘llab – quvvatlashga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga intilishmoqda. Jumladan, shu maqsadda mamlakatimizda 2020-yil 29-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “O‘zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilinib, unda asosiy e‘tibor zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy

infratuzilmani modernizatsiya qilinishini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish masalalari belgilangan [1].

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda intellektual kapital miqdori va hajmini oshirib borishga, intellektual tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga e'tibor berishmoqda. Shuningdek, hozirgi vaqtda jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarilayotgan, fan sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlarning uchdan bir qismi intellektual kapitaldan foydalanish natijasida yaratilmoqda. Ushbu holatlar innovatsion rivojlanish sharoitida intellektual tadbirkorlik va intellektual kapitalning o'rnini va roli qanchalik yuqori ekanligini, hamda uni mazmun-mohiyatini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish zaruratini asoslab beradi.

#### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.**

Intellektual kapital tushunchasini iqtisodiy atama sifatida birinchilardan bo'lib **Dj.Gelbreyt** 1961 yilda muomalaga kiritgan. Ushbu tushunchaning tabiati, mazmun-mohiyatini esa **T.Styuart** tadqiq etgan. U o'zining 1991 yilda yozgan "Intellekt kuchi qanday qilib intellektual kapital Amerikaning qimmatli aktiviga aylangan" nomli maqolasida intellektual kapitalga: "... patentlar, jarayonlar, boshqaruv ko'nikmalari, texnologiyalar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar haqida axborotlar va tajribalar birgalikda intellektual kapitalni tashkil etadi" deb ta'rif bergan. Uning fikricha intellektual kapital korporatsiya, kompaniyalarga bozordagi raqobat kurashiga ustunlik, hamda oladigan daromadlarini maksimallashtirishga sharoit yaratadi [6].

**Y.Russ, S.Payk, L.Fernstemlar** intellektual kapitalni korxonalar va tashkilotlarning qiymat yaratishda ishtirok etadigan nomoddiy va pul ko'rinishiga ega bo'lmagan resurslar bilan bir xil tushuncha deb aytishgan [10].

Ularning fikricha intellektual kapital, alohida, mustaqil kapital sifatida amal qilmaydi.

**S.Albert va K.Bredlilar** intellektual kapitalni "Korxonalar, firma, individga, millatga raqobat ustunligini beruvchi bilimlarni foydali aktivlarga aylanishi jarayoni" deb ta'rif bergan [3]. **Dj.Tis** esa, intellektual kapitalni sinonimi "Bilimlar aktivi" tushunchasi bilan atab individual va tashkiliy bilimlardan iqtisodiy daromad olishga qaratilgan strategik aktivlar deb aytadi [9].

Intellektual kapital tushunchasini nazariy asosini yaratishda bir qator Rossiyalik iqtisodchi-olimlar ham o'z hissalarini qo'shishgan. Misol uchun **V.L.Inozemsev** intellektual kapitalga "Xodim bilimlari, intellektual mulk jamlagan tajribalar, firmalarning imidji, axborot tarkiblarini jamlanishidan shakllangan "Jamoaviy aql"-deb ta'rif bergan [2].

**B.B.Leontev** esa, korxonalar intellektual kapital tushunchasini "Ulardagi intellektual aktivlar, ya'ni sotib olingan intellektual mulk, xodimlar tajribasi hamda jamg'arilgan bilimlar bazasi va boshqa sub'ektlar bilan foydali munosabatlarni o'zida mujassamlashtirgan jami qiymat" sifatida qaraydi [7].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolani yozishda dialektik, empirik, tizimli va mantiqiy tahlil, ilmiy-

abstraksiya hamda qiyosiy tahlil usullaridan samarali foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Yuqorida keltirilgan iqtisodchi-olimlar ta'riflaridan xulosa qilishimiz mumkinki, intellektual kapitalning nazariy jihatdan bergan ta'riflarida, bilimlar asosiy, hal qiluvchi, belgilovchi tarkibiy qism hisoblanadi, hamda ularni ijtimoiy ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) jarayonlarida qo'llanishi shart. Ammo real iqtisodiy hayotda "Intellektual kapital" tushunchasiga ta'riflar turli soha mutaxassislari tomonidan turlicha talqin qilinadi. Misol uchun: ommaviy axborot vositalari xodimlari brendlarni, patentlarni, boshqaruv ko'nikmalarini, zamonaviy texnologiyalarni, iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar haqidagi ma'lumotlarni, ishlab chiqarish sirlarini intellektual kapital deb qabul qilishadi. Korxonalar va tashkilot boshqaruv xodimlari esa, qiymat yaratish maqsadida foydalanish mumkin bo'lgan barcha nomoddiy aktivlarni intellektual kapital deb tushunishadi.

Ammo jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy tarqqiyoti davomida intellektual kapitalni o'rni va rolini kuchaytirib borish bilan, uning mazmun mohiyati ham, tarkibiy elementlari turlari ham oshib bormoqda. Bizning fikrimizcha, intellektual kapital bu jamiyatda (mamlakatda) mavjud bo'lgan barcha intellektual potensialni kapitallashgan shaklidir. Intellektual kapital o'zining tarkibida to'plangan bilimlar, insonlarning (jamiyat a'zolarining) ilmiy salohiyati, ularning ma'naviy qadriyati, korxonalar va tashkilotlarning imidji, xodimlarning salohiyat tarkibi, mavjud axborot tizimi, ma'lumotlar banki va hokozolarni birlashtiradi. Bu

fikrdan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, intellektual kapital tarkibiy elementlarining turli-tumanligi uning tabiatiga xos bo'lgan xususiyatidir. Tarkibiy elementlar intellektual kapitalni shakllanishi va rivojlanishi jarayonida o'zaro uzviy bog'liqlikda amal qiladi va ularning bog'liqligi kuchayib boradi. Misol uchun, korxonaning tashkiliy jarayonida bilimlar va xodimlarning qobiliyati o'zaro uyg'unlashadi. Agarda xodimlarning ilmiy salohiyati past bo'lsa, u holda intellektual kapital shakllanmaydi va jamiyatda uning samarasi sezilmaydi. Aksincha, barcha tarkibiy elementlarning o'zaro uyg'unligi qanchalik yuqori bo'lsa, intellektual kapitalning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi o'rni va roli ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Intellektual kapitalning mohiyatini to'liqroq tushunib olish uchun funksional (unumli) kapital bilan uning umumiy jihatlari va farqlarini ajratish maqsadga muvofiq. Bizning fikrimizcha, ularning umumiy jihatlari quyidagilardan iborat:

-intellektual kapital ham, funksional kapital ham ma'lum resurslarni, ya'ni pul, moddiy vositalar, bilim, malaka, ko'nikmalarni, tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishga jalb qilish natijasida vujudga keladi;

-mazkur kapitallarning ikkala turi ham o'z egasiga daromad keltiradi;

- ularning ikkalasi ham qiymatning doiraviy aylanish jarayonida ishtirok etadi;

- intellektual kapital ham, funksional kapital ham ma'naviy jihatdan eskirib boradi, shuning uchun ham ularning ikkalasini qayta tiklash uchun sarf-harajatlar talab etiladi.

Shu bilan birgalikda intellektual kapital va funksional kapital o'rtasida farq qiladigan jihatlar ham mavjud bo'lib, ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Intellektual kapital nomoddiy ko'rinishga (nomoddiy aktiv) ega, funksional (unumli) kapital esa moddiy ko'rinishga egadir;

- funksional kapitaldan farqli, intellektual kapital istiqbolni (kelajakni) ko'zlab shakllanadi va harakatda bo'ladi;

- funksional kapital, uning har bir elementini sotib olish natijasida shakllansa, intellektual kapital esa uning barcha elementlarini o'zaro bog'liklikda va uyg'unlikdagi harakati orqali vujudga keladi.

Korxonalar, tashkilotlar, firmalarda intellektual kapitalni muvafaqqiyatli shakllantirishning sirlaridan biri, bu uning turli ko'rinishlari va elementlarini o'zaro bir-biri bilan samarali sinergetik bog'liklikda amal qilishidir. Ushbu holatda bilim, ilmiy yangilik, texnologiya va h.k ko'rinishidagi intellektual kapital korxonalar, firmalarning tashqi kontragentlari bilan birgalikda harakatda bo'ladi va o'ziga xos tarzda intellektual kapitalni amal qilinishini ta'minlaydi. Bunda intellektual kapital sohiblari maxsus tanlangan va tayyorlangan korxonalar personalini, korxonaning buyumlashgan kapital tarkibi va mijozlar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Intellektual kapitalning muhim xususiyatlaridan biri, kompaniyalar, uning barcha shakllariga, xususan inson va iste'mol kapitallariga egalik qilish huquqiga ega emas. Balki ulardan kompaniya o'z xodimlari bilan hamkorlikda foydalanishi mumkin.

Hozirgi davrda, "Intellektual kapital" tushunchasi bilan bir qatorda "Nomoddiy aktivlar", "Intellektual mulk" kabi tushunchalar ham iqtisodiy leksionda keng qo'llanilmoqda. Ushbu tushunchalar sinonim tushunchaga ega bo'lmasdan, o'zaro bir-biri bilan bog'liq. Lekin, ular o'rtasida ajratuvchi chegaralar mavjud. Misol uchun, insonning intellektual va ishbilarmonlik qobiliyati, ularning kasbiy ko'nikmasi va mehnat qilish qobiliyati, nomoddiy aktiv ham, intellektual mulk ham bo'la olmaydi. Ammo ular intellektual kapitalning elementi hisoblanadi. Shuningdek, nomoddiy aktivlarning barchasi ham tashkilot intellektual mulk ob'ekti bo'la olmaydi.

Zamonaviy korxonalar, tashkilotlar, firmalar o'z faoliyatini tashkil etishda asosiy e'tiborni ustav kapitalining salmoqli qismini intellektual kapital tashkil qilishga qaratishmoqda. Misol uchun, zamonaviy xorijiy korxonalarning menejerlari uzoq muddatga hamkorlarni tanlashda ularning umumiy kapitali tarkibida 40 % intellektual bo'lsagina shartnoma tuzishadi va hamkorlikda ish olib borishadi.

Demak, xulosa sifatida shuni e'tirof etishimiz mumkinki, hozirgi davrda ko'plab rivojlangan bozor iqtisodiyotli mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlantirishni bosh omili sifatida intellektual kapitalni ham gorizontal, ham vertikal rivojlantirishga qaratishmoqda. Shuningdek, ular iqtisodiyotdagi tarkibiy qayta qurishni fan sig'imi yuqori bo'lgan ishlab chiqarish tarmoqlari va sohalarida amalga oshirishmoqda. Buni Shvesiya iqtisodiyoti misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bu mamlakatda past rentabelli

kema qurilishi, qora metallurgiya, to'qimachilik kabi an'anaviy tarmoqlarida tarkibiy qayta qurish amalga oshirilib, yuqori texnologiyali bir qator tarmoqlar: mashinasozlik, elektrotexnika mahsulotlari, oziq-ovqat sanoati uchun uskunalari, mebel sanoati jadal rivojlanmoqda.

Intellektual kapital to'g'risidagi qarashlarni umumlashtirgan holda, uning tarkibiy tuzilishi va namoyon bo'lish shakllari haqida to'xtalib o'tish mumkin. Mazkur muammoga oid adabiyotlarda intellektual kapital o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan inson kapitali, tashkiliy kapital, va iste'mol kapitali (munosabatlar kapitali)ga ajratilgan. Ularni har birini alohida qarab chiqish maqsadga muvofiq.

Bilim, tajriba, ijodiy qobiliyat, ma'naviy qadriyat, mehnat madaniyati va boshqa elementlardan tashkil topgan inson kapitali korxonalar va firmalarning eng qadrligi bo'lib, innovatsiyaga asoslangan iqtisodiyot sharoitida ular daromad olishga qaratiladi. Inson kapitalining bilim, ko'nikma, tajriba olish uchun qilingan sarf-harajatlari ma'lum vaqtdan so'ng ishchining o'ziga hamda uning yollovchisiga sezilarli darajada daromad keltiradi. Demak, inson kapitalini, inson potensialini kapitallasuvi natijasida insonning o'ziga va uning yollovchisiga daromad keltiruvchi kapital sifatida qarash mumkin. Mohiyatan inson kapitali intellektual kapitalni barcha belgilarini o'zida mujassamlashtiradi. Shu bilan birga uning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ular bizning fikrimizcha, quyidagilardan iborat:

- inson kapitalini uning egasidan ajratib bo'lmaydi hamda u biror bir mulkdor mulki ham bo'la olmaydi;

- inson kapitali uning egasi (sub'ekti) bilan birgalikda harakatda (aylanishda) bo'ladi;

- sohibkorlik kapitaliga nisbatan inson kapitali o'zini qoplash (u uchun qilingan sarf-harajatlarni) muddati birmuncha uzoq davom etadi.

Inson kapitalining yana bir o'ziga xos xususiyati, uni shakllantirish muddatini birmuncha uzoq davom etishidir (ekspertlar fikriga ko'ra inson kapitali 11-17 yil davomida shakllanadi). Shuningdek, uni jamg'arilishi jarayoni ham turlicha kechishi mumkin. Mazkur kapitalga yo'naltirilgan bir xil miqdordagi investitsiya turli xil omillar ta'sirida turlicha natija berishi mumkin. Ya'ni, ularga investitsiya yo'naltirilgan sub'ektning shaxsiy qiziqishi, motivatsiyasi, miqdori va h.k. lar ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Inson kapitalida innovatsion ishlab chiqarishning muhim amal qiluvchi tarkibiy qismi sifatida asta-sekinlik bilan intellektual faollik komponenti shakllanib boradi. Bizning fikrimizcha, intellektual faollikni qanchalik yuqori bo'lishi inson kapitalini ro'yobga chiqarishini (kapital sifatida insonlarning mehnat qilish qobiliyatini) to'liqroq amalga oshirishga, hamda uni oddiy ishchi kuchi va mehnat qilish qobiliyatini "kapitallasuvi" jarayoni farqini belgilaydi.

Tashkiliy kapital o'z tarkibiga korporativ axborot tizimi, ma'lumotlar bazasi, texnik va dasturiy ta'minot, tashkiliy tarkib, mualliflik huquqi, patentlar, nou-xaular, litsenziyalar, tovar belgilari, korporativ madaniyat kabilarni umumlashtirib, ikki vazifani ya'ni, birinchidan, faoliyat asosi sifatida bilimlarni jamlanishiga va ikkinchidan,



kompaniya ichida axborotlar harakatini jadallashuviga sabab bo'ladi.

Tashkiliy kapital axborot tizimlarini shakllanishi va rivojlanish jarayonida jamg'arilib borilib, inson kapitalini nafaqat to'liqroq namoyon bo'lishiga, balki uni tashkiliy muhitga mos ravishda doimiy takomillashiga imkoniyat yaratadi. Tashkiliy kapital - inson kapitali samaradorligini belgilab, u o'zida har qanday faoliyat strategiyasi bosh maqsadini ifodalaydi. Inson kapitalidan farqli ravishda tashkiliy kapital kompaniyaning mulki hisoblanib u sotilishi yoki sotib olinishi mumkin.

Raqobat kurashi jarayonida korxonalar, tashkilotlar, kompaniyalarning yuqori natijalarga erishishi uchun nafaqat inson yoki tashkiliy kapital balki, iste'mol kapitali ham muhim ahamiyat kasb etadi. Iste'mol kapitali to'g'risida turli xil ilmiy qarashlar mavjud. Misol uchun A.Marshall iste'mol kapitalini tovar kapitalini tarkibiy qismlaridan biri sifatida qarashni taklif etadi. G. Bekker esa, iste'mol kapitalini insonda u yoki bu ne'matni iste'mol qilishi jarayonida shakllangan maxsus qobiliyatlar va tajribalar fondi sifatida talqin etadi. Ba'zi mutaxassislar iste'mol kapitalini "mijoz" kapitali yoki "munosabatlar kapitali" deb e'tirof etishadi. Chunki, u yoki bu kompaniya mijozlari doimiy munosabatda bo'lgan kompaniyalarga ishonch bildirishadi va mazkur kompaniya bilan doimiy aloqada bo'lishadi. Shu sababli iste'mol kapitalini "munosabatlar kapitali" deb atashadi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilib, iste'mol kapitalini ta'rifi va uning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini quyidagicha ifodalash mumkin:

Bizning fikrimizcha, iste'mol kapitali – bu mijozlar bilan tarixan shakllangan o'zaro munosabatlarga, ular haqida to'plangan va doimiy ravishda yangilanib boradigan axborotlar asosida korxonalar maxsuloti va uning iste'molchilari bilan uzviy aloqasidir. Bu aloqalar iste'molchilar, buyurtmachilar, raqobatchilar hamda tovar va xizmatlar brendlari, savdo markalari, tashkilot nufuzi orqali bo'ladigan munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Iste'mol kapitali tashkilot doimiy mijozlarining miqdori va sifati hamdir. Ammo, shuni ta'kidlash lozimki, iste'molchiga ta'sir qiladigan vositalar ya'ni tovar markalari, brend, firma nufuzi kabilar bir vaqtning o'zida tashkiliy kapitalga ham tegishlidir. Misol uchun, tashkiliy kapital elementi bo'lmish savdo markasi brendga aylansa, u iste'molchiga tegishli bo'ladi, ya'ni, brend kishilar ongiga singishi bilan iste'mol kapitalining komponentiga aylanadi. Iste'mol kapitalining shakllanishi firma, korxonalar va tashkilotlar tashqi muhitining alohida elementlari bilan chambarchas bog'liq.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili, xarakatlantiruvchi kuchi jamiyat a'zolarining intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Chunki, insonlarning intellekti (bilimi, aqliy salohiyati, tajribasi, ko'nikmasi) qanchalik yuqori bo'lsa, jamiyatning taraqqiyoti, salohiyati, rivojlanish ko'lami ham shunchalik yuqori bo'ladi. Shuning uchun ham hozirgi davrda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda intellektni, intellektual kapitalni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategik dasturlarni ishlab chiqishga hamda amalga oshirishga qaratilmoqda.

Shunday chora-tadbirlardan biri bu intellektual kapitalni to'laonli ro'yobga chiqishiga imkoniyat yaratuvchi intellektual tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishdir.

Dastlab, I.Shumpeter tomonidan "tadbirkorlik" tushunchasini ilk bor muomalaga kiritilganidan so'ng uning mazmuni, ijodkorlik, maqsadga erishish uchun intilish, xavf-xatarga tayyorlik kabi belgilari bilan boyitildi. Tadbirkorlik tushunchasini ta'rif ham uning mazmun mohiyatini yaqqolroq namoyon eta boshladi. Hozirgi vaqtda unga berilgan quyidagi ta'rif "Tadbirkorlik – bu hozirgi davrda nazorat chegarasidan tashqarida imkoniyatlarni qidirib topish" degan ta'rif iqtisodiy adabiyotlarda ommalashib bormoqda. Ushbu ta'rif tadbirkorlikning bir qator yangi belgilarini ya'ni boshqalar ko'ra olmagan imkoniyatlarni ko'rish, topqirlik, xavf-xatarga tayyorlik, istiqbolni ko'ra bilish uchun bilimlarga ega bo'lish kabi belgilarni o'zida mujassamlashtiradi. Fikrimizcha, ushbu belgilarni tadbirkorlarda mujassamlashtirilishi tadbirkorlikni amal qilish tabiatini tubdan o'zgarishiga sabab bo'ladi. Xususan, uni "intellektual" tadbirkorlik ko'rinishini olishga olib keladi.

Intellektual tadbirkorlik tushunchasini dastlab 20-asrning 80 yillarida Texas universiteti professori Ostin Richard Chervis qo'llagan. Uning intellektual tadbirkorlik g'oyasi asosida AQShda ilk bor intellektual tadbirkorlikni rivojlantirish dasturini amalga oshiruvchi universitetlar konsorsiumi tashkil etilgan. Ushbu konsorsiumning asosiy vazifasi aniq fuqarolik jamiyatini qurish maqsadiga

qaratilgan olimlarni tayyorlashga yo'naltirilgan. Chervisning fikricha, intellektual tadbirkorlik g'oyasi e'tiqodlarga asoslanib, akademik soha bilan cheklanmaydi. Intellektual tadbirkorlik – bu madaniy innovatsiyalar jarayonidir. Bu ta'rifda biz tadbirkorlikni birmuncha keng ma'noda ifodalanishini ko'rishimiz mumkin. Chervis moddiy boylik yaratish bilan bog'liq faoliyatni tadbirkorlikning bir usuli sifatida talqin qilib, asosiy e'tiborni inson faoliyatini ijtimoiy jihatlariga qaratadi [4].

Intellektual tadbirkorlikni talqin qiluvchi boshqa bir guruh olimlar, ya'ni B.Yoxannison, S.Kvyatnovskiy, T.Dendrijlar intellektual tadbirkorlikni o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib ta'rif berishgan. Ularning intellektual tadbirkorlik to'g'risida g'oyalari - bilim va harakatlar o'rtasidagi uzviy ketma-ketlikka bog'liq bo'lib, ya'ni intellektual egasi o'z e'tiborini o'ylashga, fikrlashga va yangilik yaratishga qaratsa, intellektual tadbirkor esa, o'z faoliyatini yaratilgan g'oyalarni amalga oshirishga yo'naltiradi [5].

Bu fikrdan shunday xulosa qilish mumkinki, intellektual tadbirkorlar yuqorida e'tirof etilgan ikki qobiliyatni o'zida mujassamlashtiruvchi o'ziga xos shaxslardir. Demak, bizning fikrimizcha, intellektual tadbirkorlar o'z faoliyatlarini olib borishlari bilan bir qatorda bilimlarini oshirishga, ilmiy yangiliklar qilishga, yangiliklarni amaliyotga joriy etishga xarakat qilishlari kerak. Shunday holdagina intellektual tadbirkorlik tadbirkorlik shakli sifatida rivojlanadi.

Intellektual tadbirkorlikda moliyaviy foyda olishga intilish birlamchi ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Balki, uning tabiatida intellektual tadbirkor tomonidan o'zlashtirishi lozim bo'lgan quyidagi to'rtta tarkibiy belgilar muhim ahamiyat kasb etadi:

**Birinchiidan.** Intellektual botirlik (qo'rqmaslik). Ma'lumki, yangi bilimlar olam haqidagi qarashini o'zgartirib, uni murakkab tuzilma ekanligi haqida tasavvur uyg'otadi. Natijada murakkab olamni tushunish uchun bilimlar taqchilligi vujudga keladi va tadbirkorlarda qo'rquv va faoliyatini cheklash (yoki to'xtatish) hissiyotini paydo qiladi. Intellektual botirlik esa har qanday darajadagi qiyinchilikni bartaraf etish odatini shakllantiradi. Intellektual tadbirkorlikda intellektual botirlik (qo'rqmaslik) belgisini biz jahon iqtisodiyoti amaliyotida Genri Ford, Bill Geys, Ilon Mask kabi tadbirkorlarning g'oyalarini amalga oshirishida ko'rishimiz mumkin.

**Ikkinchiidan.** Axborot savodxonligi. Intellektual tadbirkorlikda axborot savodxonligi belgisi iqtisodiy hayotda tadbirkor faoliyati uchun zarur bo'lgan katta hajmdagi axborotlarni topish va qayta ishlash qobiliyatini shakllantirish orqali namoyon bo'ladi. Bu qobiliyat ko'proq sub'ektlarni intuitiv rivojlanishi bilan bog'liqdir, chunki, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va xulosalar qilish uchun vaqt chegaralangan. Shuning uchun axborotlarni qayta ishlash va xulosa qilish ko'nikmasini shakllantirish hozirgi davrda muhim ahamiyatga ega.

**Uchinchiidan.** Yangi bilimlarni yaratish qobiliyati. Intellektual tadbirkorlikning ushbu belgisi ko'proq aqliy faoliyat bilan shug'ullanuvchilarda shakllanib, ularda amaldagi bilimlarga (ilmiy yangilikga) qoniqmasligi oqibatida yangi bilimga, uni yaratishga

bo'lgan intilishi natijasida shakllanib boradi. Yangi bilimlarni yaratish qobiliyati har qanday ijtimoiy-iqtisodiy muhitda vujudga kelmaydi. Hozirgi davrdagi raqobat muhiti, hamda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar intellektual tadbirkorlik sub'ektlaridan yangi bilimlarni muntazam yaratishni talab etadiki, oqibatda ularda mos ravishda shunday qobiliyat shakllanib boradi.

**To'rtinchiidan.** Yangi bilimlarni yaratish uchun kuchli motivatsiya. Yangi bilimlarni yaratish uchun motivatsiyalashni fikrimizcha, ikki turga ya'ni, tashqi va ichki motivatsiyaga ajratish maqsadga muvofiq. Tashqi motivatsiya intellektual tadbirkorlikni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bilan amalga oshirilsa, ichki motivatsiya esa, yangi bilimlarni yaratish uchun individumlarni ilmiy-intellektual guruhlarga birlashtirish bilan xohish-istaklarini uyg'otish orqali ro'yobga chiqadi. Fikrimizcha, yangi bilimlarni generatsiyalash uchun motivatsiyaning "ichki" turi ko'proq ijtimoiy-iqtisodiy samaraga ega. Shuni e'tirof etishimiz kerakki, yuqorida ta'kidlangan intellektual tadbirkorlik belgilarini jamiyatning har bir a'zosida shakllantirish va rivojlantirish mumkin bo'lib, buning uchun ma'lum shart-sharoitlar bo'lishi lozim. Shunday shart-sharoitlarni yaratib beruvchi omillardan biri bu innovatsion klasterdir.

### **Xulosa**

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilish mumkinki, inson kapitalini, inson potensialini kapitallashuvi natijasida insonning o'ziga va uning yollovchisiga daromad keltiruvchi kapital sifatida qarash mumkin. Mohiyatan inson kapitali

intellektual kapitalni barcha belgilarini o'zida mujassamlantirib, birinchidan, u o'z sohibi bilan birgalikda iqtisodiy faoliyatda harakatda bo'ladi va ikkinchidan, sohibkorlik kapitaliga nisbatan inson kapitali o'zini qoplash muddati birmuncha uzoq davom etadi.

Inson kapitalining yana bir o'ziga xos xususiyati, uni shakllantirish muddatini birmuncha uzoq davom etishidir. Shuningdek, uni jamg'arilishi jarayoni ham turlicha kechib, mazkur kapitalga yo'naltirilgan bir xil miqdordagi investitsiyalar turli xil omillar ya'ni, sub'ektning shaxsiy qiziqishi, motivatsiyasi, investitsiya miqdori kabi omillar ta'sirida turlicha natija beradi.

Inson kapitalida innovatsion ishlab chiqarishning muhim amal qiluvchi

tarkibiy qismi sifatida asta-sekinlik bilan intellektual faollik komponenti shakllanib, intellektual faollik qanchalik yuqori bo'lishi inson kapitalini "kapital" sifatida to'liqroq ro'yobga chiqishini hamda insonni oddiy ishchi kuchi bilan uning mehnat qilish qobiliyatini "kapitallashuvi" jarayoni o'rtasidagi farqini belgilaydi.

Intellektual kapitalning tarkibiy shakllari bo'lmish inson kapitali, tashkiliy kapital, iste'mol kapitali bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liklikda amal qilib, ularning har biri yetarli miqdorda investitsiya resurslari bilan ta'minlansa, bir tomondan ular o'rtasidagi uzviylik kuchayadi, ikkinchi tomondan, intellektual kapitalni bir turini ikkinchisiga ta'siri sababli sinergetik samara ortib boradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097 – sonli Farmoni.* [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

2. *Иноземцев В. Л. За пределами экономического общества - М.: МАcademia"С - "Наука", 1998. С. 340.*

3. *Albert S., Bradley K. The Impact of Intellectual Capital / Open University Business School Working Paper. 1996. - №15. – P. 98-101.*

4. *Cherwitz R. Developing intellectual interpreneurship. Wash, 2001.P5.*

5. *Johannison B., Kwiatkowsky S., Danridge T.C. Intellectual interpreneurship.- Emerging identity in a learning perspective, 2011.*

6. *Stewart, T. (1991), Brainpower, Fortune, 3 June (1991) 42–60.*

7. *Леонтев Б.Б. Цена интеллекта. Интеллектуальный капитал в Российском бизнесе. М.: Изд. Центр «Акционер», 2002. С. 101.*

8. *Портер М. Конкуренция. Москва. Вильямс. 2005г. 605с. 3. Stevenson H.H., Gumpert D.E. The Heart of Entrepreneurship. Harvard Business Review. March-April, 1985.p.85-94.*

9. *Тис Дж. Получение экономической выгоды от знаний как активов: «новая экономика», рынки ноу-хау и нематериальные активы // Российский журнал менеджмента 2004. - Т. 2. – С. 14-21.*

10. *Цибулнов П.М. Интеллектуальный капитал – визначальний ресурс економічного зростання / Проблеми та перспективи розвитку інноваційної діяльності в Україні: матеріали бізнес-форуму (Київ, 17 квітня 2008 р.) / Відп. ред. Н.В. Притулска. К.: Київ. нас. торг. економ. ун-т, 2008.*

<https://doi.org/10.59251/2181-3973.2023.v3.138.3.2554>

## SANOATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLINI ISH BILAN BANLIGINI TA'MINLASH

**Bozorov Berdimurod Ulug'murodovich –**

*Sh.Rashidov nomidagi SamDUning Inson resurslari  
va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti  
dotsenti, i.f.n.*

**Annotatsiya:** Maqolada sanoatni rivojlantirish orqali aholi ish bilan ta'minlanish holatlari o'rganilgan. Asosiy e'tibor ish bilan bandlikni ta'minlashda foydali mehnat bilan band bo'lish holatlari o'rganib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** bandlik, ijtimoiy mehnat, tashabbus, daromad, ishsizlik, turmush darajasi, samarali bandlik.

**Аннотация:** В статье рассматривается занятость населения за счет развития промышленности. Основное внимание уделяется случаям оплачиваемой работы по обеспечению занятости.

**Ключевые слова:** занятость, социальная работа, инициатива, доход, безработица, уровень жизни, эффективная занятость.

**Annotation:** The article examines employment through industrial development. The focus is on cases of paid work to provide employment.

**Key words:** employment, social work, initiative, income, unemployment, standard of living, effective employment.

**Kirish.** Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish davrida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati faqat insonlarning manfaatlarini ishonchli ravishda himoya qilishdangina iborat bo'lmasdan, balki mehnatga yaroqli aholini ish bilan bandligini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, aholining o'sishi yuqori sur'atlar bilan borayotgani respublikada ish bilan bandlik masalasi eng muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Aholini ish bilan ta'minlash uning takror ishlab chiqarishi uchun zarur shartdir. Chunki kishilarning turmush darajasi jamiyatning kadrlar tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishga joylashtirish, ishsizlarni moddiy jihatdan qo'llab - quvvatlash uchun sarf qiladigan chiqimlarni kamaytirish aholini ish bilan ta'minlanishiga bog'liqdir. Ish bilan bandlik inson ijtimoiy

kamolatining eng muhim tomonlaridan birini ochib beradiki, bu uning mehnat sohasidagi va mehnat bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga aloqadordir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Sanoatni rivojlantirish orqali aholi ish bilan bandlii to'g'risidagi fan vakillari, sotsiologlar, psixologlar hamda iqtisodchi olimlar izlanishlar olib borganlar.

Q.X. Abdurahmonovning fikricha xalqaro mehnat tashkilotining rasmiy hujjatlarida mehnatga layoqatli yoshda hisobga olinayotgan qisqa vaqtda (hisobga olinayotgan hafta yoki so'nggi 7 kun davomida) ish haqi yoki foyda ko'rish evaziga eng kamida 1 soat davomida tovarlar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq har qanday faoliyatni amalga oshirayotganlarni ish bilan bandlar degan xulosaga keladi [1].

Iqtisodchi olim D.A.Ortiqova, mehnat bozorining tashkil etilishi va faoliyat yuritishini bozor iqtisodiyoti sharoitida bandlikni ta'minlash va uni qo'llab-quvvatlashning muhim halqasi sifatida qaraydi [2].

Klassik nazariya maktab vakili bo'lgan A.Smit esa «Xalqlar boyligi tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot» asarida ish bilan bandlik odamlarning faoliyati va intilishlari ularning shaxsiy iqtisodiy manfaatlari orqali belgilanishini ta'kidlaydi [3].

Akademik Q.X.Abdurahmonov fikricha «Ish bilan bandlik – fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi va daromad keltiradigan faoliyatidir» degan ta'rifni beradi [4].

Iqtisodchi olimlarimizdan A.O'lmasov va A.Vahobovlar fikricha «Bandlik mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan va mehnat qilishga ishtiyoqi bor kishilarni ishga joylashib, foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishlaridir» [5].

A.G.Gryaznov, bandlikni ish joy bilan ta'minlash va xo'jalik faoliyatida ishtiroki bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar to'plami deb ataydi. Uning fikricha, bandlik moddiy omillar ishlab chiqarishga taalluqli iqtisodiy faol aholini tasvirlaydi. Bandlikda jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi hamda iste'mol qiluvchi kuchlari o'zi namoyon qiladi. Chunki, undagi ishlab chiqarishning ob'ektiv sharoitiga munosabat, jami aholining takror ishlab chiqarish sharoiti hisoblanuvchi mehnatkashlar yashashlari uchun mablag'lar olish vositasi bo'lib xizmat qiladi [6].

## **Tadqiqot metadologiyasi.**

Sanoatni rivojlantirish orqali aholini ish bilan bandligini ta'minlash va ishsizlikni kamaytirish bo'yicha mavjud ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotlarni guruhlash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** O'zbekiston Respublikasining «Aholi bandligi to'g'risida»gi qonunining 2-moddasida qayd etilganidayek: «Bandlik fuqarolarning qonunchilikda taqiqlanmagan, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir» [7].

Aholini ish bilan bandlik shakllari O'zbekistonda hozirda mavjud ish bilan bandlik munosabatlari modelini tashkil etadi. Modelda ish bilan bandlikning yangi shakllari, ish bilan bandlik chegaralarining kengayishi, ish bilan bandlik u yoki bu shakllarining hozirgi realliklarga to'g'ri keladigan mazmun bilan to'ldirilishi aks ettirilgan.

Ijtimoiy mehnatda qatnashish usuli bo'yicha aholining ish bilan bandligi yollanish bo'yicha ish bilan bandlik va o'z-o'zini yollash tufayli mustaqil ravishda ish bilan band etish orqali xarakterlanadi. Yollanish bo'yicha ish bilan bandlik ishlab chiqarish vositalari egalari bilan ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lmagan va bo'lg'usi mehnati (o'z ishchi kuchi)ni ish haqi shaklidagi muayyan qiymatga almashinish tarzida sotadigan xodimlar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlardir.

Shuni ta'kidlash joyizki o'z-o'zini yollash tufayli mustaqil ish bilan bandlik (self-employment) aholining ish bilan bandligini ta'minlashda nisbatan yangi shakldir. Bu shunday ijtimoiy, huquqiy munosabatlarki, ularga kishilar ijtimoiy foydali mehnatda qatnashish tufayli kirishadilar.

Ular shaxsiy tashabbus, mustaqillik va mas'uliyatga asoslanadi hamda odatda, mehnat daromadi olishga yo'naltirilgan bo'ladi va insonning o'zini namoyon etishi va o'z shaxsini qaror toptirishini keltirib chiqaradi. Bunda miqdor emas, balki sifat ko'rsatkichi muhimroqdir.

Insonni ish bilan mustaqil band bo'lganlar sirasiga kiritish uchun olingan daromad miqdori yoki mehnatda qatnashgan vaqti tarzidagi miqdor mezondan foydalanib bo'lmaydi, chunki kishilarning manfaat, ehtiyoj va imkoniyatlari turlicha va ularni hamisha dam taqqoslashning iloji bo'lavermaydi. Inson tomonidan ana shu ish bilan bandlik keltiradigan mablag'lar (pul ekvivalenta yoki tabiiy mahsulot)dan o'z tirikchiligi uchun foydalanishi muhim hisoblanadi.

Iqtisodiyot va insonning ehtiyojlariga to'g'ri kelish darajasiga ko'ra, ish bilan bandlik oqilona, samarali mahsuldor va eng maqbul ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Ish bilan oqilona bandlik agregatsiyalangan ijtimoiy-iqtisodiy tushunchadir. Uning mazmuni bir necha blokni o'z ichiga oladiki, ularning mehnat bozoridagi bor-yo'qligiga ko'ra ish bilan oqilona bandlik ekanligi yoki oqilona emasligini aniqlash mumkin. Bular jamiyat, ijtimoiy guruh va ayrim shaxsning manfaatlarini hisobga olish; jamiyatning iqtisodiy jihatdan yuqori

darajada rivojlanishini ta'minlash; jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarining o'zgarishlariga xozir javoblik ko'rsatish kabilardir. Ish bilan oqilona bandlikni iqtisodiy faol aholi umumiy sonida mahsuldor ish bilan bandlar ulushi tavsiflaydi.

Ish bilan oqilona bandlikning ish bilan bandlik kabi shakli mavjudligini barcha olimlar ham tan olavermaydi. Ko'pchilik faqat ish bilan to'liq va samarali bandlikni ajratishni ma'qul ko'radi. Holbuki, ish bilan oqilona bandlik tasniflash elementa bo'lishi lozim va ish bilan bandlikni samarali deb, yillar o'tib, uzoq istiqboldagina baholash mumkin, mehnat sohasida va ish bilan bandlik borasida jarayonlarni boshqarish uchun esa qisqa va o'rta muddatli istiqboldagi ish bilan bandlik holati baholanishi zarur. Bunda ish bilan oqilona bandlikni ish bilan samarali bandlikka qarama-qarshi qo'ymaslik kerak. Ish bilan oqilona bandlik - ish bilan samarali bandlikning shart-sharoiti, unga erishishdagi pillapoyadir. Ish bilan oqilona bandliksiz ish bilan samarali bandlik ham bo'lmaydi.

Innovatsion iqtisodiyotda qishloq aholisini ish bilan ta'minlashning asosiy mezonlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ular qishloq ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Qishloq aholisini ish bilan ta'minlashning asosiy ko'rsatkichlari bir tomondan, qishloq ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ko'rsatkichlar tizimiga kirsam, ikkinchi tomondan, qishloq xo'jaligi rivojlanishini pirovard ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Mamlakatda yangi ish o'rinlari

yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026 yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish" dolzarb masala hisoblanadi [8]. Shuning uchun yangi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish davrida

qishloq aholisini ish bilan ta'minlashning asosiy mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish obyektiv zaruriyat hisoblanadi.

### 1-jadval

#### O'zbekistonda aholi sonining o'zgarishi (ming kishi)

Ko'rsatkich-lar	Yillar					2022 yilda 2018 yilga nisbatan o'zgarishi	
	2018	2019	2020	2021	2022	+,-	foiz
Jami aholi soni	32656,7	33255,5	33905,2	34558,9	36197,8	3541,1	110,8
Shundan:							
Shahar aholisi	16532,7	16806,7	17144,1	17510,4	18459,8	1927,1	111,7
Qishloq aholisi	16124,0	16448,8	16761,1	17048,5	17738,0	1614,0	110,0

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi*

Bugungi kunda mamlakat aholisi Markaziy Osiyo davlatlarida yashayotgan jami aholining 46,0 %idan ortig'ini tashkil etmoqda. Demografik holatlarga bog'liq holda, mamlakatimizda mehnat resurslari soni yil sayin ortib bormoqda. Tahlillar shundan dalolat bermoqdaki, 2022 yilda respublikamiz aholisi 2018 yilga nisbatan 3541,1 ming kishiga ko'payaygan. Bunday holat respublikamizda demografik vaziyatning murakkabligidan dalolat beradi. Chunki mehnat bozorida demografik "bosim"ning kuchayishi yoshlarning ish bilan ta'minlash muammosini kuchayishiga sabab bo'ladi. Tahlil etilayotgan davrlarda O'zbekiston Respublikasida aholi soni 110,8 %ga oshgan. Respublikamizda shahar aholisini muntazam ko'payib borishi kuzatilmoqda,

ya'ni 2022 yilda 18459,8 ming kishini tashkil etgan, ya'ni bu ko'rsatkichning 2018 yilga nisbatan o'sishi 11,7 % ga oshgan. Qishloq aholisi ham o'z navbatida o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2022 yilda 17738,0 ming kishi yoki 2018 yilga nisbatan 10,0 %ga oshganini ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

Bu borada, mamlakatimiz uchun mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan bandligini sifat jihatdan oshirish bo'yicha muammoni hal qilishning eng unumli jihatlaridan biri sigatida demografik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni o'rh-ganishni taqozo etadi:

– respublika aholisining 50% ga yaqini qishloq joylarda istiqomad qiladi va yalpi ichki mahsulotning (YaIM) 21% dan ko'prog'ini ishlab chiqaradi;

– mehnatga qobiliyatli ish bilan band bo'lmagan qishloq ishchi kuchining malaka va safarbarlik darajasini pastligi;



– qishloq joylarida turli korxonalar tomonidan yangi ishchi joylarini yaratish yo‘li bilan ishchi kuchi bo‘lgan talab va taklifi o‘rtasidagi ratsional nisbatni ta‘minlash uchun haqiqiy imkoniyatlar mavjud.


Qishloq aholisini ish bilan ta‘minlashni asosiy mezonlari quyidagilardan iborat: yangi ish joylar yaratishni ko‘paytirish; qishloq aholisi mehnat daromadlarini oshirish; ishchi kuchi taklifini kamaytirish; ish bilan oqilona bandlikni ta‘minlash; tabiiy ishsizlik darajasiga erishish.

Ish bilan samarali bandlik ijtimoiy boshqaruvning jamiyat rivojining mazkur bosqichida turmush tarzining mezonlari taqozo etadigan xodimlarni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tiklab borishga qodirligini nazarda tutadi. Ish bilan samarali bandlikning ushbu ko‘rinishda bo‘lishi daromad keltiradigan ijtimoiy foydali faoliyat bilan band bo‘lish hamda ish o‘rinlarining ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lishini nazarda tutadi. Ish bilan samarali bandlik, shuningdek, ko‘plab variantlar orasidan ijtimoiy va iqtisodiy

samaradorlik mezonlari yig‘indisi bo‘yicha aniqlangan eng yaxshisini tanlab olishni ham nazarda tutadi.

Samarqand viloyati iqtisodiy-ijtimoiy salohiyati bilan mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan yetakchi viloyatlardan biri hisoblanadi. Ana shunday salohiyat yildan-yilga ortib va mustahkamlanib, viloyat iqtisodiyotining barqaror o‘sish sur‘atlarining ta‘minlashga, aholini ish bilan yuqori darajada ta‘minlanganligini, aholi farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Вилюятда aholini ish bilan bandligini ta‘minlash ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri, xalq turmush darajasi va sifatini yuksaltirishning muhim sharti sifatida belgilangan.

Samarqand viloyatida ham keyingi yillarda, aholining muntazam ravishda ortayotganini kuzatishimiz mumkin. Samarqand viloyati aholisi 2022 yilda 4118,2 ming kishiga yetdi. Viloyat aholisi 2017 yilda 3651,7 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilda 2017 yilga nisbatan 12,8 % ga o‘sgan (1-rasm).



1-rasm. 2017-2022 yillar davomida Samarqand viloyati aholisining o‘zgarishi dinamikasi (ming kishi)

Innovatsion iqtisodiyotda mehnat bozorini samarali faoliyat ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u bozor iqtisodiyoti tizimidagi alohida o'rni va viloyatda amalga oshirilayotgan islohotlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Mehnat bozorining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sirini aholini ish bilan bandligini ta'minlash shaklida ifodalash mumkin.


Вилоятда ish bilan bandlik va ishsizlik bir biriga tez almashinishi mumkin. Samarqand viloyati hududlarida aholini ish bilan bandligini ta'minlashning hududiy xususiyatlari va ishsizlikni kamaytirishda mehnat bozorining ahamiyati katta hisoblanadi. Chunki ishchi kuchi taklifi va unga bo'lgan talabi aynan mehnat bozorida o'zaro to'qnashadi. Shu bois, bu infratuzilmani samarali rivojlantirish iqtisodiyotni yangilash sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Viloyat aholisining ish bilan bandligini ta'minlash muhim

masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, hududda ishsizlik muammosining mavjudligi bozor iqtisodiyotining ajralmas xususiyatidir. Shunday ekan, ishsizlik muammosini o'rganishdan asosiy maqsad – qishloq joylarida aholining ish bilan bandligini oshirish orqali mamlakat ishlab chiqarishini kengaytirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlar ishlab chiqishdan iborat. Ayniqsa, chuqurlashgan iqtisodiy islohotlar sharoitida aholi bandligini ta'minlash masalasi yanada dolzarb tus oldi.

2022 yilda Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (YaHM) ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda 62440,3 mlrd. so'mni, 2021 yilda esa 53749,9 mlrd.so'mni tashkil qilib, ushbu ko'rsatkich 2022 yilda 2021 yilga nisbatan taqqoslama narxlarda 16,2 foizga o'sgan (2-rasm).

Jumladan, 2022 yil davomida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 21955,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,5 foizni tashkil qildi.



**2-rasm. Samarqand viloyatida YaHM hajmi, 2017-2022 yillar holatiga ko'ra (mlrd. so'm) .**

Samarqand viloyatida 2022 yilda tashkil etdi va bu esa 2021 yil YAHM hajmi 62 440,3 mlrd. so'mni ma'lumotlariga nisbatan 5,8 % ga

ko'pdir. Ushbu hududda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,6 % (YAHM tarkibidagi ulushi – 40,5 %), sanoatda 109,0 % (16,0 %), qurilishda 110,1 % (6,1 %) va xizmatlar sohasida 106,3 % (37,4 %) o'sish sur'atlari kuzatildi. Aholi jon boshiga YAHM 3,6 % ga ko'paydi va 15 323,2 ming so'mni tashkil etdi. Qishloq xo'jaligi sohasida olib borilayotgan islohotlar ham o'z samarasini bermoqda. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini tashkil etish, ularning faoliyatini rivojlantirish borasida salmoqli natijalarga erishilyapti.

Mamlakatimizda mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash qancha dolzarbligini to'la tasavvur qilish uchun demografik vaziyatga bir nazar tashlaylik. Bizda aholining tabiiy o'sishi keyingi yillarda bir oz sekinlashganiga qaramasdan, hamdo'stlik mamlakatlari orasida eng yuqoriligicha saqlanib turibdi. Keyingi yillarda, respublikamizda aholining o'sishi o'rtacha 10,4% ni tashkil etmoqda. Bu esa, mehnat resurslarini mutanosib ravishda o'sishiga olib kelmoqda.

## 2-jadval

### Samarqand viloyatida mehnat resurslari va aholining ish bilan bandligi holati (ming kishi hisobida)

Ko'rsatkichlar	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2018-2022 yillarda o'sishi (%) da)
Aholi soni	3720,1	3798,9	3877,4	4031,3	4118,2	110,7
Mehnat resurslari	2103,4	2117,1	2130,4	2142,3	2160,4	102,7
Ish bilan band bo'lganlar	1463,3	1455,8	1418,3	1441,3	1489,0	101,8

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi*

Tahlillardan ko'rinadiki, Samarqand viloyatida aholi soni 2018 yilda 3720,1 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda esa 4118,2 kishiga yetgan hamda o'rganilayotgan davrda 10,7 foizga o'sishga ega. Viloyat aholisi ulushida mehnat resurslari 2018 yilda 2103,4 ming kishi bo'lib, 2022 yilda 2160,4 ming kishi yoki 2,7% ga oshgan. Ish bilan band bo'lgan aholi 2018 yilda 1463,3 ming kishi bo'lib, 2022 yilda 1489,0 ming kishi yoki 1,8% ga o'sgan [9].

Davlatimiz tomonidan keyingi yillarda ayniqsa, qishloq joylarini

rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, Samarqand viloyat aholisining ko'pchilik qismi qishloq joylarida istiqomat qiladi. Viloyat qishloq tumanlarida 2022 yil 1 yanvar holatiga ko'ra aholi soni 4031,3 ming kishi yoki 2018 yil 1 yanvariga nisbatan 110,4 % ga o'sgan. Iqtisodiy faol aholi soni 1,9 % ga, shundan ish bilan band bo'lganlar 5,4 % ga kamayishi kuzatilgan. Samarqand viloyat iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo'lganlar miqdori 22,7 % ga kamaygan. O'z navbatida iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlar bo'lganlar ulushi sezilarli darajada o'sishi kuzatilgan (3 marta) [9].

Qishloq aholisi hududiy 'langanligi, qarindoshlik aloqalari, harakatchanligi sustligiga quyidagilar ishchi kuchiga bo 'lgan talab va uning asosiy sabablardir: aholining oddiy taklifini hisobga olgan mexanizmning qishloq xo'jalik mehnati turlarini afzal ishlab chiqilmaganligi. ko'rishi, tug 'ilgan joyiga bog

**3-jadval**

**Samarqand viloyatida 2017-2021 yillarda mehnat resurslari tarkibi  
(ming kishi, yil boshiga nisbatan)**

№	Ko'rsatkichlar	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2017-2022 y.y.da o'sish, (%)
1	Doimiy aholi soni	3651,7	3720,1	3798,9	3877,4	4031,3	110,4
2	Mehnat resurslari	2079,6	2103,4	2117,1	2130,4	2142,3	103,0
3	Shundan, iqtisodiy faol aholi	1629,8	1620,6	1604,2	1585,4	1599,7	98,1
4	Ish bilan band bo'lganlar	1523,1	1463,3	1455,8	1418,3	1441,3	94,6
5	Iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo'lganlar	653,1	620,4	683,2	542,7	542,7	77,3
6	Iqtisodiyotning norasmiy sektorida band bo'lganlar	418,9	429,7	469,3	681,7	681,7	3 marta

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi*

Mamlakatimizda keyingi yillarda aholini ish bilan bandligini ta'minlashga jiddiy e'tibor berilmoqda. Aholini ish bilan bandligini ta'minlash birinchi navbatda, aholining foydali mehnat bilan band bo'lishini, uning mehnat daromadiga ega bo'lishi, mamlakat uchun uning ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishda bandligini, aholini yashash sharoitini va turmush sifatini yaxshilashga olib keladi.

Aholi ish bilan bandligi orqali sanoat tarmoqlarini rivojlantirish imkoniyatlari yaratildi.

Birgina 2022-yil O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tub burilish nuqtasi bo'lib, yil davomida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida va makroiqtisodiy jarayonlarni tartibga solish borasida amalga oshirilgan jiddiy o'zgarishlar yangi shart-sharoitlarga mos siyosatni yuritish va uni sifat jihatdan takomillashtirishni hamda bu yo'nalishda aniq belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini taqozo etdi va bunga imkoniyat yaratdi.

**4-jadval**

**O'zbekiston Respublikasining YAIM o'sish hajmi, (oldingi yilga nisbatan o'sish), %da**

Ko'rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022
----------------	------	------	------	------	------	------

Doimiy narxlarda ishlab chiqarish usulida hisoblangan yalpi ichki mahsulot, o'tgan yil narxlarida, foiz hisobida	104,4	105,4	105,7	101,9	107,4	105.7
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	104,3	105,3	105,8	101,9	107,6	106.2
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	101,2	100,3	103,1	102,9	104,0	103.6
Sanoat	105,2	110,8	105,0	100,9	108,4	105.5
Qurilish	106,0	114,3	122,9	109,5	106,8	106.6
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	102,1	105,4	107,2	101,3	113,0	109.3
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	105,3	104,6	105,4	100,9	105,9	106.6

2022 yilda YaIMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sishi quyidagicha qayd etildi: doimiy narxlarda ishlab chiqarish usulida hisoblangan yalpi ichki mahsulot, o'tgan yil narxlarida – 5.7%, tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati – 6.2%, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 3.6%, sanoat – 5.5%, qurilish – 6,6%, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 9.3%, tashkil etgan

Bizningcha, aholini ish bilan bandligi – fuqarolarning qonun

hujjatlariga zid kelmaydigan, ularning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, ularga ish haqi (daromad) keltiradigan hamda moddiy ne'matlar ishlab chiqarish faoliyatlariga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardir.

Mamlakatimiz uchun mehnatga loyaqatli aholining ish bilan bandligini sifat darajasini oshirish bo'yicha muammoni hal qilishning eng unumli qurollaridan biri bo'lgan demografik va shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni tadqiq etishdan iborat.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurahmonov Q.X. *Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri.* – T.: “FAN”, 2019. – 179 b.
2. Артыкова Д.А. *Формирование занятости населения в Республике Узбекистан.* – T.: Фан, 2005. - 56-59 с.
3. Смит А. *Исследование о природе и причинах богатства народов. В 2 т. М.: Наука, 1993. –570 с.*
4. Abdurhmonov Q.X. *Mehnat iqtisodiyoti (darslik).* -T.: Mehnat. - 2009. -512
5. Olmasov A., Vahobov A. *Iqtisodiyot nazariyasi.Darslik.* – T.:Iqtisod-moliya, 2014.- 424 b.
6. Шуваева Е. В. *Занятость как важнейший элемент трудовых отношений // Актуальные вопросы экономических наук : Материалы междунаро. науч. конф. — Уфа : Лето, 2011.*
7. *O'zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to'g'risida”gi 2020 yil 2 oktabrdagi O'RQ-642-sonli qonuni <https://lex.uz/docs/5055690>*
8. Sh.M.Mirziyoyev. *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. “Xalq so'zi” gazetasi, 2021 yil 7 noyabr, №238 (8018).*

## INCREASING THE QUALITY OF TRAINING OF SPECIALISTS FOR THE BANKING SPHERE

*Ernazarov O.E. – PhD, docent of the Department of Digital economy of the Faculty of Human Resources Management of Samarkand State University named after Sharof Rashidov.*

*Boynazarova I.M. – Master of the Department of Economic theory of the Faculty of Human Resources Management of Samarkand State University named after Sharof Rashidov.*

*Nomurodov Q.O. – Master of the Department of Economic theory of the Faculty of Human Resources Management of Samarkand State University named after Sharof Rashidov.*

*Valieva N.Gh. – 2nd year student of the Faculty of Accounting and Auditing of the Samarkand branch of Tashkent State University of Economics.*

**Abstract:** *This article discloses the issues of improving the relationship between students and teachers in the process of obtaining knowledge, improving the mechanism for attracting teachers - practitioners to the educational process, improving the mechanism for passing industrial (banking) practice for students, stimulating the successful study of a student-future specialist, increasing the level of knowledge and productive activity of newly hired specialists, improvement of methods of technical training in commercial banks.*

**Keywords:** *The System and Level of Training of qualified specialists, The Relationship between students and teachers in Obtaining Knowledge and Qualifications, The Mechanism for Attracting Practitioners to the Educational Process, The Mechanism for Passing Practical Training for students, The Knowledge and Productivity of Newly Hired Specialists, The Mechanism for the Formation and use of the fund for Training, Methods of Technical Training in Commercial Banks.*

### INTRODUCTION

As the role of the banking sector in the development of the regional economy increases, the requirements for the level of training of qualified specialists working in this area are increasing. At the same time, the quality of training specialists for the industry is not adequate to the requirements of the employer, which in our opinion ultimately leads to problems of their employment, especially of university graduates. Timely solution of these problems by improving quality is possible only on the basis of improving the system of training specialists.

### LITERATURE REVIEW

In the existing literatures, E.G. Dadayan - models of educational activity [1], O.B. Dautova - educational innovative technologies [2], V.O. Evseeva are considered. - business games for the formation of economic competencies [3], Sulyak V.B. - the mechanism of integration of science and education [4], Lavushkina F.V. - personnel policy from the position of personnel audit [5], S.P. Agapova, N.A. Efimenko, N.I. Lobkovskaya, Zh.S. Rogacheva, I.A. Ukhulina. - the place of higher education in the strategy of ensuring the economic security of the

state and business [6], a newsletter studied the experience of international higher education [7], V.I. Baidenko. - the main trends in the development of higher education (global and Bologna dimensions) [8].

However, they do not consider or investigate the problems of improving the quality of training of specialists in higher educational institutions and post-university advanced training for the banking sector in regional conditions. Some regional aspects of this problem are considered in the articles of Ernazarov O.E. and Dodiev F.U. [9, 10, 11].

## **RESEARCH METHODOLOGY**

In presenting this article, methods of analysis, the comparative method, normative methods, methods of averages, index methods, inductive and deductive methods, methods of abstraction and specifics were used.

## **ANALYSIS AND RESULTS**

The problems of improving the quality of training specialists for the banking sector, in our opinion, can be as follows:

- Improving the relationship between students and teachers on the basis of increasing the interest of the parties to the level and quality of the lessons, as well as in the high-quality acquisition of knowledge and qualifications of specialists;
- Improvement of the mechanism for attracting teachers - specialists from practice and the maximum approximation of the educational process to practice;
- Improving the quality of training of specialists on the basis of improving

the mechanism of passing industrial (banking) practice for students;

- Stimulating the successful study of a student - a future specialist, at the institute, based on the formation of a mechanism for linking the average score for assessing the knowledge of graduates obtained during the period of study at the university with the actual wages of young specialists in commercial banks;
- Increasing the level of knowledge and productivity of newly hired specialists on the basis of short-term adaptation courses in banking training centers of the republic;
- Improvement of the education system based on training specialists at the request of commercial banks;
- High-quality training of specialists for the banking sector based on the creation of an effective mechanism for the formation and use of a fund for personnel training;
- Advanced training of specialists in the banking sector on the basis of improving methods of conducting technical training in commercial banks.

One of the ways to improve the quality of training of specialists is to improve the relationship between students and teachers. In our opinion, these relations should be built in such a way that both parties are interested in the quality conduct of training sessions. The student should be able to assess the quality of each lesson conducted, and the results of the assessment should be communicated to the teacher. To do this, it is necessary at each lesson to provide students with checklists, on which they assess the level of the lecture and seminar classes of the teacher on a five-point system according to three indicators: the level of knowledge of the

topic and the teacher's experience; clarity of presentation of the topic; the degree of clarity of a lecture or a seminar to students.

The headman of the group submits the results of the surveys to the educational part of the institute for entering into the computer database. In the educational part of the institute, these data are processed, and at the end of the month, the average score is displayed, which is used as an adjustment coefficient for the salaries of teachers. For example, if the average grade received by the teacher based on the results of the lessons held per month is 4, then the teacher will receive 80% of the salary established in accordance with the institute's tariff scale. This, on the one hand, will be a strong incentive for improving the level of knowledge, pedagogical skills of teachers, on the other hand, the demand of teachers for students' knowledge as a result of their work will increase.

The funds saved from teachers' salaries can be used to form an economic incentive fund to improve the quality of lectures and seminars conducted by teachers. The mechanism for using this fund, in our opinion, should be carried out as follows.

It would be advisable to establish salary allowances for teachers in the form of coefficients from 1 to 2 units. The criterion for establishing salary increments can be the quality of the lectures and seminars, when the monthly average grade of the assessment of the level of occupation will be 5.0 units. In this case, the markups are increased monthly by 0.2 points for ten months and are brought to the level of the coefficient of 2.0 units. If the quality of classes is

constantly adhered to at a high level, then this ratio will remain unchanged. If the average score falls below 5 points, the bonus is canceled.

This would be a strong incentive to improve the level and quality of classes for the teachers of the institute.

On the other hand, those teachers of the institute who cannot get the necessary average points based on the results of their own lectures and seminars, as well as the corresponding allowances to their wages, will gradually be forced to leave the institute to find work in practice in the relevant areas of the economy.

Thus, high-level professionals will work in higher educational institutions and thus the quality of lectures and seminars will be increased.

An important factor in improving the quality of teaching is the involvement of teachers - specialists from practice in the educational process. Therefore, it is necessary for the management of universities, when forming the teaching staff, to maintain a certain ratio between theoretical teachers from the institute and teachers from practice. Our observations show that at the first stage, this ratio must be set for the institute at the level of 9: 1, that is, for 9 theoreticians, there should be at least one teacher from production.

In the future, depending on the needs of the higher educational institution, this ratio can be changed. The change in this ratio (the starting point should start with a ratio of 9 to 1) should have optimal limits, that is, it should not exceed, in our opinion, the ratio of 50:50, i.e. for 50 theoretical teachers from the institute, there should eventually be 50 practicing teachers.



In order to increase the flow of professional professionals with experience from production to educational institutions, it is necessary for bank employees who have decided to teach at the institutes part-time, to establish a bonus of 50% to their wages received at the bank. The bonus can be financed from the funds of the banking system personnel training fund, created under the Association of Commercial Banks of the Republic of Uzbekistan. The specified amount must be excluded from the taxable income base of the bank.

Each practicing teacher, along with academic theorists from the institute, should develop their own curriculum, taking into account the requirements of banking practice and approved exemplary curricula for higher education, with which he could participate in the competition: "Best Curriculum". A teacher who successfully passes this competition receives the right to teach within the walls of a higher educational institution.

**Tahlil va natijalar.** Raqamli banklar onlayn-bankka o'tish uchun kengroq kontekstning bir qismidir, bu yerda bank xizmatlari internet orqali taqdim etiladi. An'anaviy bankdan raqamli bankka o'tish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va bank xizmatlarini raqamlashtirishning turli darajalari ishlab chiqilmoqda. Raqamli banklar yuqori darajadagi jarayonlarni avtomatlashtirish va internet vebga asoslangan xizmatlarni o'z ichiga oladi va bank xizmatlarini yetkazib berish hamda tranzaktsiyalarni amalga oshirish uchun institutlararo xizmatlar tarkibini

yaratish imkonini beruvchi Application Programming Interface (API) larni o'z ichiga olishi mumkin. Bu foydalanuvchilarga ish stoli, mobil va bankomat xizmatlari orqali moliyaviy ma'lumotlarga kirish imkoniyatini beradi. Innovatsion iqtisodiyoti sharoitida raqamli banklar faoliyati muhim va ahamiyatli bo'lib soh ava tarmoqlar rivoji, shuningdek jismoniy shaxslarga arzon, sifatli hamda qulay

xizmat ko'rsatish bilan ajralib turadi [5]. Masalan, ma'lumotlar omborini boshqarish, to'lov tizimlarini ta'minlash, moliyaviy kreditlar berish va boshqa xizmatlarni masofadan turib "online" shaklda amalga oshirishi mumkin. Bunday banklar yordamida o'zining hisob raqamini boshqarish, pul o'tkazish va qabul qilish, kartalarni ishlatish, hamda elektron mablag' o'tkazish mumkin bo'ladi.



### 1-rasm. Hozirgi davrda raqamli banking shakllari

Yuqorida keltirilgan 1-rasm ma'lumotlaridan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, raqamlashtirish natijasida bank xizmatlari ko'rsatish turlari va shakllari ko'payib bormoqda. Ayniqsa raqamli bank shakllari o'zining tezkorligi, shaffofligi, qulayligi hamda samaradorligi bilan ajralib turmoqda. Ayniqsa hozirgi vaqtda an'anaviy banklar faoliyatini integratsiyalashuv natijasida mobil banking raqamli xizmatlari aholi orasida ishonch qozonib kelmoqda. bu esa asta sekinlik bilan an'anaviy banklarning ham kelajakda to'laqonli raqamli ko'rinishga o'tishiga zamin bo'ladi [9]. Buning natijasida an'anaviy banklar faoliyati xizmat

ko'rsatish xarajatlari keskin sur'atlarda qisqarishi, xizmat ko'rsatish sifatining yuksalishi, keng miqyosda xizmatlarni tashkil etishi, 100 % "bank-mijoz"ning "online" rejimida o'zaro hamkorligi, 24/7 rejimida tezkor, qulay, ishlaydigan aloqa markazi va kapitallashuvning kengayishiga olib keladi. Shu bilan birgalikda ta'kidlab o'tish joizki raqamli banklar faoliyatiga ham kiberhujumlarning sonining ortishi, "fizshing", "Shellcoders & Reverser", "spam" xakerlik hujumlarining tizimda qotish holatlarini vujudga kelishi kabi salbiy holatlar ham ko'payishi mumkin. Ammo, shu bilan birgalikda ularning hujumlariga qarshi aks ta'sir etuvchi

himoya tizmlari ham takomillashib boravradi. Xulosa qilib salbiy oqibatlaridan ko‘ra, ijobiy oqibatlari ko‘proq ekanligini ko‘rishimiz mumkin [10].

Jaxonda kechayotgan globalashuv sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni amalga oshirishda bank sektorini o‘rni beqiyos. Xususan, 2005-2020-yillarda Yevropada raqamli bankning tez o‘sishi kuzatilmoqda. Garchi Amerika bank raqobatchilari sekinroq sur‘atda paydo bo‘lsa-da. Ananaviy AQSH banklari

o‘nlab yillar davomida chakana bank xizmatlarida ustunlik qilib kelmoqda. Biroq rivojlanayotgan raqobatchi banklar mijozlarga qulayroq va foydali xizmatlarni taqdim etish uchun raqamli texnologiyalardagi ilg‘or innovatsiyalardan foydalanadigan muqobillarini taklif qilmoqdalar [6]. Biz raqamli va an‘anaviy banklar faoliyatini tahlil etganimizda raqamli banklarning bir qator ustunliklari mavjudligini ko‘rdik (1-Jadval).

### 1-Jadval.

#### Raqamli va an‘anaviy banklarning bir- biridan farqli jihatlar [10].

<i>Raqamli banklar</i>	<i>An‘anaviy banklar</i>
Omonatlaringiz uchun ancha yaxshi foiz stavkasini olishingiz mumkin	Hisob egalari so‘ralganda banklarning qulay filiallarida shaxsiy xizmatdan foydalanishlari mumkin
Aksariyat onlayn banklar hisob ochish uchun kam yoki minimal depozit talab qiladi.	An‘anaviy banklarida ilovalar ham bor va ular yaxshilanmoqda
Xizmatlar tannarxining arzon bo‘lishi (yirik bino va ofislarga zaruriyatning yo‘qligiga zamin yaratadi)	Bank xarajatlarining ko‘pligi natijasida xizmatlar tannarxining yuqoriligi

Biz onlayn va an‘anaviy banklarning bir- birini farqli jihatlarini o‘rganib chiqqanimizda shuni ko‘rishimiz mumkimki, onlayn banklarda omonatlaringiz uchun yaxshi foiz stavkalarini olishimiz mumkin. An‘anaviy banklarda esa istemolchining qulayligini taminlash uchun o‘ziga yaqin bo‘lgan filliallaridan foydalanishi mumkindir, lekin, bunda vaqt cho‘zilishi va uzoq muddatga qolishiga olib keladi. Ikkinchidan, onlayn banklarda hisob ochishda depozit kamroq talab qiladi, an‘anaviy banklarda esa yuqori bo‘lib, bunda narxlar belgilangan ko‘rsatkichdan o‘zgarmaydi [7]. Uchinchidan, xizmatlarning arzon

bo‘lishi ya‘ni onlayn bank uchun alohida ofis, binolar shart bo‘lmaydi va ortiqcha harajat talab qilmaydi, an‘anaviy banklarining esa binosi, ofisi bo‘lishi shart va zarurdir. Bu esa ortiqcha harajatlarni keltirib chiqaradi.

Shunday ekan qaysi bankni tanlashdan qat‘iy nazar, uning qulayliklari va xususiyatlarini ko‘rib chiqish kerak. Raqamli va an‘anaviy banklarning ishlash samaradorligini tahlil qilishimizda ularning farqli jihatlariga to‘xtalish maqsadga muvofiq. Shu maqsadda biz banklar faoliyatini xususiyatlarini ko‘rib chiqishni lozim topdik:

- raqamli banklar faoliyatida istemolchi tamonidan xizmatdan foydalanishda ortiqcha xarajatlarning yo‘qligi an’anaviy banklarga qaraganda afzalikka egaligi;

- masofadan turib raqamli bank xizmatlaridan keng foydalanish, bu xizmat an’anaviy banklarda mavjud emas. Bu esa oz’ navbatida istemolchilarni ortiqva ovoragarchilik, vaqtni tejas hamda xizmat xarajatlarini tejab qolishiga xizmat qilishi [8];

- raqamli banklar faoliyati 24/7 soat rejimda ishlashi. Bu holat ham an’anaviy banklarda mavjud emas. Bunda bank xizmatidan foydalanuvchi bank xizmatidan istalgan vaqtda foydalanishi bilan an’anaviy bankdan ustun turishi [9];

- raqamli banklarda shaxsiy munosabatlar, xususiy bankomatlar va cheklangan xizmatlar yo‘qligi raqamli bankga nisbatan an’anaviy banklarning ustunligini ta’minlab beradi. Bundan kelib chiqib hozirgi raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida raqamli banklar faoliyatini rivojlantirishimiz ammo, an’anaviy banklar faoliyatidan birdan vos kechmasligimizni ko‘rsatadi.

Fikrimizcha, bu jihatlarni hisobga olgan holda quyidagi an’anaviy banklar faoliyatini diversifikatsiyalash, raqamlashtirishni bosqichma bosqich amalga oshirishimiz, gibritlashtirish, banklar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik, me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirishimiz, raqamli komponentlardan an’anaviy bank faoliyatida keng qo‘llash ishlarini yanada kuchaytirishimizni taqozo etmoqda. shunday ekan an’anaviy banklar faoliyatini rivojlantirish, raqamlashtirish maqsadida

birinchilardan bo‘lib mamlakatimizda mobil texnologiyalar keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun quyidagi ishlarni amalga oshirishimiz zarur:

- mobil ilovalarga yangiliklar kiritgan holatda ishlash tezligini oshirish;

- mobil ilovalarga jismoniy va yuridik shaxslarning hisob varaqlarni boshqarishni yo‘lga qo‘yib berish;

- mobil ilovalardan onlayn kreditlarni an’anaviy tarzda banklar singari fozi stafkalarini kamaytirish hamda tez fursatda rasmiylashtirish tizmini yo‘lga qo‘yish;

- mobil ilovalarda har bir fuqarolarni xavsizlik darajasini himoyalashni kuchaytirish;

- mobil ilovani 500 000 ming so‘mgacha bo‘lgan o‘tkazmalari uchun xizmat haqini olamaslik jarayonini tadbiiq etish;

- mobil ilovada har o‘tkazmalar amalga oshirgan shaxslar uchun “cashback” yoki bonuslar yaratish va bu bonuslar evaziga shu bankning, “visa” kartasini sovg‘a tariqasida ulashish hamda yashayotgan manziligacha yetkazib berish xizmatlarini joriy etish;

- mobil aloqa operatorlarni yaxshilash va mijozlarga eng mukammal tarzda tushuntirishlar berib borish 24/7 rejimida ish faoliyatini shakllantirish [11];

- an’anaviy banklar faoliyatiga sun’iy intellect texnologiyalari joriy etish orqali 24/7 rejimidagi aloqa markazini yaratish kabi ishlarni amaliyotga tadbiiq etish orqali an’anaviy banklar faoliyatini rivojlantirishimiz hamda buning natijasida ko‘rsatiladigan xizmatlar xajmini oshirishimiz, aholi

turmush farovonligiga erishishimiz hamda bank rentabelligiga erishishimiz mumkin.

Shularni hisobga olsak, an'anaviy banklarni ko'p faoliyatini avtomatlashtirilgan bo'lamiz yani raqamlashtirgan. Fuqarolar faqatgina kassa amaliyotlarni yani naqd pul topshirgani kelishadi. Undan tashqari avtomatlarimizdan pul yechish (bankamot) shahobchalariga borishadi va inkassatsiya ishlari amalga oshirilib boriladi. Buning natijada qog'ozbozlik ishlari kamayadi har bir shaxs bankka hujjat olib kelishi shart bo'lmay qoladi. Har bir ishni onlayn tarzda amalga oshiradi. Bundan tashqari bank xizmatlari tannarxini pasayishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi bugungi kunda bank xizmatlarining an'anaviy sohalari — kreditlash, depozit operatsiyalari, hisob-kitob va kassa kabi xizmatlarini ko'rsatuvchi 31 ta tijorat bankidan (keyingi o'rinlarda — banklar) tashkil topgan. 2019-yilda bank tizimida bir qator sifat o'zgarishlari amalga oshirildi. Xususan:

- bank ishining zamonaviy standart va tamoyillariga mos keluvchi yangi tahrirdagi “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi va “O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining qabul qilinishi;

- O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi ishtirokida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarining isloh qilinishi;

- davlat dasturlarini Markaziy bankning asosiy stavkasidan kam

bo'lgan stavkalarda kreditlash amaliyotidan voz kechilishi va 2021-yildan kreditlashning bozor shartlariga o'tilishi;

- tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish davlat maqsadli dasturlari doirasida kreditlashning 3 ta bank — AT Xalq banki, “Agrobank” ATB va “Mikrokreditbank” ATBda jamlanishi;

- tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan imtiyozli moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmining Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi orqali tashkil etilishi;

- bozor tamoyillari asosida ipoteka kreditlari hisobidan aholini uy-joy bilan ta'minlashning yangi taribi joriy etilishi kabi islohotlarni amalga oshirilganini ko'rishimiz mumkin [3].

Fikrimizcha, raqamli banklar faoliyatini keltirilgan qonun, me'yoriy-huquqiy hujjat bandlarida rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar keltirilib o'tilgan. Ammo, aynan raqamli bank faoliyati to'g'risida qonunning yo'qligi, uning ko'rsatkichlari va tasnifi takomillashmaganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda raqamli bank faoliyati muvofiqlashtirish, rivojlantirish maqsadida uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ham to'laqonli takomillashtirilmaganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, raqamli banklar faoliyatiga aholining ishonchining kamligi va undan foydalanishda ko'nikmasining yetishmasligi yurtimizda raqamli banklar faoliyatini rivojlantirishda to'siqlardan biri bo'lib qolmoqda.

Shuni ta'kidlash joizki insoniyat uchun raqamli iqtisodiyot endi kirib kelayotgan bo'lsada, bu hamma uchun qulay va ajoyib imkoniyat hisoblanadi

va bu iqtisodiyot uchun ham katta burilish bo‘ladi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyoti sharoitida bank tizimini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha davlat o‘z rolini muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda, bu erishilgan natijalar yaqin istiqbolga mo‘ljallangan ulkan maqsadlarni amalga oshishidan dalolat beradi. Tijorat banklarining transformatsiya jarayoni va raqamli bank tizimida ishlashga o‘tishi bu yangi axborot texnologiyalarini rivojlanishi hamda butun dunyo raqamlashtirish poygasiga munosib javob hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, balki ortiqcha xarajatlarni ham birdek kamaytiradi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish mamlakat bank-moliya tizimi ravnaqining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Raqamli bankni yanada rivojlantirish uchun uni funksiyalarini yanada kengaytirish, mijozlar uchun qulaylashtirish kerak. Kredit olish jarayoni yanada tezlashtirish va mijozlar uchun qulay xizmat ko‘rsatish uchun raqamli bankning “online” va “offline” ishlash rejimini barqarorlashtirishimiz lozim.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib raqamli banklar faoliyatini rivojlantirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalar berdik:

Birinchidan, mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatyotgan raqamli banklar faoliyatini yanada muvofiqlashtirish,

ya‘ni, xizmat ko‘rsatishini erkinlashtirish, davlat tamonidan qo‘llab-quvvatlash, institutsional islohotlarni keng joriy etish;

Ikkinchidan, mamlakatimizda raqamli banklar faoliyatini rivojlantirish maqsadida kadrlar islohatini amalga oshirish, bank xodimlarini raqamli bank faoliyati rivojlangan xorij mamlakatlarida malaka hamda ko‘nikma darajasini oshirish hamda xorij tajribasini samarali usullarini respublikamizda keng targ‘ib qilish;

Uchinchidan, masofaviy bank xizmatlarini rivojlanishi mijozlarni identifikatsiya qilishga bo‘lgan zaruriyatni yuzaga chiqarishi tabiiy holat. Shuni inobatga olgan holda, barcha mobil bank xizmatlariga mijozga xizmat ko‘ratishda xodimni identifikatsiya qilish zaruriyati yuzaga kelganda, Ichki ishlar vazirligi ma‘lumotlar bazasidan integratsiya qilish imkoniyatlarini yaratib berish;

To‘rtinchidan, raqamli banklar filliallarini ko‘paytirish va aholining raqamli banklar xizmatlaridan foydalanish savodxonligini oshirish, chunki, raqamli banklarning jadal rivojlanishiga avval mamlakat aholisi tayyor bo‘lishi kerak.

Ushbu takliflarning amaliyotda tadbiq etilishi natijasida mamlakatimizda raqamli banklarning rivojlanishi, an’anaviy banklarni esa bosqichma-bosqich raqamlashtirish ishlarini amalga oshirishimiz hamda aholi, tadbirkorlarning yashash va rentabelligini yuksalishiga erishishimiz mumkin bo‘ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Murojaatnoma 2020-yil 25-yanvar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan o‘zbekiston respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” PF-5992-son Farmoni. Toshkent. 12.05.2020 y. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. Khudoykulov, H. A., & Sherov, A. B. “Economy development in corporate governance of joint stock company”. Экономика и бизнес: теория и практика, (2021). (3-2), 217-219.
5. Matkuliyeva, S., & Ataбаева, K. “Роль цифровых банковских услуг в развитии отраслей и отраслей экономики”. Scientific progress, (2022). 3(2), 360-363.
6. Шеров А. “Олий таълим муассасаларига бюджетдан таъкари маблагларни жалб этишни такомиллаштириши” “Biznes-Эксперт”, (2017) (3 (111)), 3.
7. Gontar A.A. “Digital banking as one of the components of the economic security of a credit organization” // Bulletin of the Volzhskiy University im. VN Tatishcheva. - 2017. - T.1. - no. 4
8. Murodov F.H. “Raqamli bank xizmatlari va uning afzalliklari” <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-bank-xizmatlari-va-uning-afzalliklari>
9. Boboqulov S. B. et al. O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTI SHAROITIDA ELEKTRON BIZNESNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2023. – T. 1. – №. 10. – С. 524-529. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/2023/11/20/o-zbekistonda-raqamli-iqtisodiyoti-sharoitida-elektron-biznesni-rivojlantirish-yo-llari/>
10. Boboqulov Sanjar Baxronkulovich, Qadamboyeva Dilso‘z Doniyor Qizi RAQAMLI IQTISODIYOTI SHAROITIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI // JMBM. 2023. №7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-iqtisodiyoti-sharoitida-innovatsion-texnologiyalar-asosida-tadbirkorlik-faoliyatini-rivojlantirish-istiqbollari> (дата обращения: 10.01.2024).
11. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi
12. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Statistika agentligi.



<https://doi.org/10.59251/2181-3973.2023.v3.138.3.2558>

## QISHLOQ JOYLARDA MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH

**Xamdorov Eldor Toshtemirovich**

*Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, qishloq joylarda maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning hozirgi holati bugungi kunning eng dolzarb masalalardan biri ekanligi asoslanib, bir qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni, xususan, mamlakatimizda maishiy xizmat ko'rsatish sohasidagi muammolar o'rganilib, tahlil qilinib, mavzu bo'yicha muallifning ilmiy izlanishlari, taklif va tavsiyalari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** xizmat, xizmat ko'rsatish, maishiy xizmat ko'rsatish, servis, qishloq joylari, bozor iqtisodiyoti.

**Аннотация:** В данной статье, исходя из того, что современное состояние развития сферы бытовых услуг в сельской местности является одним из наиболее актуальных вопросов современности, рассматривается ряд социально-экономических проблем, в частности, проблемы в сфере бытовых услуг в нашей стране, изучены и проанализированы, описаны авторские научные исследования, предложения и рекомендации.

**Ключевые слова:** услуга, сервис, бытовая услуга, сервис, сельская местность, рыночная экономика.

**Abstract:** In this article, based on the fact that the current state of development of the sphere of consumer services in rural areas is one of the most pressing issues of our time, a number of socio-economic problems are considered, in particular, problems in the field of consumer services in our country, studied and analyzed, the author's scientific research, proposals and recommendations are described.

**Key words:** service, service, household service, service, rural area, market economy.

**Kirish.** Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida servis xizmatlari soni va sifatiga qo'yilayotgan talablar oshib bormoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasining qo'llanilishi xizmatlarga bo'lgan talabning oshishiga olib keldi. Bu o'z navbatida, iste'mol bozori tarkibida o'zgarishlarni vujudga keltirdi. Aholining ayrim qatlamlari moddiy farovonligining oshishi natijasida xizmatlarga o'zlarining talablari va ehtiyojlari mavjud bo'lgan iste'molchilarning yangi kategoriyasi vujudga keldi. Moddiy jihatdan

ta'minlangan iste'molchilar o'zlarining hayot qulayliklarini oshirishni ta'minlaydigan turli assortimentdagi xizmatlarga katta talabgor hisoblanishadi. Shu sababli ayrim xizmat ko'rsatish korxonalarini o'z faoliyatini aynan aholining ushbu talablar va ehtiyojlarini qondirishga qaratadilar.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** V.Bobkov, A.Pochinok va boshqa iqtisodchi olimlar "farovonlik" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishgan: farovonlik – bu aholining hayot uchun zarur moddiy, ijtimoiy,



madaniy va ma'naviy boyliklar, ya'ni inson ehtiyojlarini qondiruvchi elementlar, xizmatlar va sharoitlar bilan ta'minlanganligidir.

Demak, qishloq sharoitida ham aholining turmush farovonligidagi o'zgarishlarni davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamda xalqaro turmush darajasi ko'rsatkichlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Aholining turmush darajasi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezoni sanaladi, uning amalga oshirilishi esa jamiyat rivojlanishining asosiy maqsadidir. Avvalo, turmush darajasi ikkita tarkibiy qismning birikmasi va o'zaro bog'liqligi bilan tavsiflanadi: aholining moddiy va nomoddiy boyliklar bilan ta'minlangani va ularning iste'mol darajasi.

I.Hasanov, A.Eminovlar bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloqlardagi oilalar daromadlarini ko'paytirish qay darajada tashkil etilayotgani haqida fikr yuritishar ekan,

A.Qodirov "Ijtimoiy tenglikni ta'minlash uchun respublikamizda qator ijtimoiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, kam ish haqi va boshqa to'lovlar, odatda, oldindan ko'paytirib kelindi, narx-navo o'zgarishi bilan bog'lab olib borildi, bu esa aholi to'lov qobiliyatining saqlanib qolishini ta'minladi va turmush darajasi keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymadi. Shu tariqa eng kam ish haqini oshirish yo'li bilan aholi o'rtacha ish haqining, pul daromadlarining ham oshishiga erishildi", deb ta'kidlaydi. A.Akobirova esa bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi turmush darajasini oshirishning asosiy

ko'rsatkichlaridan biri yetarli darajadagi ish haqi ekanligini eslatadi.

R.Karlibaeva, I.Danabaevlar qishloq infratuzilmasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari qishloqlarda faqatgina turmush darajasini yuksaltirishni emas, balki ayni yo'nalishdagi barcha soha va tarmoqlarni birdek rivojlantirishni maqsad qilib olishi kerak, degan fikr bildirishadi.

Fikrimizcha, aholining turmush darajasi va sharoitini yaxshilashda ko'p jihatdan aholi iste'mol darajasini aniqlash, ularni rivojlantirish imkoniyatlarini baholash, ehtiyojlarini qondirishning shakl va usullarini belgilash istiqbollarni ishlab chiqish uchun modellashtirish masalasiga jiddiy yondashish kerak.

Bu xususda N.Mahmudov "Qishloq taraqqiyoti va farovonligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy modellashtirishga oid masalaga kengroq yondashib, qishloq taraqqiyoti va farovonligini ta'minlash bir-biri bilan bevosita bog'liq va aloqador, o'ziga xos xususiyatlarga ega faoliyat asosida amalga oshiriladi", deb yozadi. Uning uqtirishicha, qishloq aholisi hayotining farovonligi o'sha yerda ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil etishga va boshqarishga daxldor. Ishlab chiqarish jarayoni esa, o'z navbatida, aniq miqdoriy birliklarga ega ta'minlovchi va xizmat ko'rsatuvchi sohalar faoliyati bilan uzviy bog'liqdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotni amalga oshirishda xizmat ko'rsatish va iste'mol jarayonini ko'rsatkichlarini iqtisodiy-matematik usullar orqali tahlil qilish natijasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Bundan tashqari ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda analiz va sintez usulidan ham samarali foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Xizmatlar sohasi iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida mamlakatning yalpi ichki mahsulotini ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etadi. Hozirgi kunda iqtisodiy adabiyotlarda xizmatlar sohasining chegaralari to'g'risida turli fikrlar mavjud. Jumladan, ushbu sohaga maishiy xizmatlar, yo'lovchi transporti xizmatlari, aloqa xizmatlari, turar joy kommunal xizmatlari, ta'lim, madaniyat, sanatoriya-sog'lomlashtirish, huquq sohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalari bir-biriga o'xshash xizmatlar kiradi. Xizmat sohasi birinchi galda bevosita iqtisodiy-ijtimoiy faoliyat namoyon bo'ladi:

Bunday murakkab iqtisodiy munosabatlarning sodir bo'lishini ta'minlash bevosita ushbu sohada xususiy mulkning ahamiyatini oshirishni taqqozo etadi.

Demak, endi servis sohasi rivoj topadi. Uning istiqboliga to'xtalishdan oldin shu servis so'zi mazmunining izohiga to'xtalsak. Chunki, servis so'zining ma'nosiga turlicha qarashlar mavjud. «Servis inglizcha servise so'zidan olingan bo'lib, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish» ni anglatadi. [Словар иностранных слов. -16- е из.,испр.-М.: Рус яз.. 1988 -461 Б.]. Ruscha - o'zbekcha lug'atda «servis – servis (aholiga xizmat ko'rsatish, xizmat)», deb ko'rsatilgan.[Русча-узбекча луғат. 2-том. Т.: 1984. – 410 Б.]. Boshqa adabiyotlarda ham xudi shunday ta'riflangan. Ko'rinib turibdiki, servis so'zi xizmat sohasi bilan hamohang, bir-biriga o'xshash sinonim so'zlardir.

[Қудратов Ф.Х., ПардаевМ.Қ., Абдукаримов Б.А. “Сервис ривожі – аҳолининг бандлигини таъминлаш ва фаровонлигини ошириш омили”.Т.: “Fan va tehnologiya” нашриёти, 2007. – 12 Б.]

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “2016—2020 yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida” gi qarorida 2016-2020 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirishning asosiy konseptual yo'nalishlari belgilab qo'yilgan edi. Bulardan kelib chiqib, hamda «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish bo'yicha 2016-2020-yillarga mo'ljallangan dastur»ga asoslanib mamlakatimizda xususan viloyatlarda xizmatlar ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishning asosiy konseptual yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ladi:[ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 9-сон, 89-модда, 27-сон, 326-модда; 2017 й., 15-сон, 257-модда, 33-сон, 863-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 20.12.2019 й., 09/19/1014/4173-сон]

– xizmatlar sohasini rivojlantirish hisobiga yalpi ichki mahsulotni ko'paytirish, uning respublika iqtisodiyotidagi ulushini 48,7 foizgacha yetkazish;

– 2020 yilga borib qishloq joylarda xizmatlarni 1,8 baravarga o'stirish;

– muhandislik-kommunikasiya, yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish, tarmoqlarda zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga

xizmatlar sohasini, tarkibiy o'zgartirishlarni jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

– raqobat muhitini shakllantirish, kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishga ko'maklashish;

– turli innovasiya xizmatlarini, yangi aloqa vositalarini kengaytirish;

– aholining telekommunikasiya tarmoqlaridan foydalanish texnik imkoniyatlarini ta'minlash, ular asosida sifatli xizmatlar ko'rsatish, telefon aloqasi va televideniyaning raqamli tizimlariga to'liq o'tish, 2020 yilga borib aloqa va axborotlashtirishning respublika iqtisodiyotidagi ulushini 2,5 foizgacha yetkazish;

– eng yangi elektron, to'lov texnologiyalarini joriy etgan holda moliya xizmatlarini rivojlantirish;

– sog'liqni saqlash sohasida yuqori texnologiyali xizmatlarni yanada rivojlantirish;

– mamlakatimiz xizmatlar eksportini ko'paytirish uchun ushbu soha korxonalarining xalqaro bozordagi xizmatlar darajasi va sifatini oshirishga erishish;

– xizmatlar ko'rsatish va servis sohasida ishlaydigan kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash.

Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlar milliy iqtisodiyotni samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim. Uning tarkibiy qismi bo'lib hisoblangan xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish aholini xizmat sifatini oshirish uning turli xildagi talablarini

qondirish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqodlar shundan dalolat beradiki, hozirgi kunda servis faoliyati, maishiy xizmat ko'rsatish sohasi bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar hamda yakka tarkibdagi tadbirkorlar faoliyati davlat iqtisodiyotiga katta hissa qo'shmoqdalar.

XX asrning so'nggi yillarida rivojlangan mamlakatlarda kelgusi taraqqiyotning global qarashlari to'g'risida tasavvurlar shakllana boshladi. Jamiyatda insonlar turmush darajasini yaxshilashning zarurligidan kelib chiqib, xorijiy va mamlakatimiz olimlari insonlarni o'rtacha hayot tarzini ta'minlash hamda aholining moddiy jihatdan tabaqalanishining farqini qisqartirishga ilmiy jihatdan ko'proq e'tibor qaratmoqdalar. Shuningdek, ular hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning bosh maqsadi sifatida "turmush sifati" masalasining tadqiqodi bo'yicha ko'proq fikr yuritmoqdalar.

Bugungi kunda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda jahon moliyaviy inkirozi oqibatlarining ta'sirini har tomonlama hisobga olishimiz, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta'siri nuqtai nazaridan shakllantirish va ularni izchil amalga oshirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi"da "xizmatlar sohasi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining yetakchi sektorlaridan biriga aylanmoqda.

2021 yil yakunlari bo'yicha xizmatlar ulushi respublika iqtisodiyotida 35,6 foizni tashkil etadi. Xizmatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligi qo'shimcha ish o'rinlari yaratishga, xarajatlarni qisqartirishga, uy xo'jaliklari xizmat ko'rsatishi vaqtini qisqartirishga va aholi hayoti sifati yaxshilanishini ta'minlashga ko'maklashadi. Keyingi vaqtlarda xizmatlar sohasi qulay iqtisodiy sharoitlarda rivojlandi. Bunga:

– iqtisodiyotda bir qator sohalarda rivojlanishning tarmoq dasturlarini amalga oshirish;

– yangi bozor institutlari (depozitar, sug'urta, auditorlik faoliyati, elektron hukumat, elektron tijorat va shu kabilar) faoliyatining qonunchilik va tashkiliy asoslarini yaratishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar;

– tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, savdoni erkinlashtirish va tovar bozorlarini qo'llab-quvvatlash

bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Hukumat qarorlarini amalga oshirish hisobiga xizmatlar bozorini davlat tomonidan tartibga solishning yumshatilishi;

– kreditlashni kengaytirish hisobiga talab va taklifni rag'batlantirish;

samarali ijtimoiy siyosat, xizmatlarning to'liqligi sifatini talab qiluvchi aholining madaniy-ta'lim darajasini oshirish ko'maklashdi [Ўзбекистон Республикаси 2030 йилга қадар ижтимоий-иқтисодий комплекс ривожлантириш концепцияси ID-9413 <https://regulation.gov.uz> .06.04.2020] belgilab berilgani maishiy xizmat ko'rsatish sohasi rivojlantirish orqali aholi turmush farovonligini oshirishda muhim belgilab berilgan vazifalardan biridir.

1-jadval

**O'zbekistonda 2020-2022 yillarda xizmatlar turlarining yaratilishi**  
(mlrd. so'mda)

Ko'rsatkichlar	2020y.	2019 yilga nisbatan, %	2021 y.	2020 yilga nisbatan, %	2022 y.	2021yilga nisbatan, %
Jami xizmatlar hajmi	20082,7	121,3	28079,3	113,8	31785,8	114,0
Shundan: savdo va umumiy ovqatlanish	3462,6	126,8	5007,1	111,2	5793,2	115,7
Transport	6691,3	112,7	9366,3	106,2	10031,3	107,1
Aloqa va axborotlashtirish	1388,1	140,1	1581,1	118,2	2039,6	129,0
Moliyaviy xizmatlar (mikrokreditlar ajratish xizmatlari)	1423,4	132,2	2227,6	119,9	2731,0	122,6
Turistik sayyohlik xizmatlar	45,9	126,3	46,1	101,7	46,8	112,7
Mexmonxona xizmatlari	63,8	122,5	88,1	107,3	95,9	109,0

Kommunal xizmatlar	2751,8	108,4	3862,1	101,8	3827,4	99,1
Maishiy xizmatlar	359,2	129,0	452,7	120,1	5513,7	121,8
Avtomobil va boshqa texnikalarni tamirlash	183,7	139,2	262,1	121,3	326,1	124,4
Boshqalar	3712,9	130,6	5268,1	117,6	6348,0	120,5

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.*

2022 yilda xizmat ko'rsatish tarkibida transport xizmatlari ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, umumiy xizmatlarning 32,0 foizini tashkil etdi. Shuningdek, savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlari 18,0 foizni, kommunal xizmatlar 12,0 foizni, moliyaviy xizmatlar 9,0 foizni, aloqa va axborot tizimlari 6,0 foizni tashkil etdi (1-jadval).

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no va mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Iqtisodiy o'sishning yangicha talqini jahon iqtisodiyoti fanida zamonaviy, konseptual yondashuvlarni zarurat etmoqda. Xususan, servis iqtisodiyotida samarali faoliyat industrial faoliyatga nisbatan birmuncha kengroq tadqiq etilgandiki, bunda birinchi navbatda ijtimoiy yo'naltirilgan faoliyat jamiyatda aholi turmush darajasi va sifatini ta'minlashga qaratilganligi bilan izohlanadi.

Bizning fikrimizcha, xizmat ko'rsatish iqtisodiyotining qaror topishi bilan tavsiflanadigan samarali faoliyat mazmunida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

0. xizmat ko'rsatish iqtisodiyotida xo'jalik yurituvchi subyektlar birinchi navbatda samaradorlikni oshirishga, ya'ni mijozlarning xususiy (shaxsiy)

talablarini to'liqroq qondirishga o'z e'tiborlarini qaratadilar. Industrial iqtisodiyotda esa diqqat e'tibor ko'proq mahsulotlarni maksimal ishlab chiqarishga qaratiladi.

1. xizmat ko'rsatish iqtisodiyotida foydalilik tushunchasi tovarlardan foydalanish harakteri bilan bir xil bo'lib, bunda moddiy mahsulotlar va xizmatlar tizimining qanchalik takomillashganligini belgilaydi. Industrial iqtisodiyotda esa faqat mahsulotning moddiy tomoni e'tiborga olinadi.

2. xizmat ko'rsatish iqtisodiyotida sifat asosida ishlab chiqaruvchining iste'molchini maksimal ehtiyojini qondirishga bo'lgan munosabatini doimo nazorat qilish va belgilash layoqati tushuniladi. Industrial iqtisodiyotda esa sifat asosida faqat faoliyat yurituvchining «o'z ishini yaxshi bajarish» qobiliyati tushuniladi.

3. xizmat ko'rsatish iqtisodiyotida menejment tizimi ham o'zgarib boradi. Uning asosiy xususiyati sifatida egiluvchanlik, tezlik bilan qarorlarni qabul qilish, tashkiliy jihat, erkin harakat qilish va oshkoralik hisoblansa, industrial iqtisodiyotda esa menejment «mexanik» xususiyatga ega, ya'ni tuzilmalarning pog'onali va ularning ortiq darajada tartibga solishi bilan aniqlanadi.

4. xizmat ko'rsatish iqtisodiyotida asosiy e'tibor xizmat ko'rsatish tizimi shakllanishining samaradorligiga qaratilsa, industrial iqtisodiyotda esa xom-ashyoni tayyor mahsulotga aylanishiga asosiy e'tibor qaratiladi.

Masalan, respublikamiz bo'yicha o'rtacha har 100 ming kishiga deyarli 40 ta yirik maishiy xizmat korxonasi to'g'ri kelsa, bu ko'rsatkich shahar joylarida 64 tani, qishloq joylarida esa 26 tani tashkil etadi. 2008 yil natijalariga ko'ra qishloq aholisiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi jami aholiga ko'rsatilgan xizmatlarning bor-yo'g'i 26,8 foizini tashkil etgan.

Shu sababli ham yaqin istiqbolda qishloq joylarida xizmatlar sohasi ustuvor rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lib turibdi.

Xizmat ko'rsatish va servis sohasining YaIMdagi ulushini 48,7 foizga etkazish, sohada band xodimlar sonini 2022 yil oxirigacha 2019 yilga nisbatan 2 martaga oshirish vazifasi yangi xizmat turlarini ko'rsatish bo'yicha faoliyatni qo'llab-quvvatlash, sohada kichik biznesni yanada rivojlantirish, axborot-telekommunikasiya xizmatlari, transport, moliya, turizm xizmatlarini ustuvor rivojlantirish orqali ta'minlanadi.

## 2-jadval

### Samarqand viloyatida 2019-2022 yillarda maishiy-xizmat ko'rsatish shahobchalarini tashkil etilishi va uning dinamikasi (dona hisobida)

T/r	Ko'rsatkichlar	2019y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2019-2022 yillarda o'sish, (%)
1	Maishiy xizmat ko'rsatish shahobchalari turlari, shundan: - kiyish tikish ustaxonalari va atelyelar.	43	46	54	59	137,2
2	Poyafzal ta'mirlash ustaxonalari va yakka tartibda tikish	61	63	69	73	119,7
3	Go'zallik salonlari va sartaroshxonalar	86	91	102	114	132,5
4	Kiyimlarni kimyoviy tozalash	2	2	3	3	150
5	Foto salonlar	35	38	43	45	128,6
6	Maishiy texnika asboblarini ta'mirlash ustaxonalari	59	62	67	70	118,6
7	Ijara xizmati	8	11	12	12	109,1

manba: Samarqand viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Bunday katta imkoniyatdan foydalanish darajasi talab qilingan holatdan ancha kam. Ushbu sohaning yana bir muhim jihati, qishloqda ortiqcha ish kuchini ish bilan ta'minlash masalasini hal qilishga ko'maklashuvchi muhim sohadir. Chunki xususiy


tadbirkorlik uchun jozibador bo'lgan ko'pgina an'anaviy maishiy xizmat turlari shaharda ham, qishloq joylarda ham yetarli darajada rivojlanmayapti. Bunday holat viloyatning qishloq hududlarida demografik jarayonlar va "demografik bosim" bilan bog'liq ish

bilan bandlik muammo oqibatlarini yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, qishloq joylarida bu sohani rivojlantirish uchun hych qanday ta'sirchan choralar ko'rilmadan kelinmoqda.

Shu bilan birgalikda, Samarqand viloyatida maishiy xizmat ko'rsatish shahobchalarini tashkil etilish dinamikasi o'sish tendensiyasiga ega. Buni 2-jadvaldagi statistik ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkin. Viloyatda 2019-2022 yillarda barcha turdagi maishiy xizmat ko'rsatish shahobchalari soni o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Viloyatda tahlil etilayotgan yillar mobaynida eng yuqori o'sish kiyimlarni kimyoviy tozalash shahobchalarida, ya'ni 2019 yilda 2 tani tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilga kelib 3 taga ko'paygan. Shuningdek, maishiy texnika asboblarini ta'minlash ustaxonalari soni 2022 yilda 2019 yilga nisbatan 118,6 %ga o'sgan. Viloyatda

ijara xizmati shahobchasi ham 2019 yilda 8 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022 yilda 12 taga ko'paygan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, yuqoridagi holatning mavjud bo'lishining asosiy sababi, bir tomondan, xizmat ko'rsatish sohasining oshishi va mehnat unumdorligining o'sishi hisobiga intensiv rivojlanishini ta'minlash evaziga ro'yxatdagi ishchilar soni qisqartirilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, maishiy xizmat ko'rsatish sohasida bandlikning ko'proq jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri kelishi hisoblanadi, ya'ni maishiy xizmat bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning ko'pchiligi vaholanki, maxsus ruxsatnoma yoki lisenziyaga ega emas. Ular olgan daromadlaridan ko'pincha soliq to'lamaydilar. Bu esa sohada yashirin ish bilan bandlikning yuqori darajada ekanligini bildiradi.



1-rasm. Samarqand shahrida xizmatlar bozorida maishiy xizmatlar va shu sohada ishlovchilarning ulushi, foizda

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi yillarda xizmatlar bozorida umumiy xizmatlarning hajmi tobora ortib bormoqda. Bu hol bozorda bir qator yangi xizmat turlarini paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan bog'liq. Xususan,

so'ngi yillarda aloqa va axborotlashtirish, moliyaviy, reklama, huquqiy, turistik va boshqa xizmat turlarini rivojlanishi natijasida xizmat ko'rsatish sohasida yangi ish o'rinlarini yaratilishiga va mehnatga layoqatli aholini ish bilan bandligini ta'minlashga

erishilmoqda. Ammo maishiy xizmat sohasida yangi ish o'rinlarini yaratish va bandlikni ta'minlash salbiy tendensiyaga ega. Masalan, Samarqand shahrida 2018 yilda xizmat bozorida maishiy xizmat sohasida band bo'lganlar 2,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda bu ko'rsatkich 1,9 foizni tashkil etdi, yoki 64 ta ish o'rinlari qisqarib ketdi. (1-rasm).

**Xulosa va takliflar:** Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, xizmat ko'rsatish iqtisodiyotida samarali faoliyat yuritish an'anaviy (industrial) iqtisodiyotdagi samarali faoliyatdan tubdan farq qiladi va u ko'proq ijtimoiy yo'naltirilganlik xususiyatiga ega.

Shunday ekan, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamalakatlarida xizmat ko'rsatish iqtisodiyotini rivojlanib borishi ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotni yangicha tushunishga olib kelmoqda. Xususan, nafaqat miqdoriy o'sish sur'ati, balki ijtimoiy ko'rsatkichlar, hayot sifati ko'rsatkichlari unda asosiy ahamiyat kasb etmoqda. Bunday sharoitda samarali faoliyat deganda jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini, birinchi navbatda ijtimoiy yo'naltirilgan maqsadlarni qondirishga qaratilishi tushuniladi. Industrial iqtisodiyotda ko'proq miqdoriy, iqtisodiy va ustuvor maqsadlar nazarda tutiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 9-сон, 89-модда, 27-сон, 326-модда; 2017 й., 15-сон, 257-модда, 33-сон, 863-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 20.12.2019 й.,*
2. *О'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 yanvardagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-104-sonli Qarori*
3. *О'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ 60-son Qarori*
4. *О'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini-o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4742-son qaror.*
5. *Ўзбекистон Республикасини 2030 йилга қадар ижтимоий-иқтисодий комплекс ривожлантириши концепцияси ID-9413 <https://regulation.gov.uz> .06.04.2020*
6. *Қудратов Ф.Х., ПардаевМ.Қ., Абдукаримов Б.А. "Сервис ривожу – аҳолининг бандлигини таъминлаш ва фаровонлигини ошириши омили". Т.: "Fan va tehnologiya" нашриёти, 2007. – 12 Б.*
7. *Sh.S.Sharifov. Improving the welfare and employment of the population. Internation scientific research journal 04.2022*
8. *Sh.S.Sharifov. Socio-Economic Directions of Development of the Consumer Services Sector. Spanish jurnal of innovation and integrity 04.2022*
9. *Словар иностранных слов. -16- е из.,испр.-М.: Рус яз.. 1988 -461 Б.*
10. *Русча-узбекча лугат. 2-том. Т.: 1984. – 410 Б.*



<https://doi.org/10.59251/2181-3973.2023.v3.138.3.2559>

## INTENSIV BOG'DORCHILIKDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH: NAZARIY ISTIQBOLLAR VA ISTIQBOLDAGI YO'NALISHLAR

*Fazliddin Norbekov*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*Samarqand filiali tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** *Intensiv bog'dorchilik global oziq-ovqat ishlab chiqarishda muhim rol o'ynaydi va yangi va to'yimli mahsulotlarga bo'lgan talabni qondirish uchun barqaror yechimni ta'minlaydi. Dunyo aholisining o'sishi davom etar ekan, intensiv bog'dorchilikning iqtisodiy samaradorligi birinchi o'ringa chiqadi. Ushbu maqola barqaror tajribalar, texnologik yutuqlar va boshqaruvning innovatsion yondashuvlariga e'tibor qaratgan holda intensiv bog'dorchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha nazariy g'oyalar va strategiyalarni o'rganadi.*

**Kalit so'zlar:** *Intensiv bog'dorchilik, iqtisodiy samaradorlik, barqaror amaliyotlar, aniq qishloq xo'jaligi, texnologik yutuqlar, innovatsion boshqaruv*

Nazorat qilinadigan sharoitlarda yuqori qiymatli ekinlarni sinchkovlik bilan yetishtirish bilan ajralib turadigan intensiv bog'dorchilik butun dunyo bo'ylab yangi va to'yimli mahsulotlarga o'sib borayotgan talabni qondirishda asos bo'ldi. Dunyo aholisining ko'payishi va urbanizatsiya tezlashgani sababli, intensiv bog'dorchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish zarurati tobora kuchayib bormoqda. Ushbu maqola barqaror amaliyotlar, transformatsion texnologik aralashuvlar va boshqaruvning yangi paradigmalariga diqqat bilan qaragan holda intensiv bog'dorchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan nazariy asoslar va innovatsion strategiyalarni o'rganadi.

Dunyo hal qiluvchi pallada turibdiki, an'anaviy qishloq xo'jaligi amaliyotlari ko'pincha oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojni iqtisodiy jihatdan foydali va ekologik jihatdan barqaror tarzda qondirish uchun yetarli emas. Intensiv bog'dorchilik texnologik yutuqlar va nazariy bilimlarni qo'llash

orqali nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulдорligini oshirish, balki an'anaviy dehqonchilik usullari bilan bog'liq ekologik jarayonni yumshatish imkoniyatiga ega.

Ushbu tadqiqot intensiv bog'dorchilikning iqtisodiy samaradorligi uning uzoq muddatli hayotiyli bilan chambarchas bog'liqligini tan olish bilan bog'liq. Nazariy asoslarni sinchiklab o'rganib chiqib, biz barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlari, ilg'or texnologiyalar va innovatsion boshqaruv strategiyalari doirasidagi imkoniyatlarni ochib berishni maqsad qilganmiz. Ushbu nazariy so'rov tadqiqotchilar va amaliyotchilarga ma'lumot berishga, ularni intensiv bog'dorchilik global oziq-ovqat muammolariga bardoshli va iqtisodiy jihatdan kuchli yechim bo'ladigan kelajakka yo'naltirishga intiladi.

Intensiv bog'dorchilik, o'sib borayotgan aholi talablarini qondirish uchun zarur bo'lsa-da, hosildorlik va atrof-muhitni muhofaza qilish

o'rtasidagi nozik muvozanatni boshqarishi kerak. Barqaror amaliyotlar ushbu muvozanatga erishishda hal qiluvchi rol o'ynaydi, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va ekologik ta'sirni minimallashtirish uchun nazariy asoslarni taklif qiladi. Biz ushbu tadqiqotda intensiv bog'dorchilikning **barqaror amaliyotini** asoslovchi asosiy nazariy g'oyalarni o'rgandik:

**1. Aniq qishloq xo'jaligi.** Resurslarni maqsadli boshqarish kontseptsiyasiga asoslangan aniq qishloq xo'jaligi suv, o'g'itlar va pestitsidlar kabi manbalarni aniq qo'llashni nazarda tutadi. Nazariy asos intervensiyalarni moslashtirish, resurslardan foydalanish samaradorligini optimallashtirish va atrof-muhit ta'sirini kamaytirish uchun ma'lumotlarga asoslangan tushunchalardan foydalanishda yotadi.

Aniq qishloq xo'jaligini integratsiyalashgan holda, bog'dorchilar nazariy jihatdan chiqindilarni minimallashtirishi, hosildorlikni oshirishi va atrof-muhitning ifloslanishini kamaytirishi mumkin. Resurslarni aniq qo'llash barqaror intensivlashtirishning kengroq maqsadiga mos keladi, uzoq muddatli ekologik barqarorlikni buzmasdan iqtisodiy yutuqlarni ta'minlaydi.

**2. Integratsiyalashgan zararkunandalarga qarshi kurash (Integrated Pest Management - IPM).** IPM biologik nazorat usullari, chidamli ekin navlari va madaniy amaliyotlarning integratsiyasini ta'kidlab, yaxlit yondashuvni o'zida mujassam etgan. Nazariy asos tabiiy yirtqichlar, chidamli ekinlar va madaniy amaliyotlar birgalikda zararkunandalar bosimini

yengillashtiradigan muvozanatli ekotizimni mustahkamlashda yotadi.

IPMni qabul qilish kimyoviy manbalarga bog'liqlikni nazariy jihatdan kamaytiradi, biologik xilma-xillikni saqlaydi va ekologik jarayonni minimallashtiradi. Zararkunandalarga qarshi kurash barqaror va o'z-o'zini tartibga soluvchi qishloq xo'jaligi tizimining ajralmas qismiga aylangani uchun iqtisodiy samaradorlik kuchayadi.

**3. Agroekologiya.** Agroekologiya ekologik tamoyillarni barqarorlikni oshirish uchun qishloq xo'jaligi tizimlariga qo'llash mumkinligini ta'kidlaydi. Nazariy asos qishloq xo'jaligi va atrof-muhit o'rtasidagi uyg'un munosabatlarni ta'kidlab, biologik xilma-xillik, tuproq salomatligi va mustahkamlik tamoyillariga asoslanadi.

Agroekologik tamoyillarning kiritilishi nazariy jihatdan tuproq salomatligini mustahkamlaydi, tashqi manbalarga bo'lgan ehtiyojni minimallashtiradi va intensiv bog'dorchilik tizimlarining umumiy chidamliligini oshiradi. Iqtisodiy samaradorlikka kirish xarajatlarini kamaytirish va tizim mustahkamligini oshirish orqali erishiladi.

**Barqaror amaliyot** intensiv bog'dorchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy asosini tashkil etadi. Aniq qishloq xo'jaligi, zararkunandalarga qarshi kompleks nazorat va agroekologik tamoyillarni o'zlashtirgan holda, bog'dorchilar barqaror intensivlashtirish yo'lidan borishlari mumkin. Ushbu bo'limda keltirilgan nazariy tushunchalar amaliyotchilarga intensiv bog'dorchilikning uzoq muddatli

hayotiyligini ta'minlaydigan iqtisodiy maqsadlarni atrof-muhitni muhofaza qilish bilan muvofiqlashtirish uchun yo'lar xaritasini taqdim etadi.

**Intensiv bog'dorchilikning texnologik yutuqlari.** Intensiv bog'dorchilik sohasida texnologik innovatsiyalar iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirishi mumkin bo'lgan nazariy asoslarni taklif qilib, an'anaviy amaliyotni inqilob qilish imkoniyatiga ega. Intensiv bog'dorchilikda texnologik yutuqlarni asoslovchi aqlli dehqonchilik texnologiyalaridan tortib eng zamonaviy genetik aralashuvlarga asosiy nazariy g'oyalarni o'rgandik:

1. **Aqlli dehqonchilik texnologiyalari.** Buyumlar interneti, dronlar va sensorlarni o'z ichiga olgan aqlli qishloq xo'jaligi texnologiyalarining paydo bo'lishi real vaqt rejimida ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishning nazariy asoslariga tayanadi. Bu bog'dorchilarga resurslardan foydalanishni optimallashtirish, ekinlarning sog'lig'ini kuzatish va umumiy operatsion samaradorlikni oshirish imkonini beruvchi ongli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Nazariy jihatdan aqlli qishloq xo'jaligi texnologiyalarining integratsiyasi resurslarni boshqarishda ma'lumotlarga asoslangan aniqlikka, chiqindilarni kamaytirishga va samaradorlikni oshirishga olib kelishi mumkin. Haqiqiy vaqt rejimida monitoring qilish qobiliyati bog'dorchilarga o'zgaruvchan sharoitlarga zudlik bilan javob berishga imkon beradi va natijada iqtisodiy natijalarni kuchaytiradi.

2. **Vertikal dehqonchilik.** Vertikal dehqonchilik an'anaviy gorizontal ekin ekishdan vertikal stacked tizimga nazariy o'tishni ifodalaydi. Uning asosi fazodan foydalanishni optimallashtirish, boshqariladigan muhitda yil davomida ishlab chiqarish imkonini beradi. Nazariy modellar maydon birligidan hosildorlikni oshirish va transport xarajatlarini kamaytirishni taklif qiladi.

Vertikal dehqonchilikning nazariy oqibatlari yerdan foydalanish samaradorligini oshirish, atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish va yil davomida izchil ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Dehqonchilikni shahar markazlariga yaqinlashtirish orqali vertikal dehqonchilik logistika muammolarini minimallashtirish va intensiv bog'dorchilikning iqtisodiy samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega.

3. **Genni tahrirlash.** CRISPR-Cas9 kabi genlarni tahrirlash texnologiyalaridagi yutuqlar o'simlik genomlarini aniq manipulyatsiya qilish uchun nazariy asos yaratadi. Hosildorlik, ekologik stressga chidamlilik va ozuqaviy tarkib kabi kerakli xususiyatlarni oshirish qobiliyati nazariy jihatdan ekinlarni yaxshilashda yangi chegaralarni ochadi.

Bog'dorchilikda genlarni tahrirlashning nazariy qo'llanilishi yaxshilangan xususiyatlarga ega ekinlarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi, bu hosildorlikning oshishiga va resurslarga bo'lgan talabning pasayishiga olib keladi. Bu nafaqat iqtisodiy samaradorlikka hissa qo'shadi, balki barqaror va barqaror qishloq

xo'jaligining kengroq maqsadlariga ham mos keladi.

Intensiv bog'dorchilikda texnologik yutuqlarni nazariy jihatdan o'rganish imkoniyatlar manzarasini ochib beradi. Aqlli dehqonchilik texnologiyalari orqali real vaqt rejimidagi ma'lumotlar quvvatidan foydalanishdan tortib, vertikal dehqonchilik va o'simliklar genomlarini aniq tahrirlash orqali yetishtirishni qayta ko'rib chiqishgacha, bu nazariy asoslar intensiv bog'dorchilik uchun iqtisodiy jihatdan samaraliroq va texnologik jihatdan ilg'or kelajakka yo'l ochadi. Ushbu nazariy g'oyalar amaliy qo'llanilishiga o'tishi bilan intensiv bog'dorchilikning iqtisodiy landshaftini transformativ o'zgartirish imkoniyatlari tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Intensiv bog'dorchilikning iqtisodiy samaradorligi faqat texnologik yutuqlar va barqaror amaliyotlar bilan belgilanmaydi; balki **innovatsion boshqaruv** yondashuvlari sanoat muvaffaqiyatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aylanma iqtisod modellaridan tortib qo'shimcha qiymatli mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va hamkorlik platformalarigacha bo'lgan innovatsion boshqaruv strategiyalarini asoslovchi nazariy asoslarni o'rgandik:

1. **Doiraviy iqtisodiyot modellari.** Aylanma iqtisodiyot modellari resurslardan siklik foydalanishga urg'u berib, chiziqli "ol-ya-bo'sh" paradigmasidan voz kechishni taklif qiladi. Nazariy jihatdan, intensiv bog'dorchilikda aylanma iqtisod tamoyillarini amalga oshirish chiqindi materiallarni qayta ishlash va qayta ishlatishni o'z ichiga oladi, shu bilan

kirish xarajatlarini kamaytiradi va yopiq tizimni rivojlantiradi.

Intensiv bog'dorchilikda aylanma iqtisod modellarini qabul qilishning nazariy oqibatlarini chiqindilarni ishlab chiqarishni minimallashtirish, tashqi manbalarga bog'liqlikni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy yutuqlarni o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarish siklini yopish orqali bog'dorchilar nazariy jihatdan barqaror va iqtisodiy jihatdan bardoshli tizim yaratishlari mumkin.

2. **Qo'shilgan qiymatli mahsulotlar.** Intensiv bog'dorchilikdan olinadigan mahsulotlar assortimentini diversifikatsiya qilish qo'shimcha qiymat va daromad manbalarini yaratish nazariy asosiga asoslanadi. Bu xom ashyoni ekstraktlar, efir moylari yoki maxsus oziq-ovqatlar kabi yuqori qiymatli mahsulotlarga aylantirishni o'z ichiga oladi.

Nazariy modellar qo'shimcha qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqish iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirishi mumkinligini ko'rsatadi. Bog'dorlar bozorlarga kirish va iste'molchilarning xohishlariga javob berish orqali nazariy jihatdan foyda marjasini oshirishi, bozor o'zgaruvchanligini kamaytirishi va iqtisodiy jihatdan mustahkamroq sektorni yaratishi mumkin.

3. **Hamkorlik platformalari.** Intensiv bog'dorchilik sektorida hamkorlik platformalarini tashkil etish jamoaviy bilim, resurslarni taqsimlash va muammolarni birgalikda hal qilish rivojlangan iqtisodiy natijalarga olib kelishi mumkinligini nazariy tushunishga asoslanadi. Ushbu platformalar bog'dorchilar,

tadqiqotchilar va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlikni o'z ichiga olishi mumkin.

Hamkorlik platformalarining nazariy ta'siri jadallashtirilgan innovatsiyalar, umumiy resurslar va muammolarni jamoaviy hal qilishni o'z ichiga oladi. Birgalikda ekotizimni rivojlantirish orqali bog'dorchilar nazariy jihatdan muammolarni yanada samaraliroq hal qilishlari, sinergiyalardan foydalanishlari va intensiv bog'dorchilikning umumiy iqtisodiy barqarorligiga hissa qo'shishlari mumkin.

Boshqaruvning innovatsion yondashuvlarini nazariy tadqiq etish intensiv bog'dorchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirishning istiqbolli strategiyalarini ochib beradi. Aylanma iqtisodiyot tamoyillarini qabul qilishdan mahsulot portfelini diversifikatsiya qilish va hamkorlikni rivojlantirishgacha bo'lgan ushbu nazariy asoslar intensiv bog'dorchilik uchun yanada iqtisodiy barqaror va barqaror kelajakni shakllantirish uchun yo'l xaritasini taqdim etadi. Ushbu nazariyalar amaliy qo'llanilishiga o'tishi bilan intensiv bog'dorchilikning iqtisodiy landshaftini transformativ o'zgartirish salohiyati tobora sezilarli bo'lib bormoqda.

Intensiv bog'dorchilikda iqtisodiy samaradorlikka intilishda barqaror amaliyotlar, texnologik yutuqlar va boshqaruvning innovatsion yondashuvlarini uyg'unlashtirish katta strategiya sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada ko'rib chiqilgan nazariy asoslar intensiv bog'dorchilik nafaqat ortib borayotgan global talablarga javob beradigan, balki ekologik barqaror, iqtisodiy jihatdan

samarali va ijtimoiy mas'uliyatli tarzda amalga oshiriladigan kelajakni etishtirish uchun yo'l xaritasini taqdim etadi.

Aniq qishloq xo'jaligi, zararkunandalarga qarshi integratsiyalashgan boshqaruv va agroekologiya kabi barqaror amaliyotlarga oid nazariy tushunchalar hosildorlikni ekologik boshqaruv bilan muvozanatlash muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu amaliyotlarni o'z ichiga olgan intensiv bog'dorchilik resurslardan foydalanishni nazariy jihatdan optimallashtirish, atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish va qishloq xo'jaligi tizimlarining uzoq muddatli hayotiyiligini ta'minlashi mumkin.

Aqlii dehqonchilik texnologiyalari, vertikal dehqonchilik va genlarni tahrirlash kabi texnologik yutuqlarni nazariy jihatdan o'rganish intensiv bog'dorchilik uchun yangi chegaralarni ochadi. Ma'lumotlar kuchidan foydalanish, fazoviy cheklovlarni qayta ko'rib chiqish va o'simliklar genomlarini aniq boshqarish orqali bog'dorlar nazariy jihatdan hosildorlikni oshirishi, chiqindilarni kamaytirishi va samaradorlikning yangi davrini boshlashi mumkin.

Aylanma iqtisodiyot modellari, qo'shimcha qiymatli mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va hamkorlik platformalari kabi boshqaruvning innovatsion yondashuvlari atrofidagi nazariy asoslar yaxlit va istiqbolli strategiyalarning muhimligini ta'kidlaydi. Nazariy ilovalar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish sikllarini yopish, yuqori qiymatli mahsulotlar yaratish va hamkorlikni rivojlantirish orqali intensiv bog'dorchilik nazariy

jihatdan iqtisodiy barqarorlik va moslashuvchanlikni yaratishi mumkin.

Ushbu nazariy paradigmalar bir-biriga yaqinlashganda, intensiv bog'dorchilikning iqtisodiy landshaftidagi transformativ o'zgarishlarning salohiyati tobora ortib bormoqda. Barqaror amaliyotlar, texnologik innovatsiyalar va innovatsion menejmentning sinergiyasi sanoatni nazariy jihatdan iqtisodiy samaradorlik atrof-muhitning buzilishi hisobiga emas, balki ekologik barqarorlik bilan uzviy bog'langan kelajak sari undashi mumkin.

Biroq, bu nazariy g'oyalar amaliy yechimlarga aylanishi uchun tadqiqotchilar, amaliyotchilar, siyosatchilar va manfaatdor tomonlarning hamkorlikdagi sa'y-

harakatlari zarur. Nazariya va amaliyot o'rtasidagi dinamik o'zaro bog'liqlik intensiv bog'dorchilik traektoriyasini shakllantiradi, bu nafaqat iqtisodiy natijaga, balki barqarorlik, oziq-ovqat xavfsizligi va ekologik uyg'unlik kabi kengroq maqsadlarga ham ta'sir qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada keltirilgan nazariy istiqbollar intensiv bog'dorchilik, innovatsiyalar, samaradorlik va barqarorlik bo'lgan kelajakni nazarda tutadi. Ushbu nazariy asoslarni qabul qilish va amalga oshirish orqali biz sayyoramiz salomatligini himoya qilgan holda o'sib borayotgan global aholi ehtiyojlarini qondiradigan barqaror va iqtisodiy jihatdan samarali intensiv bog'dorchilik sektorini rivojlantirishimiz mumkin.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Altieri, M. A., & Nicholls, C. I. (2020). *Agroecology and the Reconstruction of a Post-COVID-19 Agriculture*. *Journal of Peasant Studies*, 47(5), 881-898.
2. Godfray, H. C. J., Beddington, J. R., Crute, I. R., Haddad, L., Lawrence, D., Muir, J. F., ... & Toulmin, C. (2010). *Food Security: The Challenge of Feeding 9 Billion People*. *Science*, 327(5967), 812-818.
3. Kell, D. B., Wurtzel, E. T., & Khachik, F. (2017). *Carotenoids: A Striking Palette Displayed by Stealth Producers*. *Trends in Plant Science*, 22(3), 306-309.
4. Kumar, P., Kumar, S., Rana, V., & Mendiratta, N. (2020). *Vertical Farming: A Boon to Agricultural Sustainability*. *Environmental Sustainability*, 3(3), 221-228.
5. Qaim, M. (2019). *Gene-Edited Crops: The Opportunities and Challenges Ahead*. *GM Crops & Food*, 10(4), 219-221.
6. Rockström, J., Williams, J., Daily, G., Noble, A., Matthews, N., Gordon, L., ... & DeClerck, F. (2017). *Sustainable intensification of agriculture for human prosperity and global sustainability*. *Ambio*, 46(1), 4-17.
7. Sachs, J. D., Remans, R., Smukler, S. M., Winowiecki, L., Andelman, S. J., Cassman, K. G., ... & DeFries, R. S. (2010). *Monitoring the World's Agriculture*. *Nature*, 466(7306), 558-560.
8. Tilman, D., Balzer, C., Hill, J., & Befort, B. L. (2011). *Global Food Demand and the Sustainable Intensification of Agriculture*. *Proceedings of the National Academy of Sciences*, 108(50), 20260-20264.

<https://doi.org/10.59251/2181-3973.2023.v3.138.3.2560>

## ЎЗБЕКИСТОНДА УЙ-ЖОЙ ВА КОММУНАЛ ХЎЖАЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ АСОСЛАРИ

*Ҳасанов Тоҳир Абдурашидович,*

*Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги*

*Давлат бошқарув академияси профессори в.б., и.ф.д., доцент*

**Аннотация.** Мақолада муаллиф томонидан иқтисодиётнинг бир тармоғи сифатида, Ўзбекистонда уй-жой коммунал хўжалиги соҳасининг ташкилий асослари, ривожланиш тенденцияси ва такомиллаштириш йўналишлари таҳлил қилинган. Жумладан, бозор иқтисодиёти тамойилларидан келиб чиқиб, бугунги кунда Ўзбекистонда олиб борилаётган кенг кўламли ислохотлар, авваламбор, халқ билан мулоқот принципига зоят уйғунлиги асосланган. Шунингдек, мамлакатимизнинг уй-жой ва коммунал инфратузилмасини яхшилаш асосида, нафақат аҳолининг турмуш фаровонлигини яхшилаш, балки турли ижтимоий кўрсаткичларда халқаро рейтинг ва индекслардаги ўрнини яхшилаш бўйича илмий таклиф ва амалий тавсиялар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** иқтисодиёт, ижтимоий соҳа, давлат бошқаруви, бозор иқтисодиёти, ижтимоий ҳимоя, аҳолининг турмуш даражаси, ижтимоий неъмат, ижтимоий кафолатлар, халқаро рейтинг ва индекслар.

**Аннотация.** В статье автор проанализировал, как отрасли экономики, организационные основы, тенденции развития и направления совершенствования жилищно-коммунального хозяйства Узбекистана. В частности, основанные на принципах рыночной экономики масштабные реформы, проводимые сегодня в Узбекистане, основаны на принципе общения с народом. Также на основе совершенствования жилищно-коммунальной инфраструктуры нашей страны разработаны научные предложения и практические рекомендации, направленные не только на повышение благосостояния населения, но и на улучшение его позиций в международных рейтингах и индексах по различным социальным индикаторам.

**Ключевые слова:** экономика, социальная сфера, государственное управление, рыночная экономика, социальная защита, уровень жизни населения, социальные выплаты, социальные гарантии, международный рейтинг и индексы.

**Annotation.** In the article, the author analyzed as a one of the sectors of economy, organizational foundations, development trends and directions for improving the housing and communal sphere of Uzbekistan. In particular, the large-scale reforms being carried out today in Uzbekistan, based on the principles of a market economy, are based on the principle of communication with the people. Also, based on improving the housing and communal infrastructure of our country, scientific proposals and practical recommendations have been developed, aimed not only at improving the well-being of the population, but also at improving its position in international rankings and indices for various social indicators.



**Keywords:** *economics, social sphere, public administration, market economy, social protection, standard of the population life, social payments, social guarantees, international rankings and indexes.*

Бозор муносабатларига ўтиш даврида ҳар бир аҳоли яшаш жойининг ривожланиши ва унинг ободонлаштирилиши даражалари мамлакатда яратилган уй-жой коммунал инфратузилмани ифодалаш билан бирга, аҳоли фаровонлиги ва маданият даражасини оширишни асосий дастаги ҳисобланади. Бу инсоннинг яшаши, меҳнат қилиши, дам олиши билан боғлиқ шароитлар ва воситалар мажмуасини юзага келтириш билан чамбарчас боғлиқдир.

Маълумки, иқтисодиётнинг бир тармоғи сифатида, уй-жой коммунал хўжалиги соҳасига уй-жойдан фойдаланиш, марказлаштирилган сув таъминоти ва оқова сув хизматлари, шаҳар транспорти, иссиқлик, электр ва газ таъминоти, йўл-кўприк хўжалиги ва аҳоли яшайдиган пунктларни ободонлаштириш, кўкаламзорлаштириш, йўллар ва ҳудудларни санитар тозалаш, кўчаларни ёритиш, ҳаммомлар, кир ювиш ишхоналари ва бошқа коммунал корхоналар, меҳмонхоналар хизматлари ва бошқа фаолият турлари киради. Инсоннинг ҳаёт кечириши, дам олиши, меҳнат қилиши учун қулай шарт-шароитларнинг яратилиши охир-оқибатда унинг меҳнат фаолиятига, иш унумдорлигига ўз таъсирини кўрсатади. Бу, ўз навбатида, иш кучини қайта ишлаб чиқариш, яъни малака ошириш, дунёқарашининг кенгайиши билан боғлиқ бўлиб, иқтисодиётнинг ҳеч бир тармоғи

техник ва технологик юксалишсиз олдинга қараб ҳаракатланмайди.

Уй-жой коммунал хўжалигининг ривожланиши бир қатор кўрсаткичлар билан тавсифланади [Бузырев, В.В. Экономика жилищной сферы. В.В. Бузырев, В.С. Чекалин. – М.: ИНФРА-М, 2005. – 256 с.]:

- коммунал хизматга эга бўлган шаҳарлар сони;

- коммунал корхоналар қувватларининг ўшиши;

- аҳолига кўрсатилаётган хизматлар (маҳсулотлар) ҳажми;

- аҳоли жон бошига истеъмол қилинаётган коммунал хизматлар ва ҳ.к.

Ушбу кўрсаткичлар нафақат коммунал хизмат кўрсатувчи корхоналарнинг ривожланишини баҳолашга имкон яратади, балки уларни ҳам тармоқ ҳам ҳудудлараро мутаносиблигини аниқлаш имконини беради. Тармоқнинг келажақда ривожланиши, яъни аҳолига хизмат кўрсатиш ҳажмларининг ошиши, хизматлар ва хизмат кўрсатиш сифатини ошириш, қишлоқ жойларда кўрсатиладиган хизматлар даражаларини шаҳарлардаги кўрсаткичларга тенглаштириш албатта қўшимча иш кучи талаб қилади. Шунинг учун уй-жой коммунал хизмат хўжалигининг барча соҳаларида меҳнат самарадорлигини ошириш тармоқни янада ривожлантиришнинг муҳим омилларидан бири ҳисобланади.

Ўзбекистон мустақилликка эришгач, шаҳарларнинг



ривожланиши ва реконструкцияланиши учун тубдан янги шарт-шароитлар яратилди. Маҳаллий ҳокимият органларига ҳукумат органлари томонидан чиқарилган бошқарув ҳужжатларига амал қилган ҳолда, шаҳарларга ҳудудий, ижтимоий, иқтисодий, гигиеник, эстетик ва бошқа бир қатор иқтисодий масалаларини ечиш имкониятини берди.

Шаҳарларнинг ривожланиши ва ободонлаштирилиши даражалари аҳолининг бевосита меҳнат қилиш шароитларига, турмуш тарзига, дам олишига таъсир кўрсатади, шунинг учун шаҳарлар ҳам ижтимоий ҳам иқтисодий аҳамиятга эга. Шулардан келиб чиққан ҳолда, шаҳарларнинг санитар ҳолати, атроф-муҳитни яхшилаш, саноат ва маиший оқавасувлар учун тозалаш иншоотларини куриш ва реконструкция қилиш, газдан тозалаш ва чанг ютувчи мосламаларни ўрнатиш, ҳавони ифлосланишидан сақлаш, ёритиш ва кўкаламзорлаштириш тадбирларни кучайтириш, шовқин-суронга қарши курашиш, сув ҳавзаларини ва аҳолини ичимлик суви билан таъминлаш иншоотларини муҳофаза қилиш талаб этилади [Нуримбетов Р.И., Носирова Л.А. Проблемы развития жилищно-коммунальной сферы. “Ўзбекистон меъморчилиги, курилиш ва шаҳарсозлигининг ривожланиши муаммолари” мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари, I-қисм, Самарқанд, 2007.]

Таъкидлаш жоизки, шаҳар қанчалик катта бўлса, унда хизмат кўрсатувчи корхоналар сони, улар

кўрсатадиган хизматлар ва ишлаб чиқарадиган маҳсулотлар ҳам киши бошига, ҳам тури бўйича шунча кўп бўлиши табиийдир. Аҳолининг ҳам моддий, ҳам маънавий фаровонлигини оширишнинг асосий дастаги ҳисобланган уй-жой хўжалигининг барча тармоқларини ривожлантириш, давлат томонидан доимий назоратга олинган.

Шаҳарлар ва аҳоли яшайдиган пунктларни ривожлантириш лойиҳалари ишлаб чиқариш кучларини жойлаштирилишини ҳисобга олган ҳолда ишлаб чиқилган иқтисодиётни ривожлантиришнинг истиқболдаги режаларига асосан ишлаб чиқилиши керак. Шаҳар хўжалиги таркибидаги соҳаларнинг келажакда ўсиши – янги ахборот коммуникация технологияларини жорий этиш асосида аҳолига хизмат кўрсатишни юксалтириш, ҳажмини ошириш ва сифатини яхшилаш каби омиллар билан ифодаланади. Шу сабабли уй-жой хўжалигининг барча соҳаларида меҳнат унумдорлигини кучайтириш шаҳарлар ривожланишида асосий долзарб талаб ҳисобланади [Жуков, Д.М. Экономика и организация жилищно-коммунального хозяйства города / Д.М. Жуков. – М.: ВЛАДОС-пресс, 2005. – 95 с.]

Жаҳоннинг турли мамлакатларида иқтисодий ривожланишнинг бозор муносабатлари шаклига ўтишининг асосий тамойилларидан бири бу – кучли ижтимоий сиёсат юритиш бўлиб, иқтисодиётда ижтимоий соҳанинг муҳим таркибий қисми коммунал хўжалиги соҳаси

хисобланади. Коммунал хўжалиги соҳаси таркибига катта миқдордаги кўп квартиралли, кўп қаватли уйлар ва яқка тартибда қурилган уйлар, ичимлик суви ва канализация хизмати, шаҳар электр транспорти, меҳмонхоналар, санитария жиҳатдан тозалаш хизматлари, йўл хизмати, кўкаламзорлаштириш, қозонхона ва иссиқлик соҳалари, маҳаллий электр станциялари ва электр соҳалари, газ хизмати ва бошқалар киради.

Шунингдек, коммунал хўжалиги соҳаси ва миллий иқтисодиётнинг бошқа соҳалари ўртасида бевосита ва билвосита узвий ижтимоий-иқтисодий муносабатлар бордир. Маълумки, бугунги кунда ишлаб чиқаришда табиий ресурслардан оқилона фойдаланмасдан ва уларни тикламасдан туриб ривожлантириб бўлмайди. Атроф-муҳитни сақлаш, оқовасувларни инсон организми учун хавфли бўлган заҳарли кимёвий моддалардан тозалаш ҳам уй-жой коммунал хизматининг фаолиятига боғлиқ.

Мамлакатимизнинг географик табиати ичимлик сувини тозалашнинг технологик жараёнларини доимий равишда такомиллаштириб боришни тақозо этади.

Иқтисодиётнинг ўтиш даврида лойиҳалаштирувчи ва сув хизмати ташкилотлари қидириб топилган ва тасдиқланган ер ости сувларидан тўлақонли фойдаланиш масалаларига зарур даражада эътибор берилмайди. Натижада, баъзи ҳудудларда ер ости сувлари бошқа мақсадларда ва асосиз тарзда истеъмол қилинади. Бундай ҳолат заҳираларнинг камайишига ва ер ости сувлари

сифатининг ёмонлашувига олиб келади.

Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш тадбирлари мажмуида қаттиқ маиший чиқиндиларни йўқотиш ва зарарсизлантириш муаммоси муҳим ўрин тутаяди. Уларни ахлат тўкиладиган жойларда кўмиб ташлашнинг анъанавий ва кенг тарқалган усули қониқарли деб тан олинishi ҳам мақсадга мувофиқмас. У кенг ҳудудларнинг эгалланиши билан боғлиқ бўлиб, уларни ташиш учун катта миқдордаги харажатларни талаб қилади. Ёқиб юбориш чиқинди миқдорини камайитириш имконини беради, бироқ бунда ихтисослашган корхоналарда дастлабки материални қайта ишлаб йўқ қилиш мумкин бўлган қимматбаҳо моддалар ёниб кетади. Минорали ёки барабанли қурилмаларда ишлов бериш жараёнида чиқиндилар зарарсизлантирилади ва бу атроф-муҳитни муҳофаза қилиш талабларига тўлиқ мос келади [Ёдгаров В.У., Бутунов Д.Я. Уй-жой коммунал хўжалиги ва иқтисодиёти. Дарслик. 2011.].

Уй-жой коммунал хўжалиги соҳаси иқтисодиёт ривожланишининг умумий қонуниятлари ҳамда газ саноати, энергетика ва миллий иқтисодиётнинг бошқа соҳалари ривожланишининг таъсири остида шаклланади. Уй-жой коммунал хўжалиги соҳаси ривожлантириш саноат корхоналари ва ташкилотларининг узлуксиз ишлашига катта таъсир кўрсатади, бунинг натижасида уй хизматида меҳнат ва вақт сарфи қисқаради. Ҳеч бўлмаганда асосий коммунал

кулайликлар билан таъминланган уйларда яшовчи оилалар уй хизматини юритиш учун бундай кулайликларга эга бўлмаган оилаларга қараганда анча кам вақт сарфлашади.

Уй-жой коммунал хўжалиги соҳасини ривожлантириш суръатлари ва ҳажми, бир томондан, мустақил эмас, балки истеъмолчилардан ҳосил бўладиган катталик. Масалан, саноатнинг ривожланиши шаҳарда аҳоли сонининг ошишини белгилаб берувчи шаҳар ҳосил қилувчи омил ҳисобланади. Ўз навбатида, уй-жой, маданий-маиший қурилишнинг ҳам суръатлари ортади. Иккинчи томондан, ишлаб чиқариш соҳаси, унинг динамикаси кўпроқ аҳолининг меҳнат қилиши, турмуши ва дам олиши учун нормал шароитларни таъминловчи шаҳар коммунал хизмат кўрсатиш соҳасининг ривожланишига боғлиқ.

**Хулоса** ўрнида айтиш мумкинки, Ўзбекистонда иқтисодий ислохотларни амалга оширишнинг дастлабки босқичида қўлга киритилган энг муҳим натижа – яқка тартибда уй-жой қурилиши кўламини анча кенгайтиришга муваффақ бўлинди, бу ҳол аҳолини уй-жой

билан таъминлаш, республика аҳолисининг коммунал-маиший ва уй-жой шароитларини яхшилаш соҳасидаги анчагина муаммоларни ҳал қилишга ёрдам берди.

Шу билан бирга, бозор иқтисодиётининг пойдевори – давлат тасарруфидан ташқаридаги мулк пайдо бўлди. Хусусийлаштиришнинг ҳуқуқий асослари яратилди. Уй-жой фондининг хусусийлаштирилиши муносабати билан коммунал хизмат кўрсатиш тизимида ҳам туб ўзгаришлар бўлди. Бу тизим бутунлай маҳаллий бошқарув органлари ихтиёрига ўтди. Минтақаларнинг аҳолига коммунал хизмат кўрсатишдаги мустақиллиги ва масъулияти ортди.

Бу ўзгаришлар ва яратилган имкониятлар, ўз навбатида, аҳоли турмуш даражасини яхшилашда уй-жой коммунал хизматлар тизимини жадаллаштириш, ижтимоий сиёсатни самарали ишлаб чиқишда аҳолига ёрдам кўрсатишда, асосланган қарорлар қабул қилишда мамлакатда ўтказилаётган ислохотларнинг ижтимоий-иқтисодий дастурларининг амалга оширилишини муҳим аҳамият касб этади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Бузырев, В.В. Экономика жилищной сферы. В.В. Бузырев, В.С. Чекалин. – М.: ИНФРА-М, 2005. – 256 с.;
2. Жуков, Д.М. Экономика и организация жилищно-коммунального хозяйства города / Д.М. Жуков. – М.: ВЛАДОС-пресс, 2005. – 95 с.;
3. Нурибетов Р.И., Носирова Л.А. Проблемы развития жилищно-коммунальной сферы. “Ўзбекистон меъморчилиги, қурилиш ва шаҳарсозлигининг ривожланиши муаммолари” мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари, I-қисм, Самарқанд, 2007;
4. Ёдгаров В.У., Бутунов Д.Я. Уй-жой коммунал хўжалиги ва иқтисодиёти. Дарслик. 2011.

<https://doi.org/10.59251/2181-3973.2023.v3.138.3.2560>

## ДАВЛАТ ВА ЖАМИЯТ БОШҚАРУВИДА ЁШЛАР КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ

**Насимов Дилмурод Абдуллоевич**

*Ўзбекистон Республикаси Президент ҳузуридаги  
Давлат бошқаруви академияси Самарқанд ҳудудий филиали директори,  
иқтисодиёт фанлари доктори, профессор*

**Холбаев Шахриёр Абдуллаевич**

*Ўзбекистон Республикаси Президент ҳузуридаги  
Давлат бошқаруви академияси “Бошқарув маҳорати” кафедраси  
доценти, иқтисодиёт фанлари фалсафа доктори  
+998938395577*

**Аннотация.** Ушбу мақолада давлат ва жамият бошқарувида ёшларнинг давлат фуқаролик хизматчиси сифатида адаптацияси (мослашуви), шунингдек ёшлар компетентлигини ошириш масалалари таҳлил қилинган. Муаллифлар томонидан мавжуд муаммо ва қийинчиликлар аниқланган. Тадқиқотлар асосида ёшларнинг давлат фуқаролик хизматида киришида дуч келадиган асосий муаммолари таҳлил қилинган. Ўрганиш натижалари бўйича давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларида ёш мутахассисларни адаптацияси ҳамда компетентлигини ошириш бўйича тавсиялар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** Давлат, жамият, бошқарув, компетенция, мослашувчанлик, модернизация, сифат, корпоратив маданият, кадрият.

**Аннотация.** В данной статье анализированы вопросы повышения компетенций и адаптации молодежи в государственной гражданской службе. На основе проведенных исследований проанализированы основные проблемы, с которыми сталкиваются молодые люди при поступлении на государственную гражданскую службу. По результатам исследования были разработаны рекомендации по адаптации молодых специалистов в органах государственной власти и управления и по повышению их компетенций.

**Ключевые слова:** государство, общество, менеджмент, компетентность, гибкость, модернизация, качество, корпоративная культура, ценность.

**Annotation.** This article analyzes the issues of increasing competencies and adaptation of youth in the civil service. Based on the research, the main problems faced by youth while entering the public civil service were analyzed. Based on the study results, recommendations were developed for adapting young specialists in public authorities and management and improving their competencies.

**Keywords:** state, society, management, competence, flexibility, modernization, quality, corporate culture, value.

**Кириш** ёндашувни тақозо қилаётганлиги  
Ҳозирги кунда жаҳонда рўй муносабати билан, олиб борилаётган  
бераётган глобаллашув шароитида ислохотлар самарасини янада  
мамлакатимиз барқарор тараққий ошириш, давлат ва жамиятнинг ҳар  
этиб бориш учун ҳар томонлама томонлама ва жадал ривожланиши  
модернизациялашган тизимли учун шарт-шароитлар яратиш,

мамлакатимизни модернизация килиш ҳамда ҳаётнинг барча соҳаларини либераллаштириш бўйича устувор йўналишларни амалга ошириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2023 йил 11 сентябрда ПФ-158-сонли ““Ўзбекистон-2030” стратегияси тўғрисида”ги Фармони [3] имзоланди. Мазкур Фармон Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясини амалга ошириш жараёнида орттирилган тажриба ва жамоатчилик муҳокамаси натижалари асосида ишлаб чиқилган «Ўзбекистон-2030» стратегияси тасдиқланди.

Ҳар бир инсонга ўз салоҳиятини рўёбга чиқариши учун муносиб шароитларни яратиш” деб номланган биринчи йўналишида 44 мақсадни ўз ичига олган таълим тизими ислоҳотлари, аҳоли саломатлигини таъминлаш бўйича ислоҳотлар, ижтимоий хизматлар кўрсатиш ва камбағалликни қисқартириш бўйича ислоҳотлар, ёшларга оид давлат сиёсати ва спорт йўналишларидаги ислоҳотлар ва маънавий тараққиётни таъминлаш ва маданият соҳасини янги босқичга олиб чиқиш бўйича ислоҳотлар билан боғлиқ устувор вазифалар таълим ва тарбия тизимининг барча бўғинлари фаолиятида бугунги замон талаблари асосида такомиллаштиришда таълим тизимини ривожланишининг янги босқичини белгилаб берди.

Давлат фуқаролик хизматида ёшларни ҳар томонлама ривожлантириш ва уларнинг барча соҳаларда иштирок этиш масаласи мамлакатимизда давлат сиёсати

устувор йўналиши сифатида бўлиб келмоқда.

Давлатимиз раҳбарининг бу борада: “Мен ҳар гал ёшларимиз билан учрашганимда сизларнинг ғайрат-шижоатингиздан куч-қувват оламан, кўнглим тоғдай кўтарилади. Ҳар бирингиз жонажон Ватанимиз ва халқимизга сидқидилдан хизмат килиш орзуси билан ёниб яшаётганингизни яхши биламан. Сизларни Ўзбекистоннинг энг катта бойлиги, бебаҳо хазинаси сифатида қадрлайман” [9] - дея таъкидлайдилар.

Шу нуқтаи назардан, давлат фуқаролик хизмати жозибадорлигини ошириш, шунингдек хизматда ёшларни мослашувчанлик қобилиятларини ошириш, муносиб ўрнини топиши бугунги ва эртанги кунимизнинг долзарб масаласидир.

### **Мавзуга оид адабиётлар таҳлили**

Тарихий нуқтаи назардан файласуф Абу Наср Форобийнинг “Фозил одамлар шаҳри”, Низомиймулкнинг “Сиёсатнома” ва А.Темурнинг “Темур тузуклари” асарларида бу борада қатор қарашлар ва ёндашувлар мавжуд.

Ўзбекистонлик олимлардан А.Тўхтабоев [10], Қ.Х.Абдурахманов, Н.К.Зокирова [11], Д.С.Қосимова [12] ва А.Холовлар[13] персонални бошқариш, давлат фуқаролик хизматида ёшларни мослашувчанлик компетенциялари билан боғлиқ масалаларни тадқиқ этишган.

Хорижлик олимлардан В.В.Травин, В.А.Дятлов[17], Ричард Дафт[18], Т.Ю.Базарова[19] каби

олимлар асарларида кадрлар менежменти ҳамда персонални бошқариш масалаларини ўрганишган.

Иқтисодчи олим А.Холов: “Давлат фуқаролик хизматида кадрларни юқори лавозимлар учун захирага олиш, мазкур соҳада тизимли ислохотларни амалга оширишни тақозо этади. Шу мақсадда кадрлар доимо ўрганиб борилиши талаб этилади, захирага қобилиятли, ташаббускор, билимдон истиқболли кадрларнинг киритилиши таъминланиши талаб этилади. Лавозимларга тайинлашда биринчи навбатда захира рўйхатлари инобатга олинishi талаб этилади” [13]-дея таъкидлаб, давлат фуқаролик хизматида захира институтини функцияси сифатида давлат аппаратининг узлуксиз қобилиятини қайд этиб ўтганлар. Шунингдек, захирага киритишнинг мезон кўрсаткичларидан бири сифатида таълим даражаси, амалий иш тажрибаси ва инсонлар билан ишлаш тажрибаси, ёши (шахсий ҳужжат бўйича)га урғу берганлар. Шу нуқтаи назардан, ёш мутахассиснинг янги жамоага, касбий муҳитга қўшилиши меҳнат фаолиятини муваффақиятли амалга ошириш учун зарур бўлган касбий ваколатлар ва шахсий фазилатларни шакллантиришга қаратилган муҳим ва узлуксиз жараён ҳисобланади. Давлат хизматчисининг малакасини оширишнинг стратегик вазифасини ҳал қилишда касбга қизиқиш ва шахсий ривожланиш, ўз устида ишлаш, ўзини ўзи англаш учун қобилиятларни шакллантиришга қаратилган мослашиш даврини

самарали ташкил этиш муҳим ўрин тутди.

### **Тадқиқот методологияси**

Тадқиқот услубияти асосини менежмент ва инсон ресурсларини бошқариш фанининг фундаментал қонунлари, ёшларни давлат фуқаролик хизматига мослашувчанлик компетенцияларини шакллантириш тизимларига доир тадқиқот олиб борган хориж ва Ўзбекистонлик олимлар, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг маъруза ва нутқлари ташкил қилади. Мазкур тадқиқот жараёнида тизимли таҳлил, институционал таҳлил, контент таҳлил, функционал таҳлил, қиёсий таҳлил, анализ ва синтез каби илмий тадқиқот усулларидадан фойдаланилди. Тадқиқот натижаларнинг амалий аҳамияти давлат фуқаролик хизматида ёшларнинг мослашувчанлик компетенцияларини шакллантиришга доир чоратadbирлар ишлаб чиқишда жорий этиш мумкин.

### **Таҳлил ва натижалар**

Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 8 августида қабул қилинган “Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида”ги Қонуни [2] нинг еттинчи “Давлат фуқаролик хизматини ўташ тартиби” боби “Давлат фуқаролик хизматчисининг касбий компетенциясини узлуксиз равишда ошириш” деб номланган 42-моддасида назарда тутилган қуйидаги бандлари ёшларимизнинг давлат фуқаролик хизматида ёш мутахассис сифатида мослашишига ҳуқуқий жиҳатдан кафолати сифатида қараш мумкин. Шунингдек, мазкур модда бандларни давлат

фуқаролик хизматчисининг касбий компетенциясини узлуксиз равишда ошириш имкониятларини амалга ошириш механизмларига баъзи таклифларни бериб ўтмоқчимиз:

- ёш мутахассиснинг касбий компетенциясини узлуксиз равишда оширишда мутахассиснинг самарали фаолиятни йўлга қўйишда тармоқ ва соҳаларда “Узлуксиз ўз устида ишлаш” электрон платформаларини ишлаб чиқиш, мазкур платформада соҳа етук мутахассисларининг тажриба оммалаштиришни йўлга қўйиш мақсадга мувофиқ;

- ёш мутахассисларни касбий қайта тайёрлашда касбий билим, кўникма ва малакаларни эгаллаш билан биргаликда “Қуйидан юқорига” ва “Юқоридан қуйига” касбий топшириқ ва вазифаларни бажариш қобилиятларини ривожлантириб бориш, бунда мутахассиснинг мамлакатимизда жорий этилган “Маҳалла-Туман (шаҳар)-Вилоят-Республика” тизимида ишлаш билан боғлиқ институционал хотирасини ошириб бориш назарда тутилиши мақсадга мувофиқ;

- ёш мутахассислар касбий компетенциясини узлуксиз равишда оширишнинг асосий шакли бўлган қайта тайёрлаш, малака ошириш ва мустақил таълим олишнинг соҳа ва тармоқларнинг ўзига хос хусусиятларини инобатга олган ҳолда ҳолат, муаммо ва таклифлар тизимли ишлаб чиқилиб уни дастурий маҳсулларда ўзини ифодасини топиши мақсадга мувофиқ.

Ёш мутахассисларнинг давлат фуқаролик хизмати адаптациясида

устоз – шогирд муносабатларининг ўрни катта ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 30 майдаги “Истиқболли бошқарув кадрларини танлов асосида танлаб олишнинг замонавий тизимини яратиш чоратадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3755 сонли [4], 2019 йил 3 октябрдаги “Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсати ва давлат фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5843 сонли [5], шунингдек, “Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги давлат хизматини ривожлантириш агентлиги фаолиятини ташкил этиш чоратадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4472 сонли [6] қарор ва фармонлари юртимизда кадрлар сиёсатидаги ислохотларнинг ташкилий-ҳуқуқий асоси сифатида хизмат қилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 октябрдаги ПФ-5843-сон Фармони билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсатини ва давлат фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштиришга оид биринчи навбатдаги чоратадбирлар Дастури” [5] да ёш кадрлар учун давлат органлари ва ташкилотларидаги тажрибали раҳбарлар ва мутахассислар томонидан устозлик институтини жорий қилиш белгиланган.

Ёш давлат фуқаролик хизматчиларининг меҳнат жараёнига адаптацияси масаласи авваламбор, тўғри йўлга қўйилган устоз-шогирд тизимида боғлиқдир. Устоз шогирд

тизими ортиши ва уни давлат хизматида жорий этишнинг долзарблиги унинг анъаналари ва тарихи билан танишиш орқали ёш давлат хизматчиларининг ижтимоий шахсини шакллантириш каби ижтимоий функцияларнинг аҳамияти билан изоҳланади. давлат хизмати; бажарилаётган давлат бурчларига онгли ва масъулият билан муносабатда бўлиш, ўз ватанига хизмат қилиш бурчи туйғусини шакллантириш; касбий аҳамиятли фазилатларни шакллантириш ва бошқалар.

Устоз шогирд анъаналарига эътиборнинг ортиши ва уни давлат хизматида жорий этишнинг долзарблиги унинг анъаналари ва тарихи билан танишиш орқали ёш давлат хизматчиларининг ижтимоий шахсини шакллантириш каби ижтимоий функцияларнинг аҳамияти; давлат фуқаролик хизмати мобайнида бажарилаётган вазифаларига нисбатан онгли равишда ва масъулият билан муносабатда бўлиш, Ватанга хизмат қилиш бурчи туйғусини шакллантириш; муҳим касбий фазилатларни шакллантириш ва бошқалар билан изоҳланади.

Устоз шогирд тизими тушунчасининг олимлар томонидан амалга оширилган таҳлилига кўра таъкидлашимиз мумкинки, ушбу тизимнинг ташкилотнинг маданий кадриятларини ривожлантиришдаги ролини тушуниш, муваффақиятли мослашиш ва самарали тарғиб қилиш, шунингдек, унинг яна бир муҳим хусусияти, бу икки томонлама жараёнлигидадир, бунда нафақат шогирд ёш мутахассиснинг касбий

ўсишига ҳисса қўшади, балки мураббийнинг ўзи учун ҳам фойдалидир. Бундан ташқари, менторликни ўташнинг маълум босқичларидан ўтиш ва махсус услубий усуллардан фойдаланиш зарурати кузатилади, бу эса уни технология сифатида тушунишга олиб келади.

Хорижий олимлар [20] таҳлилларига кўра устоз шогирд институти қуйидаги босқичлардан иборат: ташкилий-услубий, мотивацион, асосий ва баҳоловчи.

Биринчи босқичда устозлик институти шакллантирилиб, амалиётга татбиқ этиш жараёни амалга оширилади, унинг доирасида ёш мутахассисга устоз томонидан касбий кўникмаларни эгаллашига кўмаклашади. Ушбу босқич муҳим ҳисобланади, чунки у бутун жараён учун мезонни белгилайди. Бу ерда устозлик турлари ва шакллари танлаш, устозлик учун масъул шахсларни тайинлаш, ёш мутахассис ва устоз ўртасидаги ўзаро муносабатларни тартибга солувчи услубий тартиб таомилларни ишлаб чиқиш амалга оширилади. Устозлик институтининг асосий турларига қуйидагиларни кўрсатишимиз мумкин: корпоратив (корпоратив кадриятларни етказиш); малака (билим ва кўникмаларга эга бўлиш жараёнида ёш мутахассисларни касбий қўллаб-қувватлаш); бир-бирини тўлдирувчи (жамоавий билимларни ривожлантиришга қаратилган касблараро ўзаро таъсир).

Устозлик институтининг шакллари орасида энг кенг тарқалганлари қуйидагилардир: тўғридан-тўғри, устоз ва ёш



мутахассис ўртасида иш вақтида ҳам, ишдан ташқари норасмий шароитда ҳам бевосита алоқани ўз ичига олади; билвосита, бунда фақатгина маслаҳат ва тавсиялар билан чекланиб, тўғридан-тўғри бевосита алоқалар минималлаштирилади; индивидуал, бир нафар ёш мутахассис бир мураббийга бириктирилади; жамоавий, бир гуруҳ ёш мутахассислар бир устозга бириктирилади; очиқ, яъни устоз ва ёш мутахассис бир-бири билан ўзаро алоқада бўлиб, бундай ўзаро муносабатларнинг мақсадлари ва кутилаётган натижалар барчага маълум бўлади ва ёпиқ ўзаро таъсир, бунда мураббийнинг ёш мутахассисга таъсири сезилмайди ва очиқланмайди.

Иккинчи босқичда устозлик институтини амалга оширишда иштирок этувчи шахсларни саралаш амалга оширилади. Ушбу жараёнда устоз танланади ва шогирдликка биринчи марта давлат хизматчиси лавозимига сайланган ёш мутахассисни тайинлаш амалга оширилади. Шу билан бирга, ёш давлат фуқаролик хизматчисининг келажак тақдири боғлиқ бўлган устозни танлаш тартибининг муҳимлигини алоҳида таъкидлаш керак. Бунда ёш мутахассис давлат фуқаролик хизмати учун муносиб мутахассис сифатида шаклланади ёки ишонч сўниб, танланган касбидан умидсизлик пайдо бўлади.

Устозлик институтининг кейинги босқичида модель танланади, услублар ва таъсир воситалари, амалга ошириш механизмлари ишлаб чиқилади. Ривожланган давлатлар амалиётида

устозлик институти моделлари орасида қуйидагилар кенг жорий этилган: классик устозлик – устоз томонидан касбий тажрибани ёш мутахассисга улашади; супервизия – бажарилган ишнинг танқидий таҳлили амалга оширишни назарда тутувчи ҳамкорлик; баддинг (дўстлик) – ўзаро таъсир жараёнида ижтимоий мавқейининг тенглигини белгилаб, расмий вазифани бажараётган ёш мутахассисга кўмаклашиш; шэдоунг (дублёрлик) – ёш мутахассиснинг меҳнат фаолиятини назорат қилиш учун устозга вақтинча бириктирилиши.

АҚШда устозлик дастурлари индивидуал хусусиятда бўлиб, янги ходимнинг ўз вазифалари доирасини мустақил ўзлаштиришига кўпроқ урғу берилади.

Германияда ёш мутахассисларнинг мослашуви ва устозлик жараёнига тегишли кўп жиҳатлар, масалан, устозликнинг мақсад ва вазифалари, устозлик қилувчининг вазифалари, устозлик фаолиятининг рағбатлантириш масалалари меъёрий ҳужжатларда батафсил белгилаб қўйилади. Тегишли меъёрий ҳужжатларнинг мавжудлиги устозлик жараёнида иштирок этувчи барча субъектларнинг қонуний ҳимоясини кафолатлайди.

Буюк Британия давлат хизматида устозлик жараёни махсус порталларга жойлаштирилган услубий воситалар асосида, услубий кўмак асосида ташкил этилади. Ташкилот ва вазирлик хусусиятидан келиб чиқиб, устозликни амалга ошириш бўйича услубий кўрсатмалар фарқ қилади. Устозлик

институтини ташкил этишда замонавий ахборот технологиялари ва ўқув усулларида кенг фойдаланилади.

Австралияда устозликни ташкил этишнинг хусусиятлари ходимларни категорияларга ажратиш орқали амалга оширилади: лавозимга янги тайинланган ёш мутахассислар учун, раҳбарлик лавозимларига захира кадрлар учун ҳамда кенг қамровли устозлик дастурлари.

Япониянинг “Кейрецу” моделида устозлик менталитетга боғлиқ, уйғунлаштирилган. Япония давлат идораларида ёш мутахассисларни мослаштириш ва устозлик дастурларини ишлаб чиқишда корпоратив руҳни тарбиялашга (келиб қўшилган идора кадрларини қабул қилиш, идора шаънига мос бўлиш, жамоага мансублигидан ғурурланиш) кўпроқ аҳамият берилди.

Россия Федерацияси устозлик институтини ҳукумат қарори доирасида мустақамлаб “Давлат фуқаролик хизматида устозлик тўғрисидаги Низом” тасдиқланган бўлиб, унда давлат идоралари ва ташкилотларида устозликни жорий этиш тартиби ўрнатилган.

### **Хулоса ва таклифлар**

Ривожланган мамлакатлар тажрибаларидан кўришимиз мумкинки: устозликни амалга ошириш ва назорат қилишда ахборот технологияларидан фойдаланиш, устозлар ва ёш мутахассислар учун ўқув жараёнларини ташкил этиш ва узлуксиз малака оширишни ташкил этиш усулларида фойдаланилади.

Бир қатор хорижий давлатларнинг устоз ва

мураббийликни қўллаш амалиёти ҳамда бу борадаги ташкилий-ҳуқуқий механизмларни ўрганиш мамлакатимиз давлат хизматида ёш мутахассисларга устозликни амалга ошириш борасидаги қуйидагилар муҳим аҳамият касб этади:

- устозлик давлат хизматида биринчи марта қабул қилинган ёш мутахассис ёки ходимга, шунингдек мазкур ходимни мансаб поғоналарини кўтарилиб боришида унга мослашув муҳитини яратиб беришда фаол кўмак берадиган тизимли ёндашувни йўлга қўйиш;

- ёш мутахассисларга устозликни қўллашнинг асосий мақсад ва вазифалари: давлат хизматчиларининг янги иш шароитларига кўникиши ва жамоага киришишида кўмаклашиш;

- ёш мутахассисларнинг касбий компетенцияларини ривожланишида ёрдам бериш;

- ёш мутахассис лавозим вазифаларини бажаришга виждонан ва интизомли ёндашишни ўргатиш;

- ёш мутахассисларга устозликни қўллаш муддати давлат идораларининг тегишли раҳбарлари томонидан устозлик қўлланган хизматчининг касбий тайёргарлиги, унинг лавозим вазифалари хусусиятлари ҳисобга олинган ҳолда маълум бир муддатлар белгиланиши мақсадга мувофиқ.

Давлат хизматида устозлик институтини жорий этиш давлат хизматида биринчи бор келган ёш мутахассисларнинг касбий шахсини шакллантириш, касбга қизиқишни уйғотиш, давлат хизмати анъаналарини сақлаш, билим, малака

ва кўникма узвийлигини таъминлаш, чиқади. Муваффақиятли жорий ўз билим ва тажрибаларини этилган устозлик институти ривожлантириш, ташкилий мукамал кадрлар ресурсларини маданиятни ривожлантириш ва шакллантириш ва давлат бошқаруви корпоратив ижтимоий масъулиятни самарадорлигини оширишга хизмат шакллантириш заруриятдан келиб қилади.

### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Расмий нашр. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2023. – 80 б.
2. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 8 августдаги «Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида»ги ЎРҚ-788 Қонуни // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрь ПФ-158-сонли ““Ўзбекистон-2030” стратегияси тўғрисида”ги Фармони // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 30 майдаги “Истиқболли бошқарув кадрларини танлов асосида танлаб олишнинг замонавий тизимини яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3755 сонли қарори // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 октябрдаги “Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсати ва давлат фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5843 сонли Фармони // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 3 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги давлат хизматини ривожлантириш агентлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4472 сонли қарори // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 6 августдаги “Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академиясининг худудий филиалларини ташкил этиш тўғрисида”ги ПҚ-3901-сон қарори // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
8. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.
9. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Ёшлари Форумида сўзлаган нутқи. Янги Ўзбекистон газетаси: №252 (252), 2020 йил 26 декабрь.
10. Тўхтабоев А. Маъмурий менежмент. Т., Молия, 2003 й. 174 б
11. Абдурахманов Қ.Х., Холмўминов Ш.Р., Зокирова Н.К. Персонални бошқариш – Т.: Ўқитувчи, 2008.
12. Қосимова Д.С. Бошқарув назарияси – Т.: Алоқачи, 2009. – Б. 38.
13. Управление персоналом: учебник для студ. учреждений сред. проф. образования / Т.Ю. Базаров. - 8-е изд., стер. - М.: Издательский центр «Академия».
14. Kemenev D. A. The institutional mentoring model in public services // [Ilkogretim Online](http://Ilkogretim Online). – 2021. – Т. 20. – №. 5.

## MUNDARIJA

<b>1. <i>Қишлоқ аҳолиси бандлигини оширишнинг ижтимоий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш.</i></b>	
Хомитов Комилжон Зоитович	<b>1-11</b>
<b>2. <i>Саноат инфратузилмасининг ҳозирги ҳолати ва уни ривожлантириш йўналишлари.</i></b>	
Шавқиев Эркин	<b>12-20</b>
<b>3. <i>Ижтимоий хизматлар бозори ривожланишини тартибга солишнинг ташиқлий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш.</i></b>	
Усманов Илёс Арзикулович	<b>21-32</b>
<b>4. <i>Хизмат кўрсатиш соҳасида давлат-хусусий шериклиги ривожланишининг хориж тажрибаси.</i></b>	
Омонов Шермухаммад Бекмурод ўғли	<b>33-45</b>
<b>5. <i>Bank muassasalarining iqtisodiy xavfsizligi holatini baholash.</i></b>	
Malikova Dilrabo Muminovna, Arutyunova Lolita Vladimirovna	<b>46-52</b>
<b>6. <i>Инновационная деятельность вузов в современных условиях развития экономики.</i></b>	
Алибекова Саодат Лапасовна	<b>53-58</b>
<b>7. <i>Хизмат кўрсатиш корхоналарида иқтисодий фаолиятни бошқариш тизимини такомиллаштириш.</i></b>	
Эрдонов Муҳаммадамин Эрдон ўғли	<b>59-69</b>
<b>8. <i>Туризм инфратузилмасида иқтисодий фаолиятнинг ривожланиш хусусиятлари.</i></b>	
Дилшод Мураткулович Абдураимов	<b>70-76</b>
<b>9. <i>Социально-экономическое значение и принципы развития сферы услуг.</i></b>	
Абдуллаева Зульфия Иззатовна	<b>77-88</b>
<b>10. <i>Xizmat ko'rsatish sohasida elektron tijoratni funksiyalari va ularning asosiy vazifalari.</i></b>	
Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o'g'li	<b>89-102</b>
<b>11. <i>Turistik xizmatlarni rivojlantirishda moddiy-madaniy meroslardan foydalanish imkoniyatlari: Samarqand regioni misolida.</i></b>	
Bahrieva Zarina Nasimovna	<b>103-106</b>
<b>12. <i>O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanish istiqbollari.</i></b>	
N.Sh. Mansurova	<b>107-117</b>
<b>13. <i>Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishda xorij tajribasining tutgan o'rni.</i></b>	
Kuldashv Sherzod Alimardonovich	<b>118-126</b>

<b>14. Qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini baholash.</b>	
Xalimov Shaxboz Xalimovich	<b>127-133</b>
<b>15. Intellektual kapital va intellektual tadbirkorlik: nazariy yondashuv.</b>	
B.Bobokulov, A.Amirov, X.Eshbekova	<b>134-142</b>
<b>16. Sanoatni rivojlantirish orqali aholini ish bilan banligini ta’minlash.</b>	
Bozorov Berdimurod Ulug’murodovich	<b>143-151</b>
<b>17. Increasing the quality of training of specialists for the banking sphere.</b>	
Ernazarov O.E, Boynazarova I.M, Nomurodov Q.O, Valieva N.Gh	<b>152-160</b>
<b>18. Turistik korxonalarda yashil innovatsion mahsulotlar orqali samaradorlikni oshirish.</b>	
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	<b>161-169</b>
<b>19. Mamlakatimizda raqamli banklar faoliyati takomilashtirish yo‘llari.</b>	
S.B.Boyoqulov, M.B.Boymurotova	<b>170-177</b>
<b>20. Qishloq joylarda maishiy xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish.</b>	
Xamdamov Eldor Toshtemirovich	<b>178-186</b>
<b>21. Intensiv bog‘dorchilikda iqtisodiy samaradorlikni oshirish: nazariy istiqbollor va istiqboldagi yo‘nalishlar.</b>	
Fazliddin Norbekov	<b>187-192</b>
<b>22. Ўзбекистонда уй-жой ва коммунал хўжалигини бошқаришнинг ташкилий асослари.</b>	
Ҳасанов Тоҳир Абдурашидович	<b>193-197</b>
<b>23. Давлат ва жамият бошқарувида ёшлар компетенциясини ошириш масалалари.</b>	
Насимов Дилмурод Абдуллоевич, Холбаев Шахриёр Абдуллаевич	<b>198-205</b>